

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
A. QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TARIX FAKULTETI

Ijtimoiy fanlar kafedrası

“Himoya qilishga ruxsat beraman”.

Tarix fakulteti dekani

f.f.n.dots. S. G'ozdiyev

“ ” 2014 y

**5141500 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

**DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHNING MA'NAVIY-
MA'RIFIY ASOSLARI VA USULLARI**
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: E.HOJIBOYEV

Ilmiy rahbar: Z. MIRKOMILOVA

**BMI Ijtimoiy fanlar kafedrası yig'ilishining qarori bilan
(2014 yil may, sonli bayonnoma) himoyaga tavsiya etilgan.**

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

Kafedra mudiri B.Ochilova

JIZZAX – 2014

Bitiruv malakaviy ishi Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida bajarilgan.

Taqrizchilar:

Jizzax davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası
f.f.n. dotsenti; **M. Saidov**

Jizzax tuman XTMFMT va TEB ga
qarashli 59-sonli umumta'lim maktabi
o'qituvchisi: **O. Mamatov**

Himoya 2014 yil _____ kuni, soat ____ da A. Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti Tarix fakul'teti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida bakalavr darajasini olish uchun bitiruv malakaviy ishlari himoyasi bo'yicha davlat attestatsiya kommissiyasi hay'ati yig'ilishida o'tkaziladi.

BMI bilan Jizzax davlat pedagogika instituti kutubxonasida tanishish mumkin (Manzil: Jizzax sh., Sh. Rashidov shoh ko'chasi, 54.)

MUNDARIJA

KIRISH.....	4-9
 I.BOB.DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHDA MA'NAVIY- MA'RIFIY USULLARDAN FOYDALANISH ZARURATI	
1.1.Diniy ekstremizmning kelib chiqishi, mohiyati va namoyon bo'lishi.....	10-33
1.2.Diniy ekstremizmga qarshi kurashning xalqaro ma'naviy va ma'rifiy asoslari.....	34-56
1.3."G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili diniy ekstremizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy usuli sifatida.....	57-82
 II.BOB. MAFKURAVIY IMMUNITET – DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHNING MUHIM OMILI	
2.1.Oila va oilaviy munosabatlarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish diniy ekstremizmga qarshi kurashning ma'naviy asosi sifatida.....	83-91
2.2. Dunyo dinlari tarixi fanida "Diniy ekstremizmga qarshi kurashning ma'naviy- ma'rifiy asoslari va usullari" mavzusini o'qitish ta'lim texnologiyasi.....	92-94
ILOVALAR.....	95-104
XULOSA.....	105-107
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	108-111

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Din kishilarni hamisha yaxshilikka va ezgu ishlarga chorlagan. Jumladan Islom, Xristian, Buddaviylik va boshqa dinlar ham ajdodlarimizning muqaddas e'tiqodlariga asoslanib, yuksak insoniy fazilatlarni shakllanishiga xizmat qilgan. Aynan ular tufayli xalqlarning ming yillar maboynida boy ma'naviyati va merosi, o'zligi omon saqlanib kelindi. Afsuski aynan shu e'tiqodlardan diniy ekstremistlar va terrorchilar o'z g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanishga harakat qilmoqdalar. Bu esa butun kishilik jamiyatiga, jumladan mustaqil O'zbekiston davlatiga nisbatan turli tahdidlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Manfur kimsalarning asl qiyofalari o'z jinoyatlarida oshkor bo'lmoqda. Ayna paytda, bunday jarayonlar kishilarni doimiy ogoh bo'lishga, haqiqiy diniy qadriyatlarni ularning sohta va g'arazli talqinlaridan farqlashga yordam beradigan bilimlarni egallashga undaydi. Zero yurtboshimiz Islom Karimov: "Xalqimizning tabiatiga mutlaqo zid bo'lgan siyosiy, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz oqimlarning mintiqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlikka va osoyishtalikka, farzandlarimizning kelajagiga katta xavf tug'dirishini odamlar ongiga chuqur singdirib borish kerak. Halqimiz tafakkurida axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish va mustahkamlash orqali yovuz kuchlarga qarshi kurashga safarbar etish zarur",¹-deb alohida qayd etgandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalarida ham insonlar erkiga dahl qilmaslik, barchaning qonun oldida teng ekanligi (18-modda), barcha uchun vijdon erkinligining kafolatlanganligi (31 – modda), konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maq'sad qilib qo'yuvchi, respublikaning suverenitetyeti, yaxlitligi va xavfsizligiga fuq'arolarning konstituttsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy,

¹Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild.-Toshkent.: O'zbekiston, 2004.- 260 bet.

milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligiga va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta'qiqlanadi, (57-modda). Bularning teg zamirida millat va davlat tinchligi-barqarorligini saqlash asosiy maqsad etib belgilangan.

Davlat va xalqlarning tinchligi, hamda barqarorligini saqlash maqsadida turli vayronkor kuchlarga qarshi kurash olib borilish va ularning tizimli bo'lishiga erishish lozim. Buning uchun insonlar ongini ezgu g'oyalar, obektiv ilmiy bilimlar va nazariyalarga ega ma'lumotlar bilan boyitib borish kerak. Yuqorida qayd etilgan mulohazalarga asoslanib, mavzuning dolzarbligini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Din va diniy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularni gnoseologik ontologik va akseologik o'rganish o'sib kelayotgan avlodlar oldidagi asosiy vazifadir. Zero bu dinyoqarashning teran va to'g'ri shakllanishiga olib keladi.

Diniy ekstremizmning yuzaga kelishi, ularning asl mohiyati va jamiyatga salbiy ta'sirlarni mukammal va ob'yektiv o'rganish lozim, bu turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashishning asosi sanaladi.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashishning ma'naviy-siyosiy va huquqiy asoslarini to'laqonli o'rganish shart. Bu aynan kishilik jamiyati tinchligiga rahna soluvchi vayronkor kuchlarga qarshi kurashishning tayanchidir. Butunjahon xalqlari o'rtasida turli shartnomalar tuzilgan bo'lib, ularning zamiri adolat, tenglik va erkinlik tamoyillariga asoslangan. Ularni to'laqonli o'rganish yoshlar mafkuraviy immunitetining barqarorligini ta'minlaydi. Mustaqil O'zbekistonda ham vijdon erkinligi konstitutsiyaviy asosda ta'minlangan. Turli diniy tashkilotlar faoliyati uchun ham zaruriy huquqiy sharoitlar mavjud. Mazkur sohaga oid qonunlarni buzganlik uchush tegishli qonuniy choralarni ko'rish esa, faqat ezgu maqsadlar yo'lida, ya'ni xalq tinchligi, mustaqillikning barqarorligi va millat ravnaqi yo'lida amalga oshiriladi.

Diniy aqidaviy ta'limotlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish bugungi jarayonlar mohiyatini, diniy ekstremizmning g'oyaviy ildizlarini chiqurroq

anglashga xizmat qiladi. Buyuk ajdodlarimizning turli diniy ilmlari, jumladan Islom dini ilmlari va madaniyati rivojida yuksak o'rnini anglab yetish esa bunday g'oya va harakatlarning xalqimizni bunyodkorlik va bag'rikenglik an'analariga mutlaqo zid ekanini tushunishga ko'maklashadi. Demak, ilmiy tahlil etish bilimlarimizning kengayishi va boyishiga olib kelar ekan.

Shuningdek, diniy ekstremistik harakatlar hozirga kelib global muammolarga aylangan, ularga qarshi esa barcha sog'lom kuchlar birgalikda harakat qilibgina yenga olishi mumkin. Shundan kelib chiqib, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar olib borayotgan faoliyatlar haqida batafsil habardor bo'lish zarur hisoblanadi.

Mintaqaviy, jumladan O'zbekiston davlatida diniy ekstremizmning namoyon bo'lishini o'ziga xos xususiyatlari, yoshlar va xotin-qizlarni bunday kuchlarning asosiy nishoniga aylanishi sabablari va "jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasining mohiyatini teran anglash dolzarbdir.

Insoniyat taqdiriga dahldor bo'lgan diniy ekstremizmning oldini olish va unga qarshi kurashda Mustaqil O'zbekiston davlatining o'ziga xos o'rnini xalqaro siyosatchilar va nufuzli mutahassislar tomonidan oshkora ijobiy e'tirof etilmoqda. Bu yo'lda O'zbekistonning qat'iy siyosati mavjud bo'lib, u Markaziy Osiyda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdir. Bu ta'limotlarni kelajak avlod ongiga singdirish va ularda turli axloqiy tamoyillar; tinchlikparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik va bq. keng shakllantirish hozirgi davrning muhim masalalaridan biridir.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashishning turli ma'naviy-ma'rifiy usullari, jumladan, xalqqa kuchli ijtimoiy himoyani ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish, bunda erkin, sof raqobatga asoslangan ijodiy ishlab chiqarish sharoitlarini yaratish, tinchlikka rahna soluvchi jinoiy harakatlarga qarshi tizimli huquqiy tadbirlar, zarur bo'lganda keskin qonuniy choralarni ko'rish masalarini o'rganish. Bunda targ'ibot-tashviqot usuli, ta'limda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, milliy-diniy qadriyatlar aks etgan an'analarni boyitib borish, ularning nazariy asoslarini bilish, yuksak ma'naviyatni shakllantirish lozim. Bunda ilmiy-nazariy tadqiqotlar o'rnini beqiyosdir.

“Sog’lom bola yili” davlat dasturlaridan kelib chiqib kelajak avlodning jismonan baquvvat, ma’nan boy va mafkuraviy immuniteti barqaror bo’lgan shaxslar etib tarbiyalash, bunda sog’lom oilaviy muhitning o’rni masalalarini mukammal tadqiq etish eng asosiy vazifamizdir. Zero, shu yo’l bilan vayronkor kuchlarga qarshi tizimli va samarali kurashish mumkin.

Mavzuning o’rganilganlik darajasi: Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishish jarayonida xalqaro tashkilotlar va O’zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan qonun va farmoyishlar, prezident tomonidan e’tirof etilgan siyosiy va huquqiy manbalar, shuningdek dinlarning asosiy manbalari mavzuni yoritishda nazariy metodologik asos vazifasini o’tadi. Diniy ekstremizm va aqidaparastlik kabi muammolarni o’rganilganligi bilan qiziqqanimda bunga oid juda ko’p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligini bildim. Jumladan; BMTning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish ifoda etilgan turli rasmiy hujjatlari: masalan, 1972 yil 18 dekabr kungi 3034-rezolyutsiya, 2001 yilgi 1373-sonli rezolyutsiya, 1997 yil Toshkent Dekloratsiyasi, bundan tashqari, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18, 31, 57- moddalar va “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasining qonuni, shuningdek ularda vijdon erkinligining alohida e’tirof etilganligi, davlatda zo’rovonlikka asoslangan har qanday faoliyat millat va davlat erkiga rahna soluvchi harakatlar bo’lib, ular qat’iyan man etilishi ta’kidlangan.

Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimovning bir qator asarlari masalan, “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “O’zbekistonning o’z istiqlool va taraqqiyot yo’li”, “Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak”, “O’zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo’lmaydi”, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, “Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O’zbekiston” va h.k. nazariy- metodologik asos bo’ldi. Bu asarlarda jamiyat taraqqiyotiga rahna soluvchi turli g’oya va harakatlar qatorida diniy ekstremizm ham e’tirof etiladi. Unga qarshi kurashishda mafkuraviy immunitetni barqarorlashtirish, ma’naviyatni yuksaltirish, yoshlarni turli hurujlardan saqlashda ularning ma’rifiy faoliyatini

samaradorligini oshirish, g'oviy bo'shliq mavjud bo'lsa ularni faq'at ezgu mafkura bilan to'ldirish, milliy va diniy qadriyatlarni chuqur o'rganish, yoshlarni sport va asl san'atga oshno etish, bu jarayonda milliy qadriyatlardan oqilona foydalanish. Barchamiz bir inson bo'lib, terrorizm va ekstremizm xavfiga qarshi kurash olib borishimiz, "O'z uyingni o'zing asra" degan shiorning ma'nosini keng va chuqur anglab, vatanimizning tinchligini, xalqimizning osoyishtaligini ko'z qorachig'idek saqlashimiz zarurligi e'tirof etiladi, doimiy ogohlikka chorlanadi.

Mazkur muammo tahlil etilgan ilmiy, diniy, badiiy asarlarni ham alohida e'tirof etish kerak deb hisoblayman. Masalan: Husniddinov Z. "Diniy ekstremizm va tarrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" (2005 yil), A.Azimov "Religioznyy ekstremizm i fundamentalizm"(1998 yil), O.Abdullajonov "Diniy aqidaparastlikning kelib chiq'ishi, mohiyati va O'zekistonga kirib kelishi"(2000 yil), Z.G'ofurov, F.Tohirov "Terrorizm va diniy ekstremizmning ijtimoiy xavfliligi" (2004 yil), A.Zakurlayev "G'oyalar kurashi"(2000 yil), N.Komilov "Islom – ma'rifatdir. Ogoh bo'laylik"(1999 yil), M.Rajabova "Diniy ekstremizms va terrorchilikka qarshi kurash muammolari" (2003 yil), N.Safarova "Terrorizm" (2009 yil), Z.Xusniddinov "Islom – yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar" (2000 yil), Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik" (2007 yil) va boshqa ilmiy tadq'iqotlarda diniy ekstremizmning mazmun-mohiyati, xususiyatlari, ularni keltirib chiqargan sabablar, omillar, jamiyat taraqqiyotiga ta'siri keng va batafsil bayon etilgan.

Mavzuni yoritishda darsliklar: Dinshunoslik ma'ruza matni (1995-2000, 2004 yillar), A.Hasanov va boshqalar "Islom tarixi" (2008 yil), Q'.Nazarov "Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi"(2004 yil), Q'.Nazarov "G'oyalar falsafasi" (2011 yil), M.Ahmedova "Falsafa" (2006 yil) va boshq'alarda diniy ekstremizm ilmiy tahlili etilib, ta'riflar, tezislar va asoslar yordamida bayon etilgan.

Diniy manbalardan "Qur'oni Karim" (2001 yil), Imom al-Buxoriy: "Al-Jomi' as-sahih" (1991-1993 yillar), Abdulvahhob Xalloy "Usulul fiq'h" (1999 yil) va h.k.larda zaruriy va qiziqarli ma'lumotlar olinib bitiruv malakaviy ish

mavzusini ta'lil etishda qo'lladim. Bundan tashq'ari qo'shimcha va badiiy adabiyotlardan, elektron adabiyotlardan foydalandim. Bu manbalarda diniy ekstremizm diniy tasnifda ham har tomonlama qoralanganligini, demak-ki asl diniy ta'limotlarda har qanday insonparvarlikka qarshi faoliyatlar va g'oyalar qattiq qoralanganligini ko'rish mumkin ekan.

Hozirgi globallashuvv davrida diniy ekstremistik harakatlar o'z g'arazli maq'sadlari yo'lida har qanday jirkanch usullar va vositalari qo'llab faoliyat olib bormoqdalar. Ular faoliyatlarini manfaatdan kelib chiqib hyech qachon to'xtatmaydilar, demak, ular haqidagi bilimlarni boyitib borish va vorisiyligini ta'minlash, qarshi kurashda hamjihat bo'lib birlashish zarur ekan.

Maqsad va vazifalari: Diniy ekstremizmga qarshi kurashish zarurat ekanligi, kurashning ma'naviy asoslari sifatida huquqiy, diniy, ilmiy manbalarni ob'yektiv o'rganish lozimligi, kurashning turli usullari sirasiga huquqiy sohadagi turli qonun va farmoyishlar asosidagi choralalar, ma'naviy-tashviqot, ma'rifiy usullar sirasiga ta'limda qollaniladigan zamonaviy texnologiyaga asoslangan, OAV larini qollagan holda targ'ibotlar va ulardan oqilona tarzda foydalanish kerakligi, jahon tajribasidan oziqlanib, ammo mentalitetga mos keladigan yangi usul va vositalarni topish, qollash kerakligini nazariy tahlil etish.

Mavzuning predmeti va ob'yekti: diniy ekstremistik harakatlarning mohiyati va kelib chiqishi, jamiyatga ta'siri unga qarshi kurash, bunda ma'naviy-ma'rifiy omillar bilan bog'liq masalalar tizimli tahlil etilgan. Shuningdek, diniy ekstremizmga qarshi kurash usullari bayon etilgan.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzulishi: Kirish qismi, ikki bob, besh bo'lim, xulosa va adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi____bet.

I.BOB. Diniy ekstremizmga qarshi kurashda ma'naviy- ma'rifiy usullardan foydalanish zarurati

1.1.Diniy ekstremizmning: kelib chiqishi, mohiyati va namoyon bo'lishi

XX asrda dunyoda oldin mavjud bo'lgan jo'g'rofiy manzara o'zgardi. Bunga sobiq sho'ro davlatining parchalanishi katta ta'sir ko'rsatdi. Mustaqil davlatlar sonining oshishi bilan birga turli etnik, milliy, diniy, iqtisodiy, siyosiy muammolarning ko'lam ham kengaydi. Ana shunday global masshtabda keng yoyilgan muammolardan biri diniy ekstremizmdir. Bu zo'rovonlikka asoslangan harakatlar nafaqat O'zbekiston, balki jahonning barcha davlatlarini osoyishta yashashlariga rahna solmoqda. Aslida diniy qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra insonlarni hamisha yaxshilik sari eltuvchi bebaho kuchdir Faqat vayronkor g'oyalarni o'zlariga maqsad qilib olgan kimsalar dindan niqob sifatida foydalanishga urinishadilar: "...jahon jamoatchiligi...diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalanayotgani, ba'zan hatto xavfsirayotgani ham ko'zga tashlanmoqda"². Kishilik tarixiy taraqqiyotida tinchlik va barq'arorlikka rahna soluvchi turli harakatlarni ko'plab ko'rish mumkin. Insoniyat tarixini o'rganish barobarida turli bunyodkor va vayronkor kuchlar hamda harakatlarni, ular orasidagi ziddiyatli munosabatlarni ko'rish mumkin. Agar faoliyatlar ezgulikka asoslangan bo'lsa, ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar faoliyatlar vayronkorliklarga asoslangan bo'lsa, unda jamiyatga salbiy ta'sirlarni ko'rish mumkin. Bunday harakatlar insoniyat yaralibdiki yuzaga kelmoq'da va ehtiyojlar, manfaatlar bor ekan abadiydir. Shular qatoriga diniy ekstremizm, aqidaparastlik va fundamentalizmlar kiradi. Ushbu ilmiy tahlilda diniy ekstremizm mazmun-mohiyatini, kelib chiq'ish omillarini va ularga qarshi kurashish zaruratining yuzaga kelishini yoritib o'tamiz. Bu masalani tasniflashda hozirgi zamon va o'tmish tarixni bog'lash asosida yoritish maq'sadga muvofiq. XX asrda zo'ravonlik, agressiya inson borlig'ining barcha jabhalariga kirib

² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.:O'zbekiston,1997y.-34-35 bet.

bordi. Diniy ekstremizm zo'rovonlik va vayronkorlik bilan bir qatorda turibgina qolmasdan, balki ularning o'ziga xos namoyon bo'lishidir.

“Diniy ekstremizm – ekstremizmning din niq'obida namoyon bo'lish shakli. Ekstremizm muammolarni hal etishda o'ta keskin chora - tadbirlarni, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotni anglatadi. Diniy ekstremizm ana shu tamoyillarga asoslanadi”³. Bu tushuncha XX asr ilmiy atamalarida qo'llanila boshlangan. Aslida diniy mutaassiblik va diniy ekstremizm, terrorchilik harakatlari, umuman ekstremistik, terroristik faoliyatlar paydo bo'lganiga ko'p vaqt bo'lgan bo'lsa ham, ularni ilmiy tahlil etish, bunday harakatlarning keng yoyilishi aynan XX asrda ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda ekstremizm tushunchasining mohiyatiga ham to'xtalib o'tish kerak: “Ekstremizm tushunchasi lotincha extremus –“O'ta” so'zidan olingan bo'lib, ijtimoiy – siyosiy harakterdagi muammolarni hal etishda o'ta keskin chora-tadbirlar, fikr - qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyot”⁴.

Ekstremizm mazmuniga ko'ra: diniy va dunyoviy turlarga ajraladi. Dunyoviy ekstremizmning o'zi siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy shakllarga bo'linadi.

Namoyon bo'lishiga ko'ra: hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Diniy ekstremizm reaksiya nazariya va amaliyot birligi bo'lib, ma'lum vayronkor g'oya va mafkuralarga asoslanadi. Ekstremistik qarashlar juda chuqur ildizlarga ega bo'lib, hеч qachon chegara bilmagan. Shu o'rinda din, millat va hududni tan olmagan. Dunyoviy ekstremizmning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy ko'rinishlari mavjud bo'lgani holda, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistik ruhdagi qarashlarni Xristianlik dini yo'nalishlari bo'lgan: katoliklar, protestantlar, pravoslavlarda, shuningdek Islom dinida ham uchratish mumkin.

Diniy ekstremistlar qayerda faoliyat olib bormasinlar, asosiy maqsadlari diniy davlatni barpo etish bo'lib, bu maqsadga o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali, ya'ni qon to'kish va zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydilar.

³ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar va atamalar.(qisqacha izohli lug'at).-T.:Yangi asr avlodi, 2002-37 bet.

⁴ O'sha manba. 172 bet.

Diniy ekstremizm ham namoyon bo'lishiga ko'ra: hududiy, mintaqaviy va xalqaro shakllarga bo'linadi. Agar dinlarning paydo bo'lishiga e'tibor beradigan bo'lsak bunday g'oyalar juda qadimdan yuzaga kelgan va chegara tanlamagan.

Diniy ekstremizm qayerda va qaysi din bayrog'i ostida faoliyat olib bormasin, hamisha jamiyatning tinch xayotiga rahna solish xususiyatiga asoslanadi. Bu esa, mustaq'illikka ham, jamiyat taraqqiyotiga ham katta g'ov bo'ladi. Diniy ekstremistik guruxlar bosh maqsadi bo'lgan davlatni qo'lga kiritish uchun har qanday jirkanch usullardan ham tap tortmay ishlatadilar. Bugungi kunga kelib nafaqat Islom dini olamida, balki butun jahonda diniy ekstremizmning asl qiyofasi to'la-to'kis namoyon bo'lib qolmoqda. Manbalarni tahlil etish jarayonida diniy ekstremizmni to'laqonli o'rganish uchun avvalo aqidaparastlikni ko'rib o'amiz. Zero diniy aqidaparastlik diniy ekstremizmning yuzaga kelishiga asosiy omil vazifasini bajargan. Demak, qadimda ham o'ta ya'ni, ekstremal tushunchasi lotin va yunon ilmiy ta'limotlarda qo'llanilgan. Keyinchalik bu tushunchani ijtimoiy tizimning turli sohalariga nisbatan ishlatilgan. Shundan diniy, siyosiy, iqtisodiy, harbiy ekstremistik harakatlar tushunchalari ishlatilgan. Diniy ekstremizm asosida diniy aqidaparastlik yotadi.

“Aqidaparastlik (aq'ida- arabcha- ishonch) muayyan sharoitda, biron-bir tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutloqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, hamda ularni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda ko'r-ko'rona qo'llashga urinishni anglatadi”⁵.

Diniy aqidaparastlik o'z aqidasining shak-shubhasiz to'g'riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, din asoslarini buzishda namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, diniy aqidaparastlik – siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy mummolarni ilk, ya'ni u yoki bu din paydo bo'lgan paytdagi arkonlar asosida hal etishga intiladigan qarash va harakatlardan iborat. O'z navbatida diniy aqidaparastlik - diniy ekstremizmga zamin tayyorlaydi.

⁵ Yusupov O. tahriri ostida, Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuzta savolga- yuzta javob)-T.:”Toshkent Islom Universiteti”, 2007,44-bet.

Turli millat va dunyoviy dinlar asosida aqidaparastlik harakatlari ham paydo bo'ldi. Buning asosida faq'at o'z g'oyalarini mutloq'lashtirish yotadi. Aynan shunday g'oyalar ziddiyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Tarixiy taraqqiyotda turli guruhlar bunday faoliyatardan o'z maq'sadari yo'lida foydalanib kelmoq'dalar. Ma'lum yangi ijtimoiy- iqtisodiy tuzumlar yuzaga kelganda ayniqsa bu kabi harakatlar keskinlashganligini ko'rish mumkin. Hozirgi davrda o'zaro g'oyalar o'rtasidagi ziddiyatlar va mafkuraviy hurujlar ma'lum reaksiyon guruxlarning yangicha kurash usullaridir.

“Fundamentalizm”, “Diniy ekstremizm”, “Terrorizm”, “Diniy mutaassilik” va boshqa qator tushunchalar jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidarga mos kelmaydigan va ularga zid bo'lgan g'oyalar hamda faoliyatlarni ifodlaydilar.

Yuqoridagi tushunchalar bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'zaro ta'sir etib, to'ldirib turadilar. Masalan diniy fundamentalizm va diniy mutaassiblik negizida diniy ekstremizm kelib chiqdi. Diniy fundamentalizm diniy aqidalarni o'zgartirishga qarshi bo'lib, diniy manbalarni talqin va tahlil etilishiga murosasiz kurashadilar, aqliy omillar asosidagi fikrlardan diniy e'tiqodni ustun qo'yadilar. Fundamentalizm u yoki bu ko'rinishda Xristianlik, Yahudiylik, Hinduizm, Buddizm, Islom kabi dinlarning barchasiga xosdir. Dastlab Islom dinidagi fundamentalizmning yuzaga kelishida IX asrda yuzaga kelgan sunniylikdagi hanbaliya mazhabining ta'limoti asos bo'lgan.

Xristian dinidagi fundamentalizmning yuzaga kelishiga XIII asrda Foma Akvinskiyning Tomizm oqimi ta'limoti asos bo'lgan. Diniy fundamentalizm ma'lum ma'noda fanatizmning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Barcha ma'lumotlarni umumlashtiraylik: diniy fundamentalistlar dastlab mavjud bo'lgan diniy aqidalarni, manbalarni, g'oya va mafkuralarni, hattoki ilk diniy urf-odatlarini, an'analarni o'zgartirishga qarshi bo'ladilar va ularga ijodiy yondashmoqchi bo'lganlarga ayovsiz qarshi kurashadilar, diniy fanatizm vakillari o'z dinlarining haq'iqiyligiga qattiq' ishonadilar va ulardan boshqa biror din, uninga oid ta'limotlarni tan olmaydilar, o'zga din aqidalariga qarshi kurashadilar. Diniy mutaassiblar ma'lum bir dinni ishonchli deb e'tirof etdilar

va boshqa har qanday din turlari, shakllarini o'zlariga raqib deb bildilar. Agar ulardagi biror g'oya va ta'limot o'zaro muvofiq tushsa tan oldilar, aks holda keskin rad etdilar. Tarixiy-falsafiy ma'lumotlarni o'rganganimizda Xristianlik dinidagi o'rta asrlarda paydo bo'lgan va bu dinni keng tarqalishida asosiy rol o'ynagan apolojenlar asosan shunga o'xshash vazifani bajaradilar: "Apolojen – qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, apolojema – himoya qilaman degan ma'noni bildiradi"⁶. Qadimgi Rim imperiyasining ko'pxudolik dinlariga nisbatan yangi din Xristianlikning afzalliklarini targ'ib qilgan, uning yuksak axloqiy tamoyillarini va jamiyat uchun foydali ekanligini asoslashga uringan ilk nasroniy ilohiyotchilar va faylasuflar. Ular o'z faoliyatlarida ham ekstremistik va terroristik harakatlardan foydalanganlar. Bu vaqtda davlat yoki umumjahon miqyosida ommaviy tus olmagan, ammo tinchlik va osoyishtalikka albatta rahna solgan. Tarixiy voqyealarni o'rganganimizda diniy mutaassiblik, diniy ekstremizm, diniy fundamentalistik harakatlar XX asrga kelib juda keng tarqalganini ko'ramiz: "Masalan XX asr boshlarida AQSH davlatida istiqomat qiluvchi xristianlik dinining protestantlik oqimi tarafdorlari orasida konservativ fikr yurituvchilar paydo bo'ladi va kelajakni emas o'tmish aqidalarni yoqlab chiq'adilar. Ularning faoliyatlari asosida ilmiy muomalaga "Fundamentalizm" atamasi kirib keladi"⁷. Afsuski ana shu aqidaparastlik va mutaassiblik harakatlari diniy ekstremizmining paydo bo'lishiga asosiy omil bo'ldilar. Fundamentalistlar Xristian dinida o'z faoliyatida uch davrga bo'linadi: birinchi davr- IX asr, ikkinchi davr – XVIII asrni, uchinchi davr- XX asrni q'amrab olgan. Bu xristianlik dinining radikal protestantlik oqimi bag'rida paydo bo'lgan konservativ (qotib qolgan) yo'nalishdir. U ratsionalizm va eskirgan diniy tushunchalarni qayta ko'rib chiq'ish tarafdori bo'lgan liberal protestantizmga qarshi qaratilgan edi. Demak, xristian fundamentalizmi ma'lum g'oyalar, qadriyatlar va maqsadlarga so'zsiz, ko'r-ko'rona ergashish tarafdori bo'lgan mafkura va siyosatdir.

⁶ Falsafa: qomusiy lug'at (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov) .-T.: "Sharq", 2004. -33bet.

⁷ Qirg'izboyev M. Terrorizm va ekstremizm: asosiy tushunchalari va yo'nalishlari.-Toshkent.: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2001, -8bet.

Provaslav fundametalizmi ko'p hollarda milliy tuyg'ular bilan bog'liq holda namoyon boladi. Provaslaviyening qayta tiklanishi, eng avvalo, Rus (Rossiya)ning qayta tiklanishi deb qaraladi. Provaslav fundamentalizmida panslavyan g'oyalari o'rin olgan. Aslida bularda ham ma'lum g'oyani hukmron mavqyega olib chiqish maqsad bo'lgan. O'z maq'sadlariga esa faqat nizolar, hajm doirasi kichik bo'lsada terroristik zo'rlikka va ekstremistik harakatlar asosida erishganlar. Ular faoliyatini tahlil qilganda, maqsadlari yovuz ekanligini va o'z niyatlariga erishish uchun har qanday qabih usul, vositalardan foydalanadilar. Demak, jamiyat va insoniyat barqarorligiga tahdid soladi.

Diniy ekstremistik harakatlar yuqoridagi nazariyalarga asoslangan bo'lib, maq'sadlari davlatni egallash bilan yakun topadi. Diniy ekstremizm, fanatizm, fundamentalizm kabilar ham shular sirasiga kiradi: "Afsuski, insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch sifatida, hatto fanatizm (o'ta ketgan mutaassiblik) sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvch misollar ko'p"⁸.

Diniy ekstremizm diniy mutaassiblikning ma'lum tomonlariga asoslangan bo'ladi. Jumladan, diniy mutaassiblik turli reaksiya harakatlardan foydalanadi, biror millat va xalqning qadriyatlarini tap tortmasdan oyoq osti qila oladilar, "vayron qiluvchi kuch" sifatida maydonga chiqadilar, ikkalasida ham Yaratganga o'z jonini fido etish muqaddas sanaladi. Terrorizm, fundamentalizm, ekstremizm kabi mutaassiblikning ham turlari mavjud. Dastlab "terror" tushunchasi qadimgi yunon tilida "qo'rqinch", "dahshat" ma'nolarini anglatgan holda ishlatilgan. Keyinchalik diniy ekstremistlarning usuli sifatida terror usuli tilga olingan. Yana asosiy bir-biriga aynanlik tomoni ular barchasi millatlar, dinlar aro turli ziddiyatlar va ixtiloflar keltirib chiqaradilar. Davlat to'ntarishlari olib borish zarur deb hisoblaydilar, diniy nazariyalarni niqob sifatida qo'llaydilar. Diniy mutaassiblik diniy fundamentalizmning asosi bo'lgan. Diniy agressiv guruhlar ruhiy ta'sir usullaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanganlar. Hatto o'z qarashlarining haqqoniy qilib ko'rsatish uchun fanning buyuk allomalari

⁸ Safarova N. Terrorizm (tarixiy-falsafiy tahlil)- T.: Noshir, 2009,50-bet.

nazariyalaridan ustalik bilan foydalanganlar. Bu xuddi yolg'onni chin qilib ko'rsatgan sofizm ta'limotlariga o'xshaydi. Hozirgi vaq'tda Islom dinidida diniy ekstremizm o'zining ikki "davosi" bilan ajralib turadi:

go'yo barcha hozirgi zamon musulmon jamoalari islomiy tuslarini yo'qotganlar va johiliya⁹ asri jamiyatlariga aylanganlar. Bunday yondashuv hukumat va uning olib borayotgan siyosatini tanqid qilishga "asos" bo'lib xizmat qiladi;

go'yo haqiqiy musulmonlar, ya'ni diniy ekstremistik guruhlar hokimiyatga kelgach, bo'lajak "islomiy tartib"ni o'rnatishi mumkin. "Islomiy tartib" ni o'rnatish uchun o'ta keskin va agressiv harakat qilishlari zarurligi e'tirof etiladi. Bunday harakatning qonunga muvofiq'ligi masalasi esa ular tomonidan umuman o'rta qo'yilmaydi. Zero, ular faqat shariatga tayanib (aslida shariatni ham ular tor ma'noda tushunadilar va talqin etadilar) ish ko'rishni va go'yoki islomdan chekingan hokimiyatni ag'darishga o'zlarini haqli deb da'vo qiladilar.

Islom diniy ekstremizmining o'z kelib chiq'ish tarixi mavjud. Islom dinidagi ekstremizmining birinchi nazariyotchisi Taqiyuddin ibn Taymiya (1263 – 1328 yy.)¹⁰ edi. U Suriyalik bo'lib, Islom dinini yaxshi o'rganada va o'zi ham shu dinda oid asarlar yozadi. Taqiyuddin ibn Taymiya o'z davrida eng yirik ilohiyotchi olimlardan sanalgan. Hatto uning yuz jilddan ortiq asarlari o'rta asrlar islom dini merosining tarkibiga kiritilgan, bundan tashqari ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan. Tadqiqotchilarning anqlashicha, Taqiyuddin ibn Taymiyaning "ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan"ligidan diniy ekstremistik guruhlar o'zlarining g'arazli maqsadlarida foydalanishlari kerak.

Taqiyuddin ibn Taymiya yashagan davrda Suriyaning sharqiy hududlari mo'g'ullar qo'li ostida edilar, ammo axolisi musulmonlar bo'lgan. Hatto Eron va Iroqda hukmron bo'lgan ilx haqiqiy musulmon deb hisoblamas, shuning uchun ularga qarshi kurashga da'vat etardi. Buning asl sababi aniqlanmagan,

⁹Johiliya- (arab. johillik, bilmaslik) Arabiston yarim orolining Islom dinidan oldingi davri shunday atalgan. H.Yo'ldoshxo'jayev va boshqalar. Dinshunoslik, ma'ruza matni.: Toshkent, Universitet, 2000, 126-bet.

¹⁰ Yusupov O. tahriri ostida, Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuzta savolga- yuzta javob)-T.:Toshkent Islom Universiteti", 2007, 50-bet.

lekin Taqiyuddin ibn Taymiya 6 yoshli bo'lgan vaq'tda ularning oilasi mo'g'ullar tomonidan ta'qib qilinadi va ular Harron shahridan Damashqqa qochishga majbur bo'ladilar, aynan shu uning bir umrga uning xotirasida qolgan bo'lsa ajabmas. Harqalay, "islom" ekstremistlari Ibn Taymiya ijodining shu tomoniga qattiq urg'u beradilar. Afsus bu nazariyalar o'z davrida ham, keyinchalik ham Ibn Taymiya ta'limotlari jamiyat ravnaqi uchunmas, balki nizolar keltirib chiqaruvchi nazariya sifatida talqin etilgan. Shuning uchun 1981 yil bahorida Misrning "Mayu" nomli haftalik gazetasi Ibn Taymiya va uning shogirdi Ibn Kasir (1300-1372) asarlarini Misr yoshlariga eng ko'p salbiy ta'sir q'iluvchi, musulmonlar o'rtasida ziddiyatlar urug'ini sochuvchi, islom yo'lida сиёсий ҳокимиятни zo'rlik bilan egallashni asoslab beruvchi manba sifatida ko'rsatganlar. Islomshunos olim E.Sivan ta'biri bilan aytganda, Ibn Taymiya va uning izdoshlarining ta'limotlari keyinchalik eng radikal deb topilgan. Ularni tadqiq etishda ham nihoyatda e'tiborli va ehtiyot bo'lishga chorlaganlar.

Agar Ibn Taymiyani "islom" ekstremizmining g'oyaviy "bobokoloni" deb hisoblash joiz bo'lsa, "Musulmon birodarlar" harakatining rahbari Hasan al-Bannoni¹¹ (1906 – 1949) uning otasi deyish mumkin. Sababi, Hasan al-Bannon birinchi marta "Islom davlati" g'oyasini ishlab chiqadi. Uning fikricha, siyosat va din bir-biri bilan ajralmasdir, chunki islom bu- "...iymon va jamiyat, masjid va davlat, bu dunyo va u dunyodagi xayot" demakdir. Pirovard maq'sad esa umumjahon islom davlati- musulmon millatlari federatsiyasini tuzishdir.

"Musulmon birodarlari" tashkiloti vahhobiylilik mafkurasi asosida birinchi marta Misrda shakllanadi. Noan'anaviy oqimlar hammasi shunga borib taqaladi. Bu tashkilot rahbari Hasan al-Bannon 1906 yilda Misrda dindor oilada tavallud topadi. 12-13 yoshlarida diniy bilimlarni zukkolik bilan o'rganadi. 1926 yil Hasan al-Bannon Qohiraga o'qishga boradi. Oliy ta'limda 4 yil davomida tahsil oladi, Ismoiliyaga o'qishga boradi va targ'ibot ishlarini olib boradi. 1928 yilda "Al-Ixvon al-muslimin" (Musulmon birodarlari) tashkilotiga asos soladi. Tashviqot

¹¹ Abdullajonov O. Diniy aq'idaparastlikning kelib chiq'ishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi.- T.:Akademiya, 2000, 59-bet.

yordamida uning tarafdorlari ko'paya boradi. 1934 yilda Qohiraga keladi va faoliyatini yanada kengaytirishga muvoffaq bo'ladi, hatto tashkilot nashriyotiga ham ega bo'ladi. 1935 yildayoq uning tarafdorlari soni 40 taga yetadi. Tashkilotning 102 ta filiali tashkil etiladi. Tashkilot ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan kuchaya boradi.

Ularning shiori xudo- mutloq g'oya, payg'ambarimiz yo'lboshchimiz, maqsadga erishish vositasi faqat – jihod, Alloh yo'lida jon berish muqaddas tilagimiz. Ikki qilich kesilgan joyda Qur'on rasmi bor – ularning ramzi hisoblanadi.

Bu tashkilot va uning kichik guruhlarida dastlab 1928 – 1936 yillardagina qisman xayriya ma'rifatchilik bosqichi faoliyatini olib borganlar, ammo keyinchalik to'li' reaksiya, agressiv va tajovvuzkorlik harakatlarini olib borgan va hozirda ham shunday buzg'unchilik faoliyatlarini davom ettirmoqda. Aniqroq qilib aytganda ularning hozirgi zo'rlikka asoslangan terror va ekstremistik harakatlari faqat shafqatsizlikka asoslangan, oshkora tajovvuzni olib bormoqdalar. Bunday faoliyat global doirada ko'proq Islom va Xristian diniga asoslanib olib borilmoqda.

Emish-ki, ularning ta'limotlari Islom dini tarqalgan mamlakatlarda Qur'on va Shariatda ifodalangan qoidalarga to'diq rioya qiluvchi "Islomiy adolat" tamoyillari o'rnatilgan jamiyat qurish uchun siyosiy kurashni olib borish kerak. Diniy ekstremizmga asoslangan tashkilotlar murakkab va rivojlangan tizimga ega. Ularning tarkibiga harbiylashgan guruhlar, chet el shaxobchalari mavjud, dastlab jamiyat faqat arab davlatlarida faoliyat olib borardi. Sobiq Sho'rolar tuzimining yemirilishi bilan ularning harakatlari kengaydi va oshkora tajovvuz asosida jahon bo'ylab global mashstabni egallay oldilar. XXI – asrga kelib jahonda ko'plab mamlakatlarda ularning faoliyatlari rasman ta'qiqlanganlar. Afsus bilan qayd etish kerak-ki ularni tarafdorlari ham mavjud.

Rahbariyati g'arbiy Ovrupa mamlakatlaridagi markazlardan turib boshqaruvni olib boradilar. "Al-ixvon, al-muslimin" g'oyalari 3 narsaga asoslanadi:

1. Islom nuqtai nazaridan musulmonlar bir millatni tashkil qiladilar. Geografik va e'tiqod bo'yicha birodarlardir, geografik muhitni tan olishmaydi.

2. Islom nafaqat din, balki turmush tarzi unda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va dunyoviy masalalar qaror topgan.

3. Islom hamma xalqlarni tabaqalarini birodarlikka chaqiradi. Yagona rahbar xalifa bo'lishi kerak.

1944 – 45 yillarda Xasan al-Banna boshchiligidagi maxfiy organlar Misr vazirlariga do'q-po'pisa qila boshlaydilar. Ular ta'lim vaziridan barcha dunyoviy fanlar o'rnini diniy fanlar egallashi, ta'limning barcha bosqichlarida diniy fanlar o'qitilishini talab qiladilar. Bosh vazir uni tergaydi, shuning uchun unga nisbatan suyuqasd uyushtiradilar va oqibatda Xasan al-Banna q'amoqqa olinadi. 1948 yilda Xasan al-Banna o'ldiriladi. 1952 yil 26 iyunda Misrda revolyutsiya bo'lib, davlat tepasiga Jamol Abdul Nosir boshchiligidagi hur ofitserlar guruhi keladi. 1956-58 yillarda AS-SUVON to'g'oni qurilgandan so'ng sobiq SSSR bilan munosabatlarini yaxshilaydi. Aynan shu holat diniy ekstremistik guruhlariga yoq'maydi va ular 1956 yilda Abdul Nosirga suyuqasd uyushtiradilar, afsuski muvoffaqiyatsiz yakun topadi. Shundan so'ng Jamol Abdul Nosir suyuq'asd uyushtirganlarni dorga ostiradi, ularga q'arshi keng ko'lamli faoliyatlar tashkil etiladi. Shu sababli, ularning bir qismi Iordaniyaga qochib, o'sha yerda yashirin faoliyat olib bora boshlaydilar. 1967 yilda arab- isroil urushi boshlanadi, bu ularning faoliyati kuchayishiga qo'l keladi. 1970 yilda J.A. Nosir vafot etadi. Davlat tepasiga Anvar Saodat keladi. Dastlab u diniy ekstremistik guruhlar faoliyatiga ko'mak beradi, keyinchalik ularni chetlashtira boshlaydi. Darg'azab bo'lgan diniy ekstremistik guruh a'zolari 1981 yil 6 oktyabrda Anvar Saodatga suyuq'asd uyushtirib, o'limiga sababchi bo'ladilar. Ana shundan so'ng diniy ekstremistlariga nisbatan davlatda siyosiy kurash avj oladi va ular keng ma'noda ta'qibga duchor bo'ladilar. Asta – sekin shu vaqtga qadar yagona tashkilot bo'lgan “ Musulmon birodarlari “ orasida bo'linish yuz beradi va ular 3 yo'nalishga ajralib ketadilar. Jumladan:

1. ”Muxtadillar“ – Xasan al-Banna va Saxid Qutb tarafdorlari.

2. “Islom demokratlari” – “islom sotsializmi” ta'limoti izdoshlari.

3.Terror uslubini qo'llovchi turli ekstremistik tashkilotlar, ular orasida "Al-jihod", "Xizb at-tahrir, al-islomiy" ("Islom ozodlik firq'asi"), "Hizbulloh" va boshqa tashkilotlar.

"Musulmon birodarlar" harakatidan yetishib chiqqan Sayyid Qutb (1906-1965) hozirgi zamon "Islom" ekstremizmining asoschisi deb tan olingan. o'tgan asrning 50-60- yillarida Misr qamoqxonalarida jazo muddatini o'tagan S.Qutb o'zining yangi "nazariya" sini e'lon qildi. Unga ko'ra, o'zini musulmon deb hisoblovchilarning aksariyati aslida musulmon emas va dunyodagi barcha davlatlar islomga qarshidirlar. Bu "fikrlar" S.Qutbning qamoqxonada yotib yozgan "Qur'on soyasida" ("Fiy zilol al-Qur'on") va "Yo'l ko'rsatkichlari" ("Ma'olim fit-tariq") nomli kitoblarida bayon etilgan. 1965 yili S.Qutb xastaligi tufayli qamoqdan ozod qilingan, ukning rahbarligidagi ekstremistik guruh mamlakatda hokimiyatni egallashga hozirlik ko'ra boshladi. Ammo yangi hibsga olishlar to'liqini bunga imkon bermadi. S.Qutb esa o'sha yili dorga osildi. Hozirgi zamon "Islom" ekstremizmi yuqorida zikr etilgan ta'limotlarga tayaasada, bugungi kunda O'ziga xos talq'in va yondashuvlar mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi. Buni hozirgi vaqtda so'l islom oqimlarining umumiy g'oyaviy uyushmasi sifatida Pokiston, Hindiston va Bangladeshda (1671 yildan) faoliyat olib borayotgan "Jamoati islomiy" misolida ham ko'rish mumkin. "Jamoati islomiy" ning nazariy dasturini pokistonlik Abul Alo Mavdudiy ishlab chiqqan. Partiyaning ustaviga ko'ra rahbariyat tarkibi islomiy prinsip- mushovara (maslahat) asosida tuziladi. Tashkilotni barcha a'zolar tomonidan saylanadigan amir boshqaradi. Partiyaga a'zolik chegaralangan: unga "shaxsiy va ijtimoiy hayotda shariat qonunlariga q'at'iy rioya qiladigan", sinov muddatini o'tagan hamda qasamyod qilgan shaxslar qabul qilinadi. Mavdudiy ta'biri bilan aytganda, go'yo Pokistonning atigi 4-5% aholisi haqiqiy musulmon hisoblanishi mumkin. Shu boisdan, partiyaning to'la huquqli a'zolari soni uncha katta emas(2500-3000), ammo uning asosiy kuchini behisob "tarafdorlar" va "xayrihohlar" tashkil etadi. "Jamoati islomiy" ijtimoiy jihatdan ziyolilar, talabalar, kichik mulkdorlar va shahar quyi tabaq'alari hamda

harbiylarning konservativ toifalaridan tarkib topgan. Partiyaning asosiy maqsadi – islom davlatini tuzishdir. Bunday davlat tuzumini Mavdudiy “teodemokratiya” deb atagandi va u “yangi tipdagi (ya’ni uning o’ziga o’xshagan) ulamolar tomonidan boshqarilishi kerak”. A.Mavdudiy vafot etgach, partiyaga Mian Tofail Muhammad, G’afur Ahmad va Mavdudiyning o’g’li Mavlono Faruqiy Mavdudiylar rahbarlik qilmoqdalar.

Diniy ekstremizm yoki ashaddiy a’idaparastlik turli ko’rinishlarda namoyon bo’lishi mumkin. Ol’sterdagi “ultra” protestantlar, Yaqin va O’rta Sharqdagi “musulmon birodarlar”, Markaziy Osiyo va Kavkazda paydo bo’lgan ekstremistik harakatlarning jamiyat hayotidan izdan chiq’arish yo’lidagi urinishlari, amaldagi qonunchilikni tan olmaslikka intilishlari, mavjud siyosiy tuzumga qarshi kurashi deyarli bir xil uslubda olib boriladi. Yuq’oridagi mulohazalardan ekstremistik harakatlarni barcha dinlar doirasida uchratish mumkin, degan xulosani chiq’arish mumkin.

Diniy ekstremizm shakllangan ijtimoiy tuzilmalarga, siyosiy tartibotlarga qarshi chiqib, ularning barqarorligiga rahna solishga, kuchsizlantirishga, o’z maqsadlariga erishish uchun odatdagidek kuch ishlatish usullari bilan ag’darib tashlashga harakat qiladi. Diniy ekstremizm rahbarlari har qanday kelishuvni, muzokarani, bitimni inkor etadilar. Hyech qanday o’zaro yon bosishga yo’l qo’ymaydilar. “Yo hammasi, yoki hyech narsa” tamoyili bo’yicha harakat qiladilar. Demak, bu masalada diniy-siyosiy ekstremizm terrorizm bilan bir safda turadi.

Diniy ekstremistik faoliyatni tarroristik harakatlar bilan bog’liq olib borganlar. Bunday diniy tashkilotlar va guruhlariga ko’plab misol keltirish mumkin. Ular tajavvuzkorona va zug’um bilan o’z harakatla-rini olib borganlar. Masalan: Vahhobiylik, Al-Ixvon al-muslimin tashkiloti, Hizb at-Tahrir al-islomiy (Hizbut tahrir) guruhi, Akromiylar guruhi va boshqalar.

Vahhobiylik XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan diniy-siyosiy oqimdir. Uning asoschisi Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1703 yili Arabiston yarim oroli Najd o’lkasining al—Uyayna degan joyida tavallud topgan.

Bu davrda uning otasi Abd al-Vahhob ibn Sulaymon mustaqil mahalliy amir hokimiyatida qozilik lavozimida xizmat qilar edi. Muhammad yoshligidan diniy ilmlarni o'z otasi rahbarligida o'rgana boshladi. U an'anaga ko'ra, Qur'onni yod oldi, tafsir va hadis ilmlari bilan tanisha boshladi. Bir necha bor Misr, Suriya, Qurdiston, Iroq, Eron mamlakatlarida bo'lib, ko'pincha ulamolar suhbatida o'zining janjalkashligi va mutaassibliigi bilan ajralib turgan. U o'z targ'ibotchilik faoliyatini 1730 yillarda boshlab, birinchi maqsadi o'ziga munosib homiy topish bo'ldi.

1745 yili Muhammad ibn Abd al-Vahhob ad-Dir'iyya vodiysiga uning amiri Muhammad ibn Sa'ud taklifiga binoan ko'chib o'tdi. Bu bilan Muhammad ibn Sa'ud o'z hokimiyatini kuchaytirishda vahhobiylikdek mafkuraviy qurolga ega bo'ldi. Vahhobiylar o'zlari xohlagan jamoani kufrda yoki shirkda ayblashlari va unga qarshi jihod e'lon qilishlari mumkin edi. Muhammad ibn Sa'ud esa bu jihodni amalga oshirib, o'z hokimiyati chegaralarini kengaytirishni boshladi. Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1792 yili vafot etdi. Muhammad ibn Sa'ud va uning sulolasi vahhobiylik bayrog'i ostida olib borgan urushlari 1832 yilda Saudiya Arabistoni davlatining tuzilishi bilan yakunlandi.

Vahhobiylik ta'limoti diniy masalalarida din fundamentini saqlash va o'z maqsadlariga ekstremistik harakatlar bilan erishishni belgilab oldilar. Fundamentida, ya'ni Payg'ambar davri voqeyiylklariga qaytishni talab etdi. Ular barcha muxoliflarini bid'atchilikda, ya'ni dinga yangilik kiritganlikda ayblaydilar, o'zlarining siyosiy dushmanlarini esa mushriklikda ayblashganlar, ularga qarshi jihod olib borishga fatvo berdilar. Axloq'iy masalalarda nazariy jihatdan, garchi shaxsiy kamtarlik, mol-mulkka hirs qo'ymaslik, dunyoviy hayotda toat-ibodatga aksariyat vaqtni sarflashna targ'ib qilsalarda, lekin amlda saroy ahlining bosqinchilik urushlari qo'shni qabilalar mol-mulklarini talash oqibatida gap bilan amal o'rtasida ziddiyat paydo bo'ldi.

Vahhobiylik harakatlari Usmoniylar imperiyasi (1453-1924) hududlarida vujudga kelganligi va imperiya bilan bu harakat o'rtasida bir necha qonli to'qnashuvlar yuz berganligi tafayli bu oqimda turk islomiga qarshi bo'lgan

kuchli kayfiyat o'z aksini topdi. Imperiyaning markaziy hududlarida hanafiylik mazhabi mutloq hukmron mavqyega ega bo'lganligi uchun mazkur maktab qoidalari qattiq' tanqid qilindi.

Shuningdek, vahhobiylilik harakati mafkurasining markazida avvaliga Arabiston yerlarini birlashtirish orqali, keyinchalik butun islom dunyosida islom davlatini shakllantirish g'oyasi ham mavjud edi. Ular bu maq'sad yo'lida har qanday qurbonliklarga tayyor edilar.

Vahhobiylarning chet ellarda ko'plab tashkilotlari bo'lib, ular faol harakat olib boradilar. Ularning ko'pchiligi yashirin siyosiy faoliyatolib boradi. Ish uslublari – diniy hissiyotlari kuchli bo'lgan fuq'arolarni jamiyatlariga tortib, ularni qayta tarbiyalash, so'ng ulardan tashviqot va ijtimoiy tartibbuzarlik, ekstremistik harakatlarda foydalanish. Bu ishlarga, ayniqsa, yoshlarni, bolalarni, hayot tarzidan norozi bo'lgan shaxslarni jalb qiladilar. Xayriya fondlari orqali mayib-majruhlarga, yetim-yesirlarga yordam, diniy ta'lim berish, turli diniy adabiyotlarni tarqatish kabi yo'llar bilan keng targ'ibot ishlarini olib bordilar. Kishilarga fanatizm, murosasizlik, o'zgalar fikrlari va manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga urinadilar.

Vahhobiylilik harakatini har tomonlama o'rganganimizda ularning maqsadlari, barcha faoliyatlari faqat yovuzlikka asoslangan ekanligi, jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatganliklarini, millatlar, xalqlarning osuda xayotiga yot g'oyalari bilan rahna solganliklarini, bundan keyin ham ularning maqsadlari shundan iborat bo'lishligini teran angladik. Aniqroq aytsak: “Ayni paytda, kitobda diniy ekstremizm va terrorizm, missionerlik va prozeditizmning jamiyat barqarorligiga tahdidi, turli oqim va firqalarning g'arazli g'oya va maq'sadlari tegishli manbalar va aniq' dallilarga tayangan holda ko'rsatib berilgan”¹²

Diniy ekstremizmga asoslangan radikal tashkilotlardan yana biri “Hizb at-Tahrir al-islomiy” (Hizbut tahrir) 1928 yilda Misrda tashkil topgan “Musulmon birodarlar” ekstremistik tashkilotidan ajralib chiqqan 1952 yilda Quddus shahrida

¹² Ubaydullayev U. Xalqaro terrorizm: tarixi va zamonaviy muammolari. -T.: Universitet, 2002. -56 bet.

falastinlik shayx Taqiy ad-din an- Nabahoniy (1909-1979yy) tomonidan asos solingan. U Hayfada tugʻilib oʻsgan, Qohiradagi “al-Azhab” universitetida taʼlim olgan.

“Hizb” arabcha soʻz boʻlib, lugʻaviy maʼnosi partiya yoki firqʼadir. Koʻpligi “ahzob”, partiyalar yoki firʼalar degan maʼnoni ifodalaydi. Bu nom zamonaviy partiyalarga ham, diniy oqimlarga nisbatan ham ishlatishi mumkin. Masalan: “Hizb ash-shuyuʼiy” (“Kommunistik partiya”), “Hizb al-Vataniy” (“Milliy partiya”), “Hizbulloh” (“Allohning partiyasi”).

Hizbning asosiy maqsadi- avval arab davlatlari miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy daʼvosi- Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1924 yili Usmoniy xalifa Ikkinchi Abdulmajid (1922-1924) xalifalikdan gʻayriqonuniy chetlatildi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Hizb dasturi 187 banddan iborat boʻlib, asosmiyoy maqsadlari- hokimiyatga erishish. Bundagi asosiy yoʻl – islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy taʼlim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat:

1.U bilan islom taʼlimotini oʻrgatish yoʻlida madaniy-maʼrifiy ishlar olib borish. 2.Siyosiy faoliyatga tortish faoliyati uch bosqʻichda olib boriladi: gʻoyaviy-fikriy kurash; jamiyatda gʻoyaviy inqilobni amalga oshirish; hokimiyatga faqatgina umma- jamoaning toʻliq roziligidan soʻng kelish.

Hizbut tahrir tarafdorlari koʻpgina musulmon davlatlari, jumladan Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va boshqalarda oʻz qaoliatlarini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi rahbapri Abd al-Qʼadim az-Zallumdir.

Hizbut tahrir tuzilish jihatidan piramida shaklidir. Har bir guruh (halqa) alohida-alohida boʻlib, 5-6 kishidan iborat. Guruhlarning oʻquv ishiga “mushrif” rahbarlik qiladi. Undan tashqari guruhda yana bir rahbar “amir” boʻlib, u mushrifga mushgʻulotlarni oʻtkazishda bevosita yordam beradi. Dastlab mustaqillik arafasida Markaziy Osiyda 1990 yil oxirlarida “Islom lashkarlari”,

“Tavba”, “Adolat”¹³ kabi guruhlar faollashdilar, jumladan Farg’ona viloyatiida yashirin harakatlarini olib bordilar. Asosan esa O’zbekiston hududida 1992 yildan boshlab tashkilotning bo’linmalar tashkil etila boshlangan. Hizb safiga kiruvchilar o’z partiyalar haq’idagi ma’lumotlarni hyech q’achon hyech kimga oshkor etmasliklari, o’z mushrifi buyurgan vazifalarni so’zsiz bajarishga Qur’on bilan qasam ichadilar. Hizb mutasaddilari o’z tarafdorlarini ko’proq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba yoshlar orasidan qidiradilar.

Yetarli ta’lim olgan shaxslar keyinchalik o’zlari mustaqil guruh tuzishlari lozim. Tahrirchilarning ta’limi bosqichma-bosqich olib boriladi. Birinchi bosqichda “Islom nizomi” va “Izzat va sharaf sari” kitoblari bo’yicha o’qitiladi, “al-Va’y” jurnalidagi ma’lumotlar muhokama qilinadi. Keyingi bosqichlarda “Demokratiya kufr nizomi”, “Siyosiy ong”, “Xalifalikning tugatilishi”, “Hizbut tahrir tushunchalari”, “Islomiy da’vatni yoyish vazifalari va sihiyatloari” kabi kitoblari o’qitiladi¹⁴. Bu adabiyotlar partiya manfaatlarini ko’zlab, Qur’on oyatlari va hadislarni noto’g’ri talqin qilib dindorlar ongiga ta’sir qilish mo’ljallangan. Ushbu nashrlar dindorlarni siyosiylashtirilgan islomga targ’ib etib, ularni fuqaroviy bo’ysunmaslikka va muomaladagi umumiy qoidalarni inkor etishga chaqiradi.

Hozirgi zamon islom ulamolari- Yusuf Qarzoviy, Sayyid Muhammad at-Tantoviy, Nosir ad-din al-Alboniylar Hizbut tahrirni ohod hadislarga, qabr azobiga, sirot ko’prigiga ishonmasliklari uchun ularni ahl as-sunna va-l-jamo’a safidan chiqqan hisoblaydilar.

Akromiylar ham XX asrda tashkil topgan diniy ekstremistik guruhlar tarkibiga kirdi. Respublikamiz hududida tashkil topgan, hozirda faoliyati deyarli to’xtatilgan. U guruh harakati noan’anaviy ham islom ta’limotiga, ham konstitutsiyaviy davlatchilik asoslariga zid bo’lgan.

¹³Husniddinov.Z .Diniy ekstremizm va tarrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari, Toshkent.:Toshkent Islom Universiteti nashriyoti, 2005,-64 bet.

¹⁴Husniddinov.Z .Diniy ekstremizm va tarrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari, Toshkent.:Toshkent Islom Universiteti nashriyoti, 2005,-44 bet.

Akromiylar 1996-1997 yillarda Andijonda tashkil topgan, uning nomi guruh asoschisi- 1963 yilda tavallud topgan Yo'ldoshev Akrom bilan bog'liq. A.Yo'ldoshev o'z ta'limotini Hizbut tahrir vakillaridan biri bo'lgan, mahalliy rahbari Abdurashid Qosimovdan 1990 yilda saboqlari va g'oyalari asosida shakllantirgan. Keyinchalik A.Yo'ldoshev mahalliy Hizbut tahrirchilar bilan kelisha olmay qoladi va ajralib ketadi. Demak, bu guruh o'z-o'zidan yuzaga kelgan emas, ularning yuzaga kelishi va faoliyati ham oldin mavjud bo'lgan va o'zga davlatlarda ish olib borayotgan reaksion tashkilotlar bilan bog'liq. Yo'ldoshev Akrom Hizbut tahrir yetakchilaridan biri bo'lgan an-Nabahoniy g'oyalari ifodalangan Islom nizomi", "Xalifalik", "Izzat va sharaf sari" nomli asarlari asosida 12 darsga mo'ljallangan "Iymonga yo'l" risolasini yozgan. Shu sababdan akromiylarni "Imonchilar" deb ham yuritiladi.

Akromiylar ham davlat tepasiga chiqish kabi g'arazli maq'sadni ko'zlaydilar. Akromiylar faoliyati siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar:¹⁵

1. "Sirli"; 2. "Moddiy"; 3. "Uzviy";
4. "Maydon"; 5. "Oxirat" yoki To'ntarish

Dastlabki uch bosqich asosan yashirin amalga oshirilishi, to'rtinchi va beshinchi bosqichlar tamomila o'zlari belgilagan hududlar islomlashtirish davri tugagach boshlanishi va ochiqdan-ochiq hokimiyat uchun kurash bosqichlari bo'lmog'i lozim edi.

Bu guruh a'zolari asosan hunarmandlardan iborat bo'lib, ular rasmiy ishxonalardan bo'shab, jamoa ma'qullagan mehnat faoliyati bilan shug'ullanganlar. Zaruriyat tug'ilganda "birodarlari" ga "jamoa banki"dan moddiy yordam berganlar. Undan tashq'ari jamoa a'zolariga tashkiliy ravishda oziq-ovqat mollari tarqatib turilgan. Quda-andachilik faq'at "birodarlar" o'rtasida amalga oshirilgan.

XX asrda zo'rovonlik, agressiya inson borlig'ining barcha jabhalariga kirib bordi. Diniy ekstremizm va terrorizm zo'rovonlik va vayronkorlik bilan

¹⁵ Yo'ldoshxo'jayev H, Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik.-T.: Universitet,2000.-123bet.

bir qatorda turibgina qolmay, balki ularning o'ziga xos namoyon bo'lishi hamdir. Zero sivilizatsiyaning nozik qobig'i ostida vayronkorlik instinkti yashiringan bo'lib, u har qachon o'zini namoyon etishi mumkin. XX asrda sodir bo'lgan ikkita jahon urushi buning yaqqol misoli bo'lib, oqibatda taraqqiyotni bir muncha vaq't izdan chiqarib yubordi, uni halokat yoqasiga olib bordi. Inson faoliyatida voqyea bo'layotgan g'ayriinsoniy hatti – harakatlar jamiyatning o'zini o'zi yo'q qilishiga olib kelishi mumkin. Eng yomoni shukndaki biror muammo hamisha o'zining ortidan qator muammolarni yetaklab keladi. Shundan kelib chiqib diniy mutaassiblik va aqidaparastlik diniy ekstremizmni keltirib chiqardi, o'z navbatida diniy ekstremizm qabih harakatlarini terroristik usullar bilan omuxtalashtirib olib bormoqda. Demak diniy ekstremizm va diniy aqidaparastlik terrorizm kabi zo'rovonliklar bilan namoyon bo'lar ekan. Endi ular keltirib chiqaradigan xavf haqida to'xtalsak.

Diniy ekstremizm tarixiy jihatdan kelib chiqqan dastlabki davrlardan o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari, qo'llagan kurash vositalari, g'oyaviy da'volari bilan insoniyat uchun katta ijtimoiy xavfga aylanish imkoniyatiga ega bo'lgan va ma'lum tarixiy davrlarda bunday imkoniyat voqyelikka aylandi. Lekin XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, diniy ekstremizm butunlay yangi sifat darajasini kasb etdi hamda o'zida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy holatni mujassamlashtirdi.

Hozirgi davrda diniy mutaassilik va diniy ekstremizm qo'llayotgan vositalar intellektual va texnik jihatdan eng zamonaviy bo'lib , ko'lami jihatidan butun dunyoni qamrab olmoqda.

Diniy ekstremistik guruhlar XX asrning ikkinchi yarmi oxirlaridan boshlab nihoyatda faollashganlar. Bunday oqimlar sirasiga Afg'onistonda Usoma bin Lodin, Suriyada "Hamas", Livandagi "Hizbulloh", "Islom jihodi", Falastinda "Tanzim" guruhlar kiradi. Ular o'z faoliyatlarini turli davlatlarning moliyaviy ko'maklariga tayanib olib bormoqdalar. Bunday ko'maklardan Damashq, Bag'dod, Afg'oniston, Suriya, Eron, Livan, Falastin va boshqa ko'plab

davlatlar bermoq dalar. Fundamentalistlar, diniy ekstremistlar, terroristlar birgalikda faoliyat olib bormoqdalar.

O'z maqsadlariga erishish uchun har qanday razil va vahshiyona usullardan foydalanadilar. Bunga targ'ibot- tashviqot (kitob, risola va nashriyotning boshqa manbalaridan yashirincha tarqatib foydalanadilar), bundan tashqari ular moddiy va ma'naviy qiynalgan, boshiga kulfat tushgan insonlarni, ta'sirlarga tez beriluvchi yoshlar, ma'naviyati zaif kimsalarni izlab topadilar va ularga o'zlarining qarashlarini "Qur'on" ning ba'zi oyatlari bilan mustahkamlab aldov usullar bilan ishontiradilar. Afsuski asl din ilmini zaif bilgan odamlar ularning balandparvoz va fasoqatli notiqliklariga osongina aldanishlari mumkin. Bundan tashqari ular ba'zi axloqiy me'yorlardan ustalik bilan foydalanadilar. Masalan "bandalar ularni teran fikrlashlariga halaqit beruvchi ichimliklarni qabul qilishlari haromdir" kabi islom dini me'yorlaridan ustalik bilan foydalanadilar. Bunday kimsalarga din, uning go'zal oyatlari va hadisleri bir niqobdir. Ammo bunday razil kimsalar ma'lum davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy inqirozlar, bo'shliqlar yuzaga kelganda o'ta faollashadilar. Ularning faoliyatlari juda keng qamrovli, jamiyatning barcha sohalarini e'tibordan chetda qoldirmaydilar. Hurmatli Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Aslini olganda, xavfsizlikka solinayotgan tahdidlar ancha serq'irra. Ular siyosiy ekstremizm, shu jumladan diniy ruhdagi ekstremizmni, millatchilik va milliy mahdudlikni, etnik, millatlararo, mahalliychilik va jinoyatchilikni, ekologiya muammolarini o'z ichiga oladi"¹⁶.

Mafkuraviy nuqtai nazardan diniy ekstremizm har qanday boshqa fikrlarni inkor etadi. O'zining mafkuraviy va diniy qarashlarini qo'pol ravishda boshqalarga majburlab qabul qildirishga harakat qiladilar. O'z muxoliflarini turli vositalar bilan majburlaydilar. Ekstremistlar o'z tarafdorlarini ularning har bir ko'rsatimalariga og'ishmay amal qilishlarini, ularga ko'r-ko'rona ishonishlari lozimligini uqtiradilar. O'z qarashlarini himoya qilar ekanlar

¹⁶ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.:O'zbekiston,1997y.-14 bet.

ular aqlga emas, ko'proq hissiyotga suyanadilar. Ekstremistlar va terroristlar o'z maqsadlariga erishish uchun kutilmagan usullar va hujum yo'nalishlarini belgilaydilar. Ming afsus ular rejalarini amalga oshirish uchun ancha oldindan tayyorlab borilgan o'z hayotini qurbon etishga ham tayyor turuvchi mutaassiblardan foydalanadilar. Bu fanatlar ko'pincha yoshlar, ayollar, hatto voyaga yetmagan bolalar ham bo'lishi mumkin. Endi harakatlarini psixologik tahlil etsak. Nima uchun ular aynan odamlarning aynan shu qatlamiga murojaat qiladilar? Sababi ularda bilim, tajriba, ko'nikmalar yetarli bo'lmaydi- bu yoshlar va voyaga yetmagan bolalarga tegishli kamchiliklar. Endi ayollarga kelsak, ular ko'pincha hissiyotga beriluvchan, diniy-huquqiy bilimlari yetarli bo'lmaganlaridan, yoki aksar moddiy qiyinchiliklarga bardosh-iroda yetarli shakllanmaganligidan ham kelib chiqadi. Menimcha ularni ko'proq aldash oson kechganligi uchun ko'proq sabab bo'lsa kerak. Afsus bilan shuni qayd etish kerak-ki aksar yoshlar orasida o'zlarining biror maqsadlariga tezroq erishish zaruriyatidan ham ularda xatoliklar ko'proq uchraydi. Hozirgi zamonda xalqaro diniy ekstremizm e'tiqod jihatidan ham, ma'naviy jihatdan ham, insonning yashash huquqiga egaligi jihatidan ham eng fojiali va eng yovuz "kurash" usullaridan biri- o'z maqsadlarini fanatizmga asoslangan terrorchi kamekadzalar yordamida amalga oshiradilar. Bunday odamlar, tajribada ko'rilganidek, o'z faoliyatlarini juda teran va chuqur tahlil etib o'tirmaydilar, ular "o'z rahnomalari" aytgan aldovlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qiladilar, ularning "jannat" haqidagi aldovlarini hayotlarining maqsadlari sifatida qabul qiladilar. Ikkinchidan ular o'zlarini "oddiy tabiiy o'lim topuvchilardan" ancha yuqori sanaydilar. Xuddi ular qilayotgan ishlariga qarab to'g'ri "jannat"ga tushishlari kafolatlangandek. Bu ularda keskin ekstremistik harakat va usullarining har qandayini qo'llash imkoniyatini yaratadi. Uchinchidan o'zlari va boshqalarning dunyoviy tashvishlari ularni ko'p ham o'ylantirmaydi. Hamisha o'ldirish va o'lishga tayyor turadilar. Eng xavfli ular bu yo'ldan xatoliklarini anglab qaytmoqchi bo'lsalar, boshqalari ularni o'ldirish payida bo'ladilar, demak, bu yo'lga kirmoq oson ekan, ammo bu

yo'ldan chiq'moq juda mushkul ekan. Aksarlari shuning uchun jinoyat joyida o'zlarini o'ldirishgacha boradilar.

Diniy ekstremizm va terrorizm, ularning turli shakllari masshtablari jihatidan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy muammolar oqimini yuzaga keltirdi. Terrorizm va ekstremizm oqimlarining turli ko'rinishlari kundan-kun mamlakatlar va ularning fuqarolarini xavfsizligiga tobora tahdid solib bormoqda. Zo'rovonlik natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy bosim yuzaga keltirilmoqda. Shuningdek, insonlarning ruxiyatida ko'rkuvni shakllantirishi natijasida, psixologik xavfsizlikka ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Zamonvaiv diniy ekstremizm va terrorizmning mojaroli manbai XX asrning 60-yillaridan boshlab o'sib kelmoqda. O'sha vaqtdagi butun mamlakat hududlarida diniy ekstremizm va terrorizmning dunyo miqyosida tarqalishiga faol maydon va o'choqlari paydo bo'lishi sabab bo'lgan edi. Hozirda 500 ga yaqin noqonuniy diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar maxsus organlar tomonidan qayd etilgan. Birgina 1968-1980 yillar oralig'ida diniy va boshqa ekstremistik tashkilotlar tomonidan 6700 ta terroristik akt sodir etilgan bo'lib, uning natijasida 3368 kishi halok bo'lgan bo'lsa, 7474 kishi jarhatlangan. 1980-85 yillar oraligida 500-800 tagacha 1990-yil arafasida esa 900 va undan oshikrok terroristik xuruj sodir etilgan. Hozirda diniy ekstremizm va terroristik faoliyatning avj olayotganligi jahon afkor ommasi tomonidan e'tirof etilmoqda. Jumladan, maxsus tayyorlangan shaxs guruh va tashkilotlar faoliyatida terror xarakterining murakkablashib, yaxshiylik asosida va insoniylikdan tashqari bo'lgan me'yorlar orqali o'sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bir qator Rossiya olimlari va xorij tadqiqot markazlari ma'lumotlariga qaraganda umuman terror va diniy ekstremistik harakatlar sohasi bo'yicha tashkil etgan byudjet 5-20 milliard dollargacha etgan.

Diniy ekstremizm va terrorizm xalqaro muammo darajasiga chiqqanligini uni bartaraf etish borasida jahon hamjamiyatini hamkorlikka intilayotganligi bilan belgilash mumkin. Bizga ma'lumki, yaqindagina terrorizm haqida gap borganda uni lokal hodisa sifatida qayd etish ustuvor ahamiyat kasb etgan edi. Lekin u XX asrning 80-90 yillaridan boshlab u universal fenomenga aylandi. Diniy ekstremizm

va terrorizmning globallashuvi va keng miqyosda integrallashuvi buning yorqin dalilidir. Bu fenomen turli sohalarda xalqaro aloqalar va hamkorlikni kengayishi hamda globallashuvini o'sib borishi bilan ham belgilanadi. Zamonaviy diniy ekstremizm va terrorizmni kuchayib borishi ko'p sonli terror tashkilotlar guruhlar bilan bir qatorda ularni qo'llab quvvatlovchi turli strukturalardan tortib butun boshli homiy mamlakatlarning faoliyati bilan ham bog'liq. Bugun diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlarni moddiy tarafdin ko'llab quvvatlash asosida arab neft ishlab chiqarish soxasidagi daromadni nojoiz ishlatish xolatlarini kuzatilayotganligi va rivojlangan g'arb davlatlari tomonidan amalga oshirilayotgan strategik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning hosilasidir degan yondoshuvlar ham mavjud.

Ularning birinchilarida ortiqcha pul bor. Shuning uchun o'zining moliyaviy zahirasini Rossiya, Afg'oniston yoki Kosova va boshqa shu kabi bir qator mamlakatlarda nizolarni keltirib chiqarish va ularni fukorolarini xavfsizligiga putur etkazish asosiy maqsad qilib olingan. Rivojlangan mamlakatlar xududida turli diniy va etnik oqim hamda diasporalar mavjudki ular o'zga ijtimoiy-madaniy muhitdan qoniqmayotganliklari oqibatida boshqa mamlakatlardagi "akalari" ularni qo'llab quvvatlashiga olib kelmoqda. Umuman olganda zamonaviy diniy ekstremizm va terrorizmning ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy manbai shunday omillar bilan belgilanadi.

Dunyodagi odamlarni diniy ekstremistik va terroristik hurujni avj olishdan xavfsirashi uning qurbonlari soni ko'pligi va yangi texnologiyalar orqali etkazilayotgan zararlarni ko'rinayotganligi va binolarni vayronalarga aylanayotgani bilan ham asoslash mumkin. Zo'rovonlik davlatning siyosiy tartiboti bilan bir qatorda davlat qurilishining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishini har bir ongli odam esdan chiqarmasligi kerak. Bu yaqin vaqt oralig'ida diniy ekstremizm va terroristik hurujlar asosida Shimoliy Irlandiya, AQSH, Rossiya, Keniya, Tanzaniya, Yaponiya, Argentina, Hindiston, pokiston, Jazoir, Isroil, Misr, Turkiya, Albaniya, YUGaslaviya, Kolumbiya, Eron, Tojikiston

va O'zbekistonimizda ham bir qancha insonlarni qurbon berilishi va moddiy zararlarni qayd etilishini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy diniy ekstremizm va terrorizmning asosiy xarakterli jihati shundan iboratki, unda ma'lum bir xududda paydo bo'lgan yovuz g'oya yoki harakat zamonaviy texnika, texnologiya va axborotlar oqimi orqali dunyo miqyosida keng tarqalmoqda. Zamonaviy diniy ekstremizm va terrorizmni yana milliy, diniy, etnik nizolar, separatistik harakatlar bilan ham izohlash mumkin. Zamonaviy diniy ekstremizm va terrorizmni qo'llab quvvatlayotgan tashkilotlarning maqsadli faoliyati asosida mafkuraviy, harbiy, tijoriy va siyosiy masalalar yotganligini ko'rish qiyin emas albatta.

Hozirda "kiber terrorizm" tushunchasi ijtimoiy-ilmiy muomalada keng qo'llanilmoqda. Zo'rovonlikning bu shakli davlatlar va uning fuqarolariga o'zining tez tarqalishi va ta'sir doirasi bilan juda katta miqdorda moddiy va ma'naviy zarar etkazayotganini ko'rish qiyin emas albatta. Masalan, 1996 yil AQSH universitetining matematika bo'yicha professori qo'lga olindi. U T.Kazinskiy bo'lib 18 yil mobaynida butun amerika aholisini qo'rquvda yashashga majbur qilgan. Uning yovuz maqsadini amalga oshiruvchi obyekt va diqqat e'tibori universitetlar, aviakompaniyalar, kompyuter bo'yicha malakali mutaxassislar hamda shu kompyuter sohasida oldi-sotdi tijoratchilar bo'lgan. Bu terrorchining maqsadi ilmiy-texnika taraqqiyotini falokatga olib borishi va urbanizasiyani insoniyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini isbotlashdan iborat bo'lgan. Buning uchun u eng avvalo o'zining terroristik hurujini amalga oshirish maqsadida amerikaning mashhur gazetalarida o'zining qarashlari ifodalangan manifestini targ'ib qilishga harakat qilib bunday yondoshuvni qo'llab quvvatlashga ularni majbur qilgan.

Zamonaviy diniy ekstremizm va terrorizm o'zining murakkab ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari va texnologiyalariga ega. Shuning uchun ham unga qarshi kurashda zamonaviy fan va texnika hamda ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlardan foydalanish nafaqat jahon afkor ommasi uchun balki, mustaqil O'zbekistonimiz uchun ham strategik ahamiyatga ega bo'lgan maqsad va

vazifalardan hisoblanadi. Bugun dunyoning barcha mamlakatlari ijtimoiy, siyosiy hayotida xilma-xil ommaviy axborot vositalarida eng katta tashvish bilan o'z ifodasini topayotgan muammo-xalqaro terrorizm va ekstremizm ekanligiga hech qanday shubha yo'q.

Diniy ekstremizm va terrorizmning ko'lami kengayib, barcha qit'alar va mamlakatlarni qamrab olayotganligi uchun XX asr 2-yarmidan «Xalqaro diniy ekstremizm va terrorizm» deb atala boshlandi.

Xalqaro diniy ekstremizm va terrorizmning iqtisodiy bazasini – noqonuniy ravishda amalga oshirilayotgan narkotik moddalar savdosi, qurol-yarog' savdosi, qimmatbaho metallar savdosi, neft savdosidan tushadigan mablag'lar tashkil etadi. Masalan: BMT ning ma'lumotlariga ko'ra, jahondagi giyohvand moddalarning 75 % birgina Afg'onistonda etishtirilmoqda. Undan ishlab chiqarilayotgan narkotik moddalar savdosidan tushgan sarmoya milliardlab AQSH dollarini tashkil (etadi) etishi hech kimga sir emas. Ma'lumotlarga qaraganda undan tushgan foydaning ko'p qismi qurol-yarog' sotib olish va terrorchilik maqsadlari uchun qilinayapti. Demak, dunyoning tinchliksevar davlatlari ana shu moliyaviy kanallarni qonuniy ta'qiqlash haqida bosh qotirishlari kerak.

Zamonaviy xalqaro zo'rovonlikning eng xatarli xususiyatlaridan biri uning takomillashgan qurol-aslaha va harbiy texnologiyalardan foydalanish imkoniyati va ko'lamining oshib borayotganidir. Dunyo hamjamiyati terrorist-larning an'anaviy qurollar bilan birgalikda, biologik va kimyoviy moddalardan ham foydalanishga urinishlarining guvohi bo'lib turibdi. Bunga misol hozirda AQSH va boshqa mamlakatlarga qarshi biologik hujum uyushtirish bilan bog'liq do'q-po'pisalarning kuchayib borayotganidir.

Keyingi yillarda jahonning qator mamlakatlarida AQSHda, Turkiya, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Rossiya, Kavkaz orti mamlakatlarida va boshqa mamlakatlarda sodir etilgan terrorchilik xurujlari terrorizmni qachonlardir bir mamlakat doirasidan chiqib xalqaro terrorizmga aylanganini tasdiqlaydi.

Keyingi yillarda bizning yurtimizda ro'y bergan 1999 yil fevral voqealari, 2004 yil 29-30 aprel va 1 aprel kunlari Toshkent viloyatidagi, Buxoroning Romitan tumanidagi, o'tgan yili may oyida Andijon shahrida sodir etilgan mudhish terrorchilik harakatlari va qo'poruvchilik holatlari ham ana shu xalqaro zo'rovonlik harakatlari bilan bevosita bog'liq deb aytishga barcha asoslar bor.

Biz yuqorida barcha ekstremistik guruh va tashkilotlarning kelib chiq'ishi va rivojlanishi, harakat yo'nalishlari haq'ida fikr yuritdik. Barcha ekstremistik kuchlar shakllangan ijtimoiy tuzilmalarga, siyosiy tartibotlarga qarshi chiq'ib, ularning barqarorligiga rahna solib, kuchsizlantiradilar. Demak, diniy ekstremizm zo'rovonlik, aldov, go'yoki iqtisodiy muruvvat ko'rsatish, jinoyat sodir etish kabi turli usullarda namoyon bo'lmoqda ekan.

1.2. Diniy ekstremizmga qarshi kurashning xalqaro ma'naviy-ma'rifiy asoslari

Diniy ekstremizmga qarshi kurashda qo'llash mumkin bo'lgan manbalarga to'xtalib o'tamiz. Vazifamiz diniy ekstremizmning jamiyat rivojiga salbiy ta'sirini, ularga qarshi kurashishning zaruratga aylanishi, bu borada dunyo tajribasi, erishilayotgan yutuq'loar va kamchiliklarni, kurashda tayanish mumkin bo'lgan asosiy manbalarni tahlil etishdir.

Prezident I.Karimov jahon siyosatchilari orasida birinchilardan bo'lib jahon ahli e'tiborini diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro, siyosiy, huquqiy asoslarini yaratishga qaratdi.

O'zbekiston rahbari 1995 yilning 24 oktyabrida BMT ning 50-yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig'ilishida, 1999 yilning 18 noyabrida Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) ning Istanbul Sammitida so'zlagan nutqlarida, 2000 yilning 8 sentyabrida BMT Bosh Assambleyasining «Mingyillik sammiti»da so'zlagan nutqlarida diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurashishga da'vat etdi va qator prinsipial chora va tadbirlarni taklif qildi.

Jumladan: «Xalqaro diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalasini keskin qo'yish maqsadga muvofiq deb hisobladi. Mazkur markazning vazifasi – faqat terrorizmning o'zi bilan emas, balki uni qo'llab-quvvatlayotgan, qurol-yarog' va mablag' bilan ta'minlayotgan, joylarga jo'natayotgan markazlarga qarshi kurashni muvofiqlashtirishdan iborat bo'lishi darkor»,- deya uqtirdi O'zbekiston rahbari.¹⁷

Dunyo davlatlari o'rtasidagi madaniy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy aloqalarni kuchaytirish o'rniga insoniyat zotiga qiron keltiradigan giyohvand moddalarning umumjahon bozorining noyob moliga aylantirish va shu yo'l bilan jahon xalqlarini tanazzulga keltirishdan dahshatliroq narsa yo'q.

Diniy ekstremizm va terrorizm, jumladan, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm 5-10 yillik emas, dunyo siyosatdonlarining aytishicha butun XXI

¹⁷ Karimov. I.A. Tinchlik uchun kurashmoq kerak. T., «O'zbekiston» - 2001.-96 bet.

asr mobaynida davom etishi mumkin ekan. Bas, shunday ekan unga qarshi chora-tadbirlarni ham birgalikda ishlab chiqish kerak.

Barchamiz bir jon bo'lib terrorizm va ekstremizm havfiga qarshi kurash olib borishimiz, «O'z uyingni o'zing asra» degan shiorning ma'nosini keng va chuqur anglab Vatanimizning tinchligini, xalqimiz osoyishtaligini ko'z qorachig'idek saqlashimiz zarur.

Bugun dunyo turli qarashlar, g'oyalar, nuqtai-nazarlarning tamomila yangicha rivojlanish pallasiga kirib, bu unda yashovchi xalqlarning turmush tarzi, g'oya va mafkuralariga ham birdek katta ta'sir ko'rsatmoqda. Aslida, turli jamiyat a'zolari munosabatlarining o'zaro integrasiyasi sifatida tanilgan globallashuv jarayoni vaqt o'tishi bilan, uning faoliyat yo'nalishi "traektoriya" si ham o'zgarib bormoqda. Atoqli siyosatchi Karl Yaspersning "har bir davr o'zicha bir tahdiddir" degan so'zlari bugun yana bir bor isbotini topayotgandek go'yo. Inson oliy mavjudot ammo bu-uni xatolardan holi ekanligini bildirmaydi. Jamiyatda insonlarning hatti- harakatlari va xulq-atvorlarini tartibga solish, ularning o'zaro aloqalarga asoslangan munosabatlarini shakllantirish-insonlarning o'zlari tomonidan turli institutlar, ya'ni, tom ma'nodagi "tartibga solish qurilmalari" tashkil etilgan.

Zero, ular barchasi bir-birlaridan mafkuraviy ozuq'a oladilar. Tadqiqotchi M.Qirg'izboyev: "Ekstremizm mafkuraviy jihatdan olib'araganda, O'zining siyosiy va diniy tizimini tan olib, boshqa qarashlarni butunlay rad etadi. Ekstremistik tashkilot o'z yo'lboshchisining barcha buyruq'larini so'zsiz bajaradi"¹⁸ - degan fikrni ilgari suradi..

Bundan tashq'ari diniy ekstremistlar boshqa mavjud qarashlar va nazariyalarni keskin rad etadilar. Mavjud holatlarni o'zgartirish uchun eng so'nggi choralarni- terror yoki boshqa zo'rovonlik usullarini ham qo'llaydilar. O'z maqsadlariga kuch ishlatish bilan erishadilar. Boshq'alarning ongiga o'z fikrlarini kuch va g'oyaviy tahdidlarni ishlatib ham singdiradilar. Bu yo'lda ularni

¹⁸ Qirg'izboyev M. Terrorizm va ekstremizm: asosiy tushunchalari va yo'nalishlari.-Toshkent.: Abu Ali bin Sino nomli nashriyot,2001й.-8bet.

rad etganlarni jismoniy yo'q qilishgacha borib yetadilar. Masalan Turkiyada ana shunday diniy ekstremiz, diniy-siyosiy terrorizm asosida 1984-1999 yillar davomida 37 ming kishi halok etilgan¹⁹. Demak, diniy ekstremistlarning faoliyatlari o'z qamroviga siyosiy-diniy-ijtimoiy sohalarni ham olar ekan. Uzoqqa bormaylik 1991 yilning 9 dekabridagi Namangan voq'yealari ham bunga yaqqol misol bo'la oladi²⁰.

1970-1980 yillarda Yaq'in Sharqda diniy ekstremistik guruh a'zolari moliyaviy mablag'larining asosiy q'ismini "Zaviya al-Hamro nomidagi Qohira kvartalidagi xristianlarni uylarini talashdan olingan ekanligini alohida qayd etganlar"²¹. Bundan ko'rinib turibdiki, diniy ekstremistik guruhlar o'z harakatlari bilan qator qo'poruvchiliklarni olib borganlarni, minglab insonlar umriga zavol bo'lganlar, xalqlar tinchligini izdan chiqarib, ham moddiy, ham ma'naviy talofat yetkazganlar. Fikrimizning asosli bo'lishi uchun quyidagilarni ma'lumot sifatida yetkazmoqchimiz: 1993yil 3 sentyabr kuni "Al-Qoida" jangarilari Somalida 2ta AQSH vertolyotlarini urib tushirganlar va natijada 18 ta ekipaj halok bo'lgan. Afsuski diniy ekstremistik guruhlar o'zlarini maq'sadlariga eng tuban usul va vahshiyona terrorchiliklarni uyushtirib erishganlar.

1996 yil 25 iyunda Saudiya Arabistonidagi Amerika aviabazasida 2 ta yuk mashinasini portlatganlar, natijada 19 ta harbiy halok bo'lgan.

1996 yil 25 iyunda Saudiya Arabistonidagi Doxranda amerikaliklar yashaydigan uy-joy markazi portlatildi va 300 kishi halok bo'lgan.

1998 yil 7 avgustda Keniyaning poytaxti Nayrobi shahridagi Amerika elchixonasida turgan yuk mashinasi portlatildi, 230 kishi halok bo'ldi va 500 kishi yaralandi.

¹⁹Safarova N. Terrorizm.-T.: "NOSHIR", 2009.-56 bet.

²⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston mustaq'illikka erishish ostonasida" kitobini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. A.Sh.Bekmurodov va boshqalar.-Toshkent.: "O'qituvchi", 2011.-21bet.

²¹Dobayev I. Islom radikalizmi: mohiyati, mafkura, siyosiy amaliyot.-T.: 2003.-11bet.

1998 yil 7 avgustda Tanzaniya poytaxti Dor us-Salomda Amerika elchixonasida turgan mashina portlatilgan, oq'ibatda 90 kishi halok bo'lgan va 100 dan ortiq' kishi yaralangan.

1998 yil 5 oktyabrda Aden bandargohidagi Amerika harbiy kemasi portlatilgan 17 dengizchi halok bo'lgan va 30 tasi yaralangan.

2001 yil 11 sentyabrda AQSh dagi egizak bino, xalqaro savdo markazi portlatilgan natijada minglab insonlar qurbon bo'lganlar. Bunday ekstremistik harakatlar faqat AQSh ga nisbatan uyushtirilgan deb hisoblamaslik kerak, zero ularning talofatlari va fojeali qotilliklari hamma joyda mavjud.

Chunonchi: 1997 yil 17 noyabrda Misrning Luksor shahridagi ibodatxonada sodir etilgan portlash natijasida 62 kishi halok bshlgan.

Islomoboddogi Misr elchixonasida uyushtirilgan portlatish ham talofatsiz bo'lmagan.²²

Afsuski yuq'oridagiga o'xshagan talofatlar juda ko'plab joylarda, shuningdek O'zbekistonda ham sodir etildi: 1991 yil 9 dekabr kuni Namangan shahrida bir guruh qo'poruvchilikka asoslangan diniy ekstremistik kuchlar Namangan viloyat ijroiya qo'mitasi binosini egallab olishgan, quyidagi talablar bilan chiq'ishganlar:

Dunyoviy tuzumdan voz kechish va O'zbekstonni islomiy davlat deb e'lon qilish. Dunyoviy qonunlarni bekor qilish va mamlakatda shariat arkonlarini joriy etish. Dunyoviy maktablarni yopish va o'g'il bolalar va qiz bolalar alohida o'qiydigan maktablar ochish. Islomiy kiyinishga o'tish, ayollarning hijobda yurishini joriy etish.

Namangandagi sobiq siyosiy ta'lim muassalari binolarini islom radikallari ixtiyoriga berish va hakoza. Ular jami 15 ta talab bilan chiq'ishib, hokimiyatni ana shu talablar asosida egallashni maq'sad etganlar. Ular diniy radikalizm bilan zaharlangan bo'lib: "Hokimiyatning ularga berilishi ularning nazarida jihad qilinishi lozim bo'lgan barcha insonlarning- o'zga dindagilarni, o'zga fikrlovchilarni, dunyoviy taraqqiyot tarafdorlarining, qisqasi, ko'ngillariga yoq'maganlarning

²²Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi kurash muammolari.-T.: "O'zbekiston", 2003 y. 60 bet..

istisnosiz tarzda qirib tashlanishiga olib kelgan bo'lar edi". Agarda prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning jasoratli va qat'iy harakatlari bo'lmaganida.

1995 yil Yaponiyada tarqalgan "AUM Senrika" degan radikal diniy oqim vakillari ko'plab yosh yigit-qizlarni ongi-shuurini tajovvuzkor diniy aqida, ekstremistik fikrlar bilan to'ldirib, o'z xalqi tinchligiga qanchalik xavf tug'dirgan edilar²³.

1995 yil 13-14 iyun kunlari Stavropol o'lkasining Budyonovsk shahrida chechen jangarilari tomonidan amalga oshirilgan diniy ekstremizmga yo'g'irilgan terroristik aktlar qancha xalqni vahima va tahlikaga solib qo'ydi.

1999 yil 16 fevral kuni Toshkent shahrida yuz bergan portlash asosan xalq'ni vahimaga solish, mustaq'illik odimlaridan majburlab chalg'itish, millatni rahnomasiga nisbatan qilingan suyuqasd edi. Bu diniy ekstremistlar va diniy aqidaparastlarning faoliyati natijasi edi. Bu qo'poruvchilik harakatlari orqasida katta kuchlar orligi ayon. Ularning ma'sadlari xalqimizning tinchligini buzish, qo'rqitish, yuragiga g'ovg'a solish, yuritayotgan siyosatimizga ishonchimizni so'ndirish, amalga oshirayotgan ezgu ishlarni yo'qqa chiqarishga harakat qilish edi.

Bundan tashqari 2000 yil avgustda, 2004 yil mart oyida Toshkent shahri va Buhoro viloyatlarida, shu yili iyul oyida Toshkent shahrida, 2005 yil may oyida Andijonda bir qator diniy ekstremistik qo'poruvchiliklar yuz bergan edi.

Darhaqiqat, terrorizm, diniy ekstremizm va diniy mutaassiblik tahdidi butun jahonga yoyilgan bo'lib, barcha insonlar tinch-osuda xayotiga qarshi qaratilgandir." Bir necha yil avval ko'plab qudratli mamlakatlar beparvo, bepisand munosabatda bo'lgan bu hodisalar hozirgi kunda xalq'aro terrorizm nomini olib, endilikda AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya singari qudratli davlatlarni ham larzaga solmoqda"²⁴. Barcha ma'lumotlar bilan tanishib chiqar ekanman, ko'zim oldida diniy ekstremizm va ular uyushtirgan terakt harakatlarining vahshiyliklari, yovuzlik va hunrezliklari to'laligicha namoyon bo'lganligini tasavvur qildim." Andijon shahrida terrorizm, ekstremizm va diniy fanatizm bir qiyofada

²³ Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari.-Toshkent: "O'zbekiston". 1998 yil. 7 bet.

²⁴ Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari.-T.: "O'zbekiston", 2005.-244-245 bet.

namoyon bo'ldi ²⁵- deb e'tirof etganida hurmatli yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ming bora haq' edilar. Yovuz kuchlar millat, davlat va jamiyat rivojiga to'sqinlik qilishga, taraqqiyot va osuda hayotni izdan chiqarishga harakat qiladilar. Ming bora shukr-ki insoniyat hamisha ezgulik sari intilib kelgan, demak vayronkor g'oyalar ko'p yashamasligini tarix yana bir bor isbotladi.

Barcha keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilib; Diniy ekstremistlar asl diniy ta'limotlardan yiroqlashgan, faqat o'z manfaatlariga monand egoistlarga xos maqsadlarni qo'yar ekanlar.

Ular millatlar va dinlar o'rtasiga ixtiloflar solib, turli g'oyaviy tahdidlar asosida harbiy poligonlarni yuzaga keltirishga harakat qilar ekanlar.

Millatlarni va insoniyatni ming asrlik qadriyatlarini vayron etib zo'rovonlikka asoslangan teroniya davlatini qurishni niyat etar ekanlar. Insonlar erki, hayoti, qadr-qimmatini ularning maqsadlari yo'lida xech narsadir.

Ular hurfiyliklarga qarshilar. Diniy arkonlarning ma'lum o'zlariga yoqadigan tomonlarini dogma etib saqlashni va asl qadriyat deb bilishni talab etadilar.

Ma'rifat, yaratuvchanlik, shukrona, insonparvarlik va bosh'a barcha ahloqiy tamoyillar va normalarni tan olmaydilar, o'z maqsadlari yo'lida barcha narsa va qadriyatlardan, or-nomus, vijdon, ahloq, Vatandan, ota-onadan ham voz kechishni joiz deb hisoblaydilar. Demak, hamisha hushyor turmoq, bunday johillik va yovuzlikka qarshi kurashmoq zarur.

Dunyo mamlakatlari diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning turli choralarini ko'rib kelmoqdalar. Bunday kurash usullari va yo'llariga asosan arab davlatlarida qo'llanilgan va qonuniy e'tirof etilganlarini alohida qayd etish mumkin.

Arab sharqining turli davlatlarida o'z vaqtida islom ekstremizmiga barham berishga qaratilgan jiddiy choralar ko'rilgan, masalan:

²⁵ O'sha manba -243 bet.

1934 va 1937 yillarda Madridda konferensiyada ekstremizm va terrorizm jamoatchilik uchun xavfli deb topilib, ularga qarshi qonun moddalariga o'zgartirish kiritish zarurligi aytilgan. Bunga 20 dan ortiq davlat qo'shilgan.

1977 yil 2 iyuldan e'tiboran Misr Arab Respublikasida barcha diniy-siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlangan;

1980 yil 7 iyulda Suriya Arab Respublikasida "Musulmon birodarlar" partiyasi a'zolarini qatl etish to'g'risida" qonun qabul qilingan;

1981 yil Tunisda "Mamlakatda islom aqidaparastligi g'oyalarini targ'ib etmaslik hamda maktab va jamoat joylarida diniy liboslarni kiyib yurmaslik to'g'risida" gi o'onun qabul qilingan;

Jazoirda "Siyosat bilan faq'at siyosiy arboblarni shug'ullanadi" shiori e'lon qilingan. Shuni qayd etish lozimki, bugungi kunda ham ushbu talablarga qat'iy rioya etiladi.

Biz yuqorida sanab o'tgan huquqiy hujjatlar sirasiga kiradi. Aslida diniy ekstremizmga qarshi kurashni Misr Arab davlatlari siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy sohalarda ham turli usullarni qo'llab olib bormoqdalar. Masalan, siyosiy sohada diniy mo'tadil tashkilotlarga ham saylovlarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish, iqtisodiy tomondan barcha aholiga zaruriy 7 xil oziq-ovqat mahsulotlarining hamisha ta'minlanishiga erishish. Misrda 70% aholi qashshoq bo'lib, iqtisodiy yordamga ehtiyoji bor. Neft mahsulotlaridan, elektr energiyasidan imtiyozli to'lovlar, oylik maoshlariga qo'shimcha foizlar to'lash, suvdan tekin foydalanish kabi imtiyozlarni yaratgan. Uy-joyli bo'lishi, oliy ma'lumot olish va tibbiy dorilar narxini mo'tadil ushlab turishni ham davlat ta'minlaydi. Barchasidan ko'zlangan maqsad ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlashdir.

Yer yuzidagi ko'plab mamlakatlarni turli faoliyatlarda hamkorlikka da'vat etadigan Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyat boshlaganiga salkam 56 yil bo'ldi. Shu yillar maboynida xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashishga oid yigirmadan ortiq xalqaro konvensiyalar qabul qilingan. Ammo birortasida diniy ekstremizm va terrorizm kabi tushunchalar mohiyati keng qamrab olinmagan.

Xalqaro hujjatlar son jihatidan shunchalik ko'p bo'lsa, nima uchun ulardan samarali natijalar bo'lmayapdi degan savol tug'iladi?

Natijalar kutilganidek samarali bo'lmayotganligining sabablaridan biri davlatlar va xalq'aro miqyosda qabul qilingan hujjat va shartnomalar amalga oshirish mexanizmining yetarlicha ishlamaganligidir.

BMT tomonidan qabul qilingan barcha hujjatlarda jahondagi davlatlarni birlashib faoliyat olib borishga da'vat etilgan. Amalda esa bunga ham to'liq amal qilinmaydi.

BMT Bosh Assambleyasida 1972 yilda boshlab xalqaro terrorchilikning oldini olish bo'yicha qator muhim rezolyutsiyalar ishlab chiqilgan. Mamalan 1972 yil 18 dekabr kundagi 3034- rezolyutsiya ustuvordir²⁶. Afsus real xayotda bu kabi rezolyutsiyalarning ishlashi juda sust edi. Aslida hozirda ro'y berayotgan turli terrorchilik va diniy ekstremistlarning harakatlaridan so'ng aslida barcha tinchliksevar davlatlar va ularning tuzilmalari barcha ro'y berishi kerak bo'lgan voq'yealardan ilgariroq yurishlari kerakligi ko'rinmoqda.

2001 yil 11 sentyabr kungi AQSH da sodir etilgan qo'poruvchilikda so'ng BMT ning Xavfsizlik Kengashi jamiyat rivojiga zarar yetkazuvchi turli yot va buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashishda barcha harakatlar birlashtirilishida yetakchilik qilmoqda. Aynan shundan keyin BMT ning Xavfsizlik Kengashi buzg'unchi harakatlarni cheklash borasida dunyo mamlakatlari uchun majburiy kuchga ega bo'lgan muhim rezolyutsiyalarni ishlab chiqdi. Ana shunday rezolyutsiyalardan biri 1373-sonli rezolyutsiyadir. Bu hujjatni O'zbekiston davlati to'liq ma'qulladi. Sababi, bu hujjatning asosiy maqsadi jahon hamjamiyatining xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishga qaratilgan. Hujjat qo'poruvchilarning kerakli resurs va imkoniyatlar topish, ulardan foydalanish, xavfsiz makonlarda yashirinish, qurol-yaroqqa ega bo'lish, hamda davlatlar chegaralarini kesib o'tishning oldini olishda barcha mamlakatlardan hamkorlikni talab qiladi.

²⁶ Ibrohimova S., "BMT va umumbashariy xavfsizlik", // "Tafakkur", -Toshkent, 2004y.2-son, 80 bet.

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda BMT dan tashqari uning maxsus bo'limlari- Fuqaro avitsiyasi xalqaro tashkaloti, Halqaro dengiz tashkiloti, Atom energiyasi bo'yicha halqaro agentlik, bundan tashqari mintaqaviy tashkilotlar masalan avvallari "6+2" tashkiloti, BMT nizomi bo'yicha tashkil etilgan turli siyosiy forum va tizimlar- Ovrupa Ittifoq'i, OBSE, MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqalarni kiritish mumkin. Afsuski, keyingi voqyealar BMT va boshqa halqaro tashkilotlar omonidan tuzilgan terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda. Ammo bu bilan BMT va boshqa halqaro hamkorlik tashkilotlari harakatlarini to'xtatish kerak degan fikrga kelmaslik, aksincha ular faoliyatlarida islohotlar olib borish kerak. Butun jahon halq'lariga hamkorlikda kurash harakatlari olib borilmasa besamar faoliyatlar davom etishi, oxir oqibat yer shari aholisi zo'rovonlikka asoslangan terrorizm va diniy ekstremizm kabi tahdiddan qutila olmasligi va katta jabr-sitam ko'rishi mumkinligini hamisha uqtirish kerak.

Xalqimiz diniy ekstremizm va terrorizm kabi turli yot g'oyalarning zarari, ularning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri haq'ida to'laqonli anglab yetgan. Shuning uchun hurmatli yurtboshimiz Islom Karimov rahnomaligida bu borada turli ijobiy faoliyatlar olib borildi. 1997 yildayoq "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolati" nomli asarida bu zararli oqimlarning mamlakatimiz va jamiyatimiz uchun naqadar xavfli ekanini va ularga qarshi kurashish zarurligini alohida qayd etgandi:

- terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha Xalqaro Markaz barpo etish tashabbusi;
- Eron,Afg'oniston, Tojikiston va boshqa turli davlatlarda tashkil etilayotgan diniy ekstremistlarning terroristik qo'poruvchiliklarini tinch yo'l bilan bartaraf etish prinsiplari haqidagi Toshkent Dekloratsiyasi;

- Narkotik moddalar va uyushgan jinoyatchilikka terrorchilikka, diniy ekstremizmga qarshi kurashda umumiy yondashuv mavzusida Toshkent anjumani.

Yer yuzida, jumladan, Markaziy Osiyoda tinchlik va barq'arorlikni ta'minlashdagi vazifalar etib q'uyidagilar belgilangan:

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamjihatlikni mustahkamlash;

Jamoatchilikning hushyorligini oshirish;

Terrorchilik va diniy ekstremizmga qarshi kurashishda yagona Markaz tashkil etish;

Mintaqa malakatlari o'rtasidagi hamkorlik va do'st-birodarlik jarayonlarini kuchaytirish va boshqalar.

Yurtimiz doimo tinch-totuvlikni o'z siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb bildi. Bugungi kungacha O'zbekiston Prezidentining sa'y- harakatlari tufayli, nafaq'at o'z hududida, balki butun mintaqada, shuningdek, jahonda tinchlik va barq'arorlikni saqlashga katta hissa qo'shib kelmoqda. Aynan prezidentimizning tashabbuslari bilan Afg'oniston muammolari bo'yicha BMT ning "6+2" guruhi tuzildi. Bu muloqot "Afg'onistonning do'stlari va qo'shnilari" deb ataluvchi bu guruh oltita qo'shni davlat - O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Eron, Xitoy, Pokiston, shuningdek BMT Xavfsizlik qo'mitasi a'zolari bo'lgan AQSH va Rossiya Federatsiyasi kirgan. Bu davlatlarning hamjamiyatli faoliyati aks etadigan Toshkent Deklaratsiyasi nomini olgan hujjat 1997 yilda qabul etilgandi. Keyinchalik bu guruhlar hamkorligi qayta ko'rib chiqildi. Ularning faoliyatini isloh etish, ular amalga oshiradigan faoliyatlar qamrovini kengaytirish lozimligi bildirildi. Zero, bundan barcha mamlakatlar manfaatdor edilar. Shuningdek yurtboshimiz Islom Karimov BMT ning 48-50 sessiyalarida so'zlagan nutqlarida jahon davlatlari tinchlik-totuvlikni saqlash va yot g'oyalarga qarshi faqat hamkorlikda ayovsiz kurashish zarurat ekanligini ta'kidladi. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish o'z navbatida boshqa turli irqiy, etnik, ijtimoiy, mintaqaviy, milliy va boshqa bir qator muammolarni ham bartaraf etishni taqozo etadi. Buni ham birinchi bir butun dunyoga jar solib q'ayta-q'ayta takrorlagan prezidentimiz Islom Karimov bo'ladi. Jumladan yurtboshimiz barcha mintaqaviy va umumjahon tashkilotlari tomonidan tuzilgan guruhlar ishi sust ketayotganligini, buzg'unchilik harakatlari esa kuchaya borayotganligini aytdi. Bunda ish va so'z birligiga alohida e'tibor berish kerak.

2011 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "BMT Mingyillik maqsadlarini O'zbekistonda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi.

Juda ko'p ijobiy ishlar qatorida halqaro tashkilotlarning maqomi, ularning nufuzi va jahon muammolarini hal etishdagi roli xususida hurmatli yurtboshimiz jonkuyarlik bilan: "Ko'p hollarda nufuzli halqaro tashkilotlar mojaroli vaziyatlarga, ifodali aytganda, yong'in hidi endigina chiq'ayotgan paytda emas, balki batamom lovullab ketganda, bartaraf etish qiyin bo'lib qolgandan keyingina e'tibor bera boshlaydilar",²⁷ - degandi. Demak, halq'aro tashkilotlar befarq kuzatuvchi emas, faol, oqil va dono maslahatchi, yordamchiga aylanishlari kerak.

Respublikamiz mustaq'illikka erishgandan keyin xalq'imizning ma'naviy va madaniy merosiga, tarixiga munosabat tabdan ijobiy tomonga o'zgardi.

Jamiyatni yangilashdan ko'zlangan bosh maq'sad- yurt tinchligi, Vatan ravnaq'i, xalq farovonligi, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik kabi muhim masalalardan iborat bo'ldi.

Davlatimiz istiqlolga erishgan dastlabki kunidan boshlab, tinch-otuvlikni o'z siyosatining bosh ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini dunyoga e'lon qildi.

Prezidentimiz o'z asarlarida, jumladan "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" da shuningdek, 1993 yil sentyabr oyida bo'lib o'tgan BMT ning 48-sessiyasi, yoki 50- sessiyasida so'zlagan nutqlarida tinchlik borasidagi siyosatni batafsil bayon qilib bergan: "Odamlar bir-birlari bilan uchrashganlarida avvalambor "Assalomu alaykum" deyishadi. Ushbu so'z arabchadan olingan "Tinchlik" so'zi Our'oni karimda 40 marta uchraydi. Tinchlik inson uchun havo va suvdek zarur. Tinchlik insoniyat uchun eng oliy qadriyat va buyuk ne'matdir"²⁸.

Tinchlik hukmronlik qilgan jamiyat barqaror rivojlanadi, oilalar tinch, odamlar baxtiyor yashaydilar.

²⁷ Ibrohimova.S. "BMT va umumbashariy xavfsizlik", // "Tafakkur", -Toshkent, 2004y.2-son, 75 bet.

²⁸ Kistaubayev S. "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda ma'naviy va mafkuraviy tarbiyaning o'rni". // Ma'naviyat va mafkura: muammo, yechim, targ'ibot (*Metodik seminar maqolalari to'plami*) -Toshkent.: NOSHIR, 2008y.-68 bet.

Shunday ekan, tinchligimizga rahna solayotgan, jamiyatimizni beqaror qilishga urinayotgan har qanday oqimlarga qarshi kurash masalasi ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy xayotimizda yechimini kutayotgan hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Har qanday yot g'oyalar: diniy ekstremizm va terrorizm kabi tahdidlarga qarshi albatta birgalikda kurashish kerak, aks holda ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi.

Mamlakatimizga XX asrning 80-yillarida diniy ekstremistlar o'zlarini dinning himoyachisi, dindosh, va xalq'imizga do'st deb kirib kela boshladilar, ular mahallarda, masjidlarda islom dinining sofligi uchun kurashga da'vat qildilar. Maq'sadi dushmanlik bo'lgan bunday kishilar o'zlarining chiroyli da'vatlari bilan ba'zi bir hayotiy tajribasi, ko'nikma va malakasi yetarli bo'lmagan, ochiq ko'ngilli yoshlarimizning ishonchiga kirib oldilar, ularni o'zlariga ergashtirishga urindilar, qaysidir ma'noda bunga qisman bo'lsada erishdilar. Afsuski ularning bunday qabih niyatlarini ota-onalar va yoshlar o'z vaqtida sezmadilar.

Diniy ekstremistik harakatlar O'zbekistonga aslida qachondan boshlab kirib kela boshladilar degan haqli savol tug'iladi:

Aslida maqsadlari yovuzlikdan iborat bo'lgan diniy ekstremistlar va diniy aqidaparastlar xorijiy davlatlarda o'zlarining faoliyatlarini keng tarmoqda olib borgan bo'lsalarda, hozirgi MDH davlatlari hududlariga kirib kelishlari XX asrning oxirlariga borib taqaladi. Bunda sobiq Sho'ro davlatining parchalinishi, boshqa mustaqillikka erishgan yosh davlatlar qatori O'zbekistonda o'tish davrining vujudga kelganligi ularga juda katta qulaylik yaratib bergan. Bunda biz eski kommunizm dogmasiga asoslangan mafkurani rad etib, butunlay yangi erkin fikrlarni va har tomonlama demokratik munosabatlarni yoqlab chiquvchi mafkurani qabul qilishimiz, demak eskini o'rniga yangini qabul qilishga harakat etganimizdir. Inson ongi eskicha dunyoq arashni birdan rad eta olmaydi va yangi dunyoqarashni birdan qabul eta olmaydi. Bu juda murakkab jarayon.

Aqidaparastlik va ekstremizm juda xatarli, reaksiyona diniy-siyosiy oqimlarning qurolidir. Afsuski ma'lum ko'rinishda u O'zbekistonda ham paydo bo'ldi. Bininchi bo'lib "Vahhobiy" lar nomi bilan atalgan guruh 1989 yilda

Namangan shahridagi “Otavalixon” masjidini o’zlariga qo’rg’on q’ildilar. So’ngra 1989-1990 yillarda Qo’qon va Andijon shaharlaridagi “Jome” masjidlarini zo’rovonlik bilan egalladilar. 1995 yilda bu ikkala masjid faoliyati adliya boshq’armalari tomonidan to’xtatilgach, ular respublika bo’ylab yoyilib ketdilar. Ular o’zlarining uzun soqol o’stirishlari, namozda ikki oyoqni keng kerib turish, qo’llarini ko’krakka bog’lab turish, baland ovozda “Omin” deb xitob qilish bilan hanafiy (Imom A’zam) mazhabidagilardan farqlanib turadilar.

Vahhobiylar O’zbekiston mustaq’illigini ko’ra olmaydilar. O’zbekiston xalqining tinch-osuda hayoti, bunyodkorligini hazm qila olmaydilar. Ular kommunistik mafkura barbod bo’lgach, hosil bo’lgan “bo’shliq”ni egallash uchun tish-tirnoqlari bilan harakat qildilar. Aslida ularning ham g’oyalari kommunistik mafkuranikiga o’xshaydi, “revolyutsion”dir, usullari ham bolsheviklarniki kabi ag’darish, to’ntarish, qonga belash. Bunga yaqqol misol tariqasida 1991 yil 9 dekabr Namangan, 1997 yil dekabr oyidagi Namangan shahridagi, 1999 yil 16 fevral kungi Toshkent shahrildagi qotilliklarga asoslangan qonli voqyealarni olish mumkin.

Ancha vaqtdan buyon millatimizga rahnomalik qilib kelayotgan hurmatli prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov diniy ekstrmizm bilan mashg’ul manfur kimsalarning ish “usul” larini tahlil etar ekan: “...ularning birinchi rejasi ma’muriy, huquq himoyasida turgan tashkilotlar: militsiya, prokuratura va shunga o’xshash hokimiyat xodimlarini o’ldirish bilan odamlarni qo’rqitish bo’lgan. Undan keyin bizning ishlab chiqarish sohasidagi, hayot-mamotimizni hal qiladigan inshootlarni portlatish, non, sut yetkazib beradigan, odamlarni ish bilan band qiladigan korxonalarni, imoratlarni portlatish...”²⁹.

Prezidentimiz bu “balo” larning qayerdan kelayotganligiga ham ishora qilib: “Namanganga chetdan ta’sir bo’lmasa, o’z-o’zidan shunday tajovuzlar yuz berarmidi? Bu qonxo’rlar kimning maktabida o’qigan, kimdan mablag’ olgan, kim

²⁹Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. T.7.-Toshkent.: “O’zbekiston”, 1999.-56 bet.

ularni qurol bilan ta'minlagan, ota-onalarining beparvoligidan foydalanib, yosh yigitlarni kim Tojikistonga yoki Afg'onistonga va Pokistonga olib borgan?"³⁰.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu tashkilotlar o'zlarining razil harakatlarini oldindan belgilangan rejalar asosida va aniq maqsadlarni ko'zlab olib borar ekanlar, degan xulosa chiqarsa bo'ladi. Demak, diniy aqidaparastlik, mutaassiblik va ekstremizmning O'zbekistonga kirib kelishining sabablari quyidagilar:

O'zbekistonda dunyoviy tuzimdan voz kechish. Necha mashaqqatlar bilan tuzilgan davlatimiz asosi bo'lgan Konstitutsiyadan voz kechishni talab etadilar. Ular mavjud davlatda to'ntarishni amalga oshirishni talab qiladilar. Bunga tabiiyki hech qaysi davlat yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun nafaqat dunyoviy balki, diniy davlatlar ham bu holatlarga yo'l qo'ymaydilar.

Islom halifaligiga asoslangan davlat barpo etish. Afsuski, aslida mavjud diniy ta'limotlarni buzib talqin etadilar. Asosiy diniy manbalardagi oyat va hadislarni buzib talqin etadilar.

Bu davlatda dunyoviy qonun tizimini rad etish va shariat arkonlarini buzib talqin etish.

Dunyoviy maktablarni yopish (xuddiki ular o'rniga diniy-islomiy maktablar joriy etarmishlar). Aslida bu xato, ular butun millatlar va xalqlarni savodsiz bo'lishlarini xohlaydilar, shunda ularni boshqarish oson bo'ladigan olomonga aylantirish mumkin. Bunga yaqqol misol Afg'onistondir. Ta'lim, ishlab chiqarish, madaniyat izdan chiqarilgan, rivojlanish yo'q, barcha odamlar, hatto bolalar ham qo'llariga qalam o'rniga qurol ushlaydilar. Turli yot kuchlar xohishlariga qarab bir nazar tashlaydilar va urush o'chog'larini chuq'urlashtirib keta oladilar. Eng fojealisi, diniy ekstremizm, diniy aqidaparastlik va diniy mutaassiblik tinimsiz terrorchilikni sodir etadilar, xalqni kelajakka ishonchlari beq'aror, bu jinoyatlar narkobiznes, sovuq qurollarni sotish, odamlarni o'ldirish kabi xunrezliklarni yanada ko'proq sonining oshishiga sabab bo'lmoqdalar.

³⁰ O'sha manba 62 bet.

Islom dinining asl mohiyatini buzib tavsiflaydilar. Odamlarni islom diniga undab, aslida ularni mutelar va manq'urtlarga aylantirishni xohlaydilar. Dinni niqob etib davlatga ega c hiqmoqchi bo'ladilar. Demak, maq'sad moddiy, ya'ni davlatga egalik q'ilish, eng vahshiy usullar bilan odamlarni qo'rquvda ushlab, teroniyaga asoslangan davlatni barpo etmoqchilar.

Yot g'oyalarning kirib kelishiga jo'g'rofiy sabablar ham bor: Jumladan, O'zbekiston eng qulay jo'g'rofiy makonda joylashgan. Aholisi soni ko'p. Atrofdagi Qirg'iziston, Tojikiston davlatlarining ichki siyosatiga aralashish juda oson. Bunga Tojikistondagi ishlab chiqarishning anchagina izdan chiqarilganligi, yaqin-yaq'inlargacha uning hududlarida goh Rossiya, goh AQSh harbiy qo'shinlari saqlanganligini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bundan tashqari, Qirg'izistonda bo'lib o'tgan ziddiyatlar (1989 yilda va 2010 yillarda bo'lib o'tgan reaksion kuchlar uyushtirgan voqyealar). O'rta Osiyodagi barcha beshta davlatning markazida O'zbekiston joylashgan. O'zbekistonning jo'g'rofiy joylashuvining qulayligi, tabiiy qazilma boyliklarga ega ekanligi, qulay agrar xo'jalikning mavjudligi, siyosiy jihatidan ham qulay joylashuvi barcha xorij davlatlarini doimo ohangraboday o'ziga tortadi. O'zbekistonning bosib olinishi barcha Markaziy Osiyodagi besh davlatning egallanishi uchun qulay strategik makonning vujudga kelishiga olib keladi. Afsuski ba'zi tashkilot va harakatlar mavjud qonunlarga qarshi bo'lib, tinchlik va osoyishtalikka rahna soluvchi edilar. Ular o'zlarining yovuz faoliyatlari bilan taraqqiyotni izdan chiqarishi, o'tish jarayonlarini yanada murakkablashtirgan bo'lardilar. O'sha vaqtda prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov juda kuyunchanglik bilan bildirgan fikrlarini bir asarlarida o'qib qoldim: "... Takror aytaman, mening qoidam-qonunni hurmat qilish, qonunga itoatkorlik". AQSH vakili bo'lgan janob Beyker Toshkentga kelganida: "Keling, ko'zingizni yumib, "Birlik" harakatini partiya sifatida ro'yxatdan o'tkaza qoling", deb meni ko'ndirishga uzoq ovora bo'ldi...."Birlik" harakati a'zolari "Yo'qolsin ruslar!" degan varaq'alar tarqatganiga

nima deysiz?”³¹. Aslida bu harakatning a’zolari ham millatlar va diniy g’oyalar o’rtasiga rahna solishni maqsad qilganlar. Ular har qanday yo’llar bilan fuqarolarning o’rtasida urush chiqarib, davlatning parchalanishiga erishmoqchi bo’lganlar.

XX asrda islom dini niqobi ostida diniy ekstremistik, terroristik faoliyatni olib boruvchi “Al-Qoida” (Asos) tashkiloti rahbari Usoma bin Lodin 1956 yilda Saudiya Arabistonining Jidda shahrida tug’ilgan. Otasi yamanlik shayxlardan biri bo’lib, katta moddiy mablag’ga ega bo’lgan, yirik q’urilish firmalarini boshqargan. Usoma bin Lodin 1974 yilda Jidda universitetida tahsil oladi. Islomiy davlatlarda bo’layotgan o’zgarishlar unga ta’sir etadi va 1980 yillarda Afg’onistonga sobiq Sovet qo’shinlariga qarshi jehod q’ilishlik uchun keladi. Shu davrda Usoma bin Lodin AQSH ning markaziy razvedka boshqarmasi bilan aloq’ani Istanbulda o’rnatadi. Bunda Usoma bin Lodin AQSHdan Afg’onistonga sobiq Sho’rolarga qarshi qurol-yarog’ yetkazib berish bilan shug’ullanadi. Ayni paytda u AQSH ko’magida juda katta moddiy mablag’ga ega bo’ladi³². Agar o’sha paytda AQSH yoki boshqa shunday guruhlariga yordam berayotgan davlatlar keyinchalik ularning qanchalik tinchlik uchun rahna solishi mumkinligini bilganlarida bormi, balki o’z faoliyatlarini ko’proq o’ylab ko’rgan bo’lardilar.

Prezident Islom Abdug’aniyevich Karimov jahon hamjamiyati xavfsizligiga va bashariyat osoyishtaligiga xavf solib turgan xalqaro terrorizmga jinoiy hodisa sifatida baho berib, bunday ta’kidlaydi:”O’zgalar qonini to’kish hisobiga mo’may daromad olishni istovchilar batamom yo’q bo’lib ketadigan zamonlar kelishiga hali ancha borgan o’xshaydi. Bu toifaga kiruvchi “bizneschilar” uchun qon va napok siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko’rish mumkin bo’ladigan

³¹ Karimov I.A. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag.-Toshkent.:”O’zbekiston”, 1993.-10-11 bet.

³² Klyuchnikov B. Islamizm: SSHA i Yevropa.-M.:Algoritm. 2003 r.[http:// www. Yandex.ru](http://www.Yandex.ru).

mojarolarni rag'batlantirish borasida eng qulay vosita ekanligini gapirmasa ham bo'ladi"³³.

Eng avvalo, Prezidentimiz I.A.Karimov masalaning mafkuraviy tomonidan ko'ra ko'proq ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tomonlariga e'tibor qaratib ta'kidliydi-ki: "Adolat yuzasidan shuni e'tirof etish kerak-ki, diniy fanatizmning "otilib chiq'ishi"ga sof diniy ziddiyatlardan ko'ra ko'proq ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarning hal qilinmaganligi sabab bo'ladi"³⁴. Qizig'i diniy ekstremizm qaysidir tomonlari bilan kommunistik aqidaparastlikka o'xshaydi. Sababi Kommunistik mafkura ham o'zidan boshqa biror mafkurani tan olmaydigan va ularni tag-tomiri bilan yo'q qilishga intilardi. Diniy ekstremizm ham shunday, ularga muvofiq kelmaydigan birorta g'oya va mafkura bilan chiqisha olmaydilar. Aslida kommunistik mafkura ma'naviy qashshoq'ligi, fanatizmi va millatlarga qarshi qaratilganligi bilan sho'ro hokimiyatidan keyingi makonda diniy fundamentalizm va an'anaviylik uchun sharoit yaratadi. Islom dinidagiga emas, balki yahudolik, xristian konfessiyalari- Rus pravoslav, Rim-katolik, Arman-grigorian, Lyuteran cherkovlarida, baptistlik va boshq'a jamoalarda ham shu hol ro'y berdi. Sobiq Sho'rolar davlati dindorlardan q'anday vahshiylarcha o'ch olgan bo'lsa, ularning foydalangan vositalariga o'xshash vosita va usullardan diniy ekstremistlar ham foydalanmoqdalar. Diniy aqidaparastlar va diniy ekstremistlar bir tomondan diniy e'tiqod erkinlikni da'vo qilsalar, ikkinchi tomondan vujudga kelgan mafkuraviy bo'shliqdan g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanishga harakat qildilar. Demak hozirgi diniy aqidaparastlik va diniy ekstremistlarning yuzaga kelishi ildizlari sobiq Sho'ro tuzumida paydo bo'lgan. Farqi kommunistlar dinni rad etgan bo'lsalar, diniy ekstremistlar aksincha dunyoviy ta'limotlarni rad etdilar. Diniy ekstremistlar va diniy aqidaparastlar o'z dunyoqarashlari va mafkuralarining benuqsonligiga ko'r-ko'rona ishonar

³³.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.:O'zbekiston,1997y.-96 bet.

³⁴.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.:O'zbekiston,1997y.-38 bet.

ekanlar, ularni boshqa har qanday ta'limotlardan ustun qo'yadilar, oqibatda ularni sohtalik bilan muqaddaslashtiradilar.

Bundan tashqari diniy ta'limotlardan foydalanishdagi ziddiyatlardir:” Bir tomondan, islom dinining madaniy qadriyatlari va an'analari, jahon mi'yosida islom dini qoldirgan juda ulkan ma'naviy meros nafaqat mintaq'amizning tarixiy rivojlanishiga, balki uning hozir shakllanib borayotgan sifat jihatdan yangi qiyofasini ham belgilab bermoqda.

Ikkinchi tomondan, islom dinidan siyosiy kurash uchun, ommaning siyosiy ongiga ta'sir ko'rsatish vositalariga ega bo'lish uchun q'urol sifatida foydalaniladi. U bir tug' vazifasini bajarishga qodir. Bu tug' ostida esa aniq bir dasturiy maq'sadlarni izlovchi emas, balki faqat bir ko'rsatmaga amal qiluvchi kuchlar birlashadi”³⁵. Demak, diniy ekstremistlar va diniy aqidaparastliklar garchi boshqa xorijiy davlatlarda paydo bo'lgan bo'lsalar ham, O'zbekis tonda asosan mustaqillik arafasida, aniq roqqilib aytganda, mustaqillikdan keyin paydo bo'lgan. O'tish davrida islom dinining asl mohiyatini anglashda yuzaga kelgan murakkab qarama-qarshi holatlardan foydalanishga uringanlar va fuq'arolar o'rtasida turli noroziliklar, nizolar chiqarishga harakat qilganlar.

Diniy ekstremistlarning moddiy boylik orttirish maqsadlari ham bo'lgan: “Shuni ham ta'kidlash zarurki, xozirgi davrda islom dini nomidan go'yo ortiqcha zeb-ziynat va isrofgarchilikka qarshi kurash olib borayotgan ekstremistik va terrorchi tashkilotlarning rahbarlari, shu jumladan ularning O'zbekistondagi gumashtalari boylik orttirishdan o'zlarini hyech mahal tiymaganlar. Bu haqda juda ko'p tadqiqotlarda, risolalarda, turli ommaviy axborot vositalarida ishonchli dalillar asosida ma'lumotlar berilgan”³⁶.

Bugungi kunda o'zlarini “O'zbek islomchilari” deb atagan, ammo ko'plab jinoyatlar qilib, O'zbekistonni tark etgan guruhlarini islom dini niqobi ostidagi xalqaro ekstremistik guruhlar har taraflama qo'llab-quvvatlashga urinib keldi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro ekstremistik guruhlar tijorat firmalari

³⁵ Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi.- T.:”O'zbekiston”, 33-34 bet.

³⁶ Begmatov A. Aqidaparastlik manbalari. // Falsafa va huq'uq'.2005, №1.12 bet.

faoliyatloaridan foydalanib jinoiy yo'llar bilan topilgan mablag'larini o'z yovuz maqsadlari yo'lida o'zlashtirmoq'dalar. 1994-1996 yillarda esa ular Afg'onistonda yashaydigan etnik O'zbeklardan mablag' yig'ishni tashkil etishgan. Yig'ilgan pullar 1996 yilda Saudiya Arabistonida yashovchi Yosinxon To'raga saqlab turish uchun berilgan. Bundan tashqari, Turkiyaning "Refax" partiyasi rahbari, shu mamlakatning sobiq bosh vaziri N.Erbaqon 1997 yilda Tohir Yo'ldoshga 100.000 dollar miqdorida mablag' ajratgan. Yana o'sha kimsaning yordami bilan Germaniyada harakat qilayotgan turkiyalik muhojirlarning tijorat tashkiloti- "Milliy urush" ning kotibi Muhammad Kuchak orqali Tohir Yo'ldoshga qurollanish uchun bir necha yuz ming dollar berilgan. Afsuski qurol-yarog' yetkazib berish ma'lum shartlar asosida amalga oshirilgan³⁷. Ma'lumotlarga qaraganda MDHga a'zo davlatlar hududloaridagi diniy ekstremistik va terrorchilik tashkilotlariga 60 ga yaqin xalqaro tashkilotlar, 100 dan ortiq' xorijiy kompaniyalar va o'nlab bank guruhlar yordam bermoqdalar³⁸.

Usoma bin Lodin boshliq "Butun jahon fronti" ana shunday tashkilotlaridan biridir. Ular 2000 yil 14 dekabrda jangarilar tayyorlashga 20 million dollar ajratilganini e'lon qilindi. Asosiy maqsadlari dunyo bo'ylab turli jangari tashkilotlarini tashkil etish va ular yordamida yangi urush O'chog'larini yuzaga keltirish. Masalan, 1996 yilda ana shu yuqoridagi ekstremistik tashkilot Juma Namangoniya 250 ming AQSh dollar miqdorda "sadaqa" berilgan. Yana bir ma'lumotlarga qaraganda Usoma bin Lodin 1999 yilning iyun oyida Tohir Yo'ldosh bilan Quddus shahrida uchrashgan va unga 500 ming AQSh dollarini in'om etgan.

Usoma bin Lodin Afg'onistondagi "Tolibon" harakati bilan yaqindan hamkorlik qilib kelgan, jami ishlab chiqariladigan afyunning 80 foizini o'zi shaxsan nazorat etadi. Undan jangari va diniy ekstremistik va terrorchilik harakatlari rahbarlari cho'ntagiga jami 90 milliard AQSh dollar kelib tushadi.

³⁷ Jumayev R. Bu chayonlarning maqsadi nima? Kimlarga suyanadi ular? //Markaziy Osiyo madaniyati. 2000. № 32, avgust.

³⁸ Moldaliyev O. Islamizm i mejdunarodniy terrorizm: ugroza islama ili ugroza islamu?- Bishkek, 2004.-s 121. <http://www.Yandex.ru>.

Avvalo shuni ta'kidlash kerak-ki, bunday g'arazli kuchlarning asl maqsadi, xalqni ma'naviyatidan ayirib, shu orqali o'z manfaatlarini amalga oshirishdir.”... dunyodagi zo'rovon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysindirmoqchi uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalombor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi”³⁹.

Afsuski bilimi, malakasi, tajribasi kam bo'lgan, g'o'r va ta'sirchan yoshlarning ba'zilarini ular o'z guruhlariga qo'shishga muvoffaq bo'ldilar.

Andijon, Namangan, Toshkent shahri, Xorazm va boshqa joylarda xalq'imizning tinchligini buzishga, diniy va milliy ixtiloflar keltirib chiqarishga harakat qildilar.

Afsuski yuqoridagiga o'xshagan talofatlar juda ko'plab joylarda, shuningdek O'zbekistonda ham sodir etildi: 1991 yil 9 dekabr kuni Namangan shahrida bir guruh qo'poruvchilikka asoslangan diniy ekstremistik kuchlar Namangan viloyat ijroiya qo'mitasi binosini egallab olishgan, quyidagi talablar bilan chiq'ishganlar:

dunyoviy tuzumdan voz kechish va O'zbekistonni islomiy davlat deb e'lon qilish;

dunyoviy qonunlarni bekor qilish va mamlakatda shariat arkonlarini joriy etish;

dunyoviy maktablarni yopish va o'g'il bolalar va qiz bolalar alohida o'qiydigan maktablar ochish;

Islomiy kiyinishga o'tish, ayollarning hijobda yurishini joriy etish;

Namangandagi sobiq siyosiy ta'lim muassalari binolarini islom radikallari ixtiyoriga berish va hakoza. Ular jami 15 ta talab bilan chiq'ishib, hokimiyatni ana shu talablar asosida egallashni maqsad etganlar.

1999 yil 16 fevral kuni Toshkent shahrida yuz bergan portlash asosan xalqni vahimaga solish, mustaqillik odimlaridan majburlab chalg'itish, millatni rahnomasiga nisbatan qilingan suyuqasd edi. Bu diniy ekstremistlar va diniy

³⁹ Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch”. Toshkent.: “Ma'naviyat”, 2008 y. 11 bet.

aqidaparastlarning faoliyati natijasi edi. Bu qo'poruvchilik harakatlari orqasida katta kuchlar orligi ayon. Ularning maqsadlari xalqimizning tinchligini buzish, qo'rqitish, yuragiga g'ovg'a solish, yuritayotgan siyosatimizga ishonchimizni so'ndirish, amalga oshirayotgan ezgu ishlarni yo'qqa chiq'arishga harakat qilish edi.

Bundan tashqari 2000 yil avgustda, 2004 yil mart oyida Toshkent shahri va Buhoro viloyatlarida, shu yili iyul oyida Toshkent shahrida, 2005 yil may oyida Andijonda bir qator diniy ekstremistik qo'poruvchiliklar yuz bergan edi.

Afsus ular o'zlarining g'arazli niyatlari yo'lida asosan yoshlar va xotin-qizlarni ko'proq jalb qilar ekanlar. O'zbekistonda esa umumiy aholisining 60% ini yoshlar tashkil etadi. Demak, ulardan keladigan xavf juda katta ekan. Ularga qarshi keskin va tizimli kurashlar olib borish kerak. Zero, yurtboshimiz ogohlantirganidek: "Agar biz bugun dinu diyonatimizni uni buzib talqin etayotgan kimsalardan himoya qilmaslik- shunday xatarni yaqin tariximizda va bugunning o'zida ham boshimizdan kechirmoqdamiz – odamlar, ayniqsa, hayot tajribasi, ongu t afakkuri hali yetarli bo'lmagan yoshlarimiz ertaga ana shu kuchlarning mash'um ta'siriga tushib qolishi mumkin"⁴⁰. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ekstremistlar o'z maqsadlari yo'ltda asosan yosh yigit va qizlarni tanlaydilar. Nega aynan yoshlar va ayollar? Chunki, aynan ana shular Vatanimiz kelajagi, millatimiz ertangi kuni, taraqqiyotini belgilab beradi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "XXI qaysi davlat qudratli, qaysi kuchli bo'ladi? Bu savolga, aholisi intellektual nuq'tai nazardan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, vatanparvar bo'lib, unib-o'sayotgan davlat, deb javob qaytarish mumkin"⁴¹.

Shu yerda aniq raqamlarga murojaat qilaylik. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston dunyodagi eng yosh davlatlardan biri bo'lib, o'rtacha yosh 24ni tashkil etadi. Shuningdek, 26 milliondan ortiq aholining 60 foizi (17,6 mln.) 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Shu o'rinda yoshlar tashq'i ta'sirlarga ko'proq moyil bo'lishini alohida qayd etish lozim. Muayyan hollarda hayotdagi orzu-maqsadlarga

⁴⁰ Yusupov O. tahriri ostida, Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuzta savolga- yuzta javob)-T.: "Toshkent Islom Universiteti", 2007, 3-bet.

⁴¹ O'sha manba 77 bet.

mustaqil erishish harakatlarining hamma vaqt ham amalga oshavermasligi oqibatida yoshlarda infantillik (o'zini nochor, yordamga muhtoj his qilish)dek xususiyat shakllanishi kuzatiladi. Bunday vaziyatda ularda "oliy maqsadlarga intilayotgan men kabi kishilar yoki jamoa mavjud",- degan tasavvur paydo bo'lishiga zamin yaratiladi. Shunda ular o'zlarining maq'sad va intilishlarini tushunadigan kishilarni izlay boshlaydilar.

Ayni paytda, jiddiy mas'uliyatdan ozod bo'lgan o'smirlar uchun shaxsiy tajribaning yetishmasligi xosdir. U soddalik va xayolparastlik bilan yonma-yon keladi. Shu bilan birga, yoshlar nazdida atrofda kuzatilayotgan adolatsizlik natijasida yuzaga keladigan zo'riqishni yo'qotishda faqat birgina yo'l-"buyuk g'oyani o'zida mujassamlashtirgan yetakchi bilan hammaslik bo'lishni tanlashga moyillik yuzaga keladi. Bu yo'l o'smirni diniy mutaassiblik oqimlarning domiga tortilishiga olib kelishi mumkin. Yana aniq dalillarga qaytamiz. Manbalarda qayd etilishicha, 2003 yil yanvar-sentyabr oylarida diniy ekstremistik tashkilotlar tarkibida konstitutsiyaviy tuzumga qarshi jinoyat sodir etgan 150 kishining 80 tasini (53%) 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi.

Ushbu raqamlar ham diniy ekstremistik harakatlarning yoshlarning ruhiy xususiyatlarini inobatga olib, ularga o'zlarining g'araz maqsadlariga erishish yo'lida alohida e'tibor bilan qarayotganliklarini ko'rsatadi.

Diniy ekstremizm bilan mashg'ul kimsalar ongi zaharlangan, fanatizmga berilgan jinoiy harakatiga o'zi javob bera olmaydigan, qilayotgan harakatini belgilay olmaydigan, kimningdir yovuz niyatini bajaradigan ijrochi kimsa, deb atashimiz kerak.

Insonlarning joniga qasd qilish, o'ldirish, odamlarni vahimaga solish, tinchlikni buzish, insonlarni garovga olish maqsadida qilinadigan holatlar va buning ortida siyosiy-diniy va fanatik maqsadlarda uyushtirilgan jinoyatlar terrorizm deyiladi. Diniy ekstremistlar va terroristlar xalqni kuzatish va ularga o'z ta'sirini o'tkazish uchun dindan ustalik bilan foydalanadilar. Ular o'z qora niyatlarini yurtimizning bir qancha joylarida amalga oshirishga muvoffaq bo'ldilar. Jumladan yuqorida ba'zilarini qayd etdik, ulardan tashqari 2000 yil

yoz oylarida Surxandaryo viloyati Sariosiyo va Burchmullo tog'larida, 2004 yil 29-30 mart va 1 aprel kunlari mamlakatimizda mudhish jinoiy harakatlarini sodir etdilar. Bu harakatlarda ichki ishlar hodimlari, jasur harbiy askarlar va fuqarolar hayotdan ko'z yumdilar. Islom dinida odam o'ldirish, qon to'kish gunoh hisoblanadi. Bu manfur kimsalar odam o'ldirib, qon to'kib, katta gunohga botib, do'zahiy bo'ldilar.

“Inson sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, ayniqsa har jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lib qolgan hozirgi dunyo sharoitida shundan aniq dalolat berib turibdi-ki, alohida olingan bir davlatdagi har qanday mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib keta olmaydi, bir qancha sabablarga ko'ra bunday mojaro nazorat qilib bo'lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar”⁴² - deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, terrorizm dunyoning qaysi bir joyida namoyon bo'lishidan qat'iy nazar, u hamma davlatga siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy, ijtimoiy tahdidni, barqaror rivojlanishiga to'sqinlikni keltirib chiqaradi. Demak, diniy ekstremizm insoniyatning dushmanidir, unga befarqlik bilan qarash, yoki loqaydlikka yo'l qo'yish mumkin emas. Inson xudoning erka va erkin bandasi, degan edi buyuk mutaffakkir Mahdumi A'zam. Inson yer yuzidagi tartib va osoyishtalikka ma'sul shaxsdir. Shunday ekan, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash odamzodning birinch galdagi vazifasidir. Bu kurashda ma'naviy va mafkuraviy tarbiyaning o'rni beqiyosdir.

⁴² Yusupov O. tahriri ostida, Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuzta savolga- yuzta javob)-T.:”Toshkent Islom Universiteti”, 2007, 69-bet.

1.3."G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili diniy ekstremizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy usuli sifatida

Inson, ma'naviyat, dunyoviy qadriyat, diniy qadriyat, milliy qadriyat, Vatan, istiqlol kabi tushunchalarni insoniyatning hayot tarzini to'laroq tushunish, hamda anglash uchun qo'llash mumkin. Bular bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'zaro taqozo etiladi.

Ijtimoiy taraqqiyot uchun yuqorida qayd etilgan tushunchalar obyektiv, ilmiy va mukammal o'rganilishi kerak. Barchasini ma'naviy qadriyatlar sirasiga kiritish bo'ladi. Ana shularni atroflicha bilish jamiyatga tahdid soluvchi yovuz kuchlarga qarshi kurashish uchun juda ham zarur. Yurtboshimiz Islom Karimov 1998 yilda "Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga javob berar ekan, xalqaro diniy ekstremizm va terrorizmning tajovvuziga qarshi kurashishda: "G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, oldini olish mumkin"⁴³, - degan tamoyilni ilgari surgan edi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab xalq'imiz diniy ekstremizm va terrorizm kabi turli yot g'oyalarning zarari, ularning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri haqida to'laqonli anglab yetgandi. Shuning uchun hurmatli yurtboshimiz Islom Karimov rahnomaligida bu borada turli ijobiy faoliyatlar olib borildi.

1995 yil 15-16 sentyabr kunlari Toshkentda BMT ning Markaziy Osiyoda Xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar kengash bo'lib o'tdi. Seminar "Tinchlik, Barqarorlik, Hamkorlik" shiori ostida o'tgan. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda barcha davlatlar birlashishiga yurtboshimiz urg'u bergan. Bir davlatda yuz bergan boshqa barcha davlatlarda ham dahldorlik hissini uyg'otishi zarurligini alohida ta'kidlandi. Yurtboshimiz barcha muammolarni oldindan ko'ra olgan va xalqaro tashkilotlar bajarishi kerak bo'lgan faoliyatni bajarishga harakat qilgan. Buni 1993, 1995, 1997, 1998, 2000,

⁴³Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni, millatni – millat qilishga xizmat etsin", "Tafakkur" jurnali, 1998y, 2-son, 4-bet.

2001, 2008, 2010, 2011 va boshq'a yillarda ham tizimli davom etganligini ko'rish mumkin.

1997 yildayoq "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolati" nomli asarida bu zararli oqimlarning mamlakatimiz va jamiyatimiz uchun naqadar xavfli ekanini va ularga qarshi kurashish zarurligini alohida qayd etgandi:

terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha Xalq'aro Markaz barpo etish tashabbusi;

Eron, Afg'oniston, Tojikiston va boshqa turli davlatlarda tashkil etilayotgan diniy ekstremistlarning terroristik qo'poruvchiliklarini tinch yo'l bilan bartaraf etish prinsiplari haqidagi Toshkent Dekloratsiyasi;

narkotik moddalar va uyushgan jinoyatchilikka terrorchilikka, diniy ekstremizmga qarshi kurashda umumiy yondashuv mavzusida Toshkent anjumani.

Yer yuzida, jumladan, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi vazifalar etib quyidagilar belgilangan:

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamjihatlikni mustahkamlash;

Jamoatchilikning hushyorligini oshirish;

Terrorchilik va diniy ekstremizmga qarshi kurashishda yagona Markaz tashkil etish;

Mintaqa malakatlari o'rtasidagi hamkorlik va do'st-birodarlik jarayonlarini kuchaytirish va boshqalar.

Yurtimiz doimo tinch-totuvlikni o'z siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb bildi. Bugungi kungacha O'zbekiston Prezidentining sa'y- harakatlari tufayli, nafaq'at o'z hududida, balki butun mintaqada, shuningdek, jahonda tinchlik va barqarorlikni saqlashga katta hissa qo'shib kelmoqda. Aynan prezidentimizning tashabbuslari bilan 1997 yil Afg'oniston muammolari bo'yicha BMT ning "6+2" guruhi tuzildi. Bu muloqot "Afg'onistonning do'stlari va qo'shnilari" deb ataluvchi bu guruh oltita qo'shni davlat - O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Eron, Xitoy, Pokiston, shuningdek BMT Xavfsizlik qo'mitasi a'zolari bo'lgan AQSH va Rossiya Federatsiyasi kirgan. Bu davlatlarning hamjamiyatli faoliyati aks

etadigan Toshkent Deklaratsiyasi nomini olgan hujjat 1997 yilda qabul etilgandi. Keyinchalik bu guruhlar hamkorligi qayta ko'rib chiqildi. Ularning faoliyatini isloh etish, ular amalga oshiradigan faoliyatlar qamrovini kengaytirish lozimligi bildirildi. Zero, bundan barcha mamlakatlar manfaatdor edilar. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish o'z navbatida boshqa turli irqiy, etnik, ijtimoiy, mintaqaviy, milliy va boshqa bir qator muammolarni ham bartaraf etishni taqozo etadi. Buni ham birinchi bir butun dunyoga jar solib qayta-qayta takrorlagan prezidentimiz Islom Karimov bo'ladi. Jumladan yurtboshimiz barcha mintaqaviy va umumjahon tashkilotlari tomonidan tuzilgan guruhlar ishi sust ketayotganligini, buzg'unchilik harakatlari esa kuchaya borayotganligini aytdi. Bunda ish va so'z birligiga alohida e'tibor berish kerak.

Shundan keyin 6+3 formatdagi muloqot guruhi ham bevosita Islom Karimov tashabbusi bilan 2008 yilda tashkil etildi. Bu guruh ham BMT shafeligida faoliyat olib boradi.

2010 yilda 20 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanishiga bag'ishlab sammiti chaqiriladi va bunda BMT Bosh kotibi Pan Gu Munning taklifiga binoan prezidentimiz Islom Karimov ham ishtirok etdi. Bunda AQSH, NATO, Rossiya kabi yirik tashkilot va davlatlarning boshqa davlatlar ichki muammolariga noqonuniy aralashmaslik kerakligi, ammo yot buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashda birlashish zarurligi ta'kidlandi. Biror mamlakat muammolarini qurolli harbiy harakatlar bilan sira hal etish mumkin emasligi aytiladi. Asosan tinch yo'l bilan zarur bo'lganda chetda turmasdan aralashish va oqilona tarzda davlatlar manfaatiga dahl qilmasdan muammolarni hal etish lozim:

“ ...2010 yilning iyunida o'irg'izistonda ro'y bergan fojeali voqyealar va ularning tub sabablarini o'rganishni BMT tashkilotidan so'rashimiz, bu o'z navbatida kelajakda bunday zo'rovonliklar bo'lishini oldini olishga yordam berishini ta'kidladi”⁴⁴.

⁴⁴Karimov I.A. "Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir", o'quv qo'llanma, -Toshkent, -2012y, 31 bet.

Ma'naviy qadriyatlar kishilik jamiyatining taraqqiyot bosqichlarida juda katta mehnatlar negizida yuzaga keladi, asrlar davomida to'planib keladi va vorisiylik bilan ajdodlardan avlodlarga o'tkaziladi. Ma'naviy qadriyatlarning yoshlar ongini shakllantirishdagi ustuvorligi quyidagicha izohlanadi:

1.Ma'naviy qadriyat insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovot bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi orzu-istagi, e'tiqodi, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi.

2.Ma'naviy qadriyatlar tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega, hayotda sinalgan, ijtimoiy taraqqiyotda ahamiyatli, ajdodlardan-avlodlarga o'tuvchi ijtimoiy hodisalardir.

3.Ma'naviy qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, halqning tarixiy taraqqiyotida erishilgan barcha yutuq'larini ifodalovchi va saqlovchi qudratli omildir. Ma'naviy qadriyatlar milliy, diniy va dunyoviy turlarga ajratiladi. Barcha ma'naviy qadriyatlar asosini yovuzlikka qarshi kurash va ezgulikka chorlash tashkil etadi. Demak, barcha dunyoviy, diniy, milliy qadriyatlar yot g'oyalar sirasiga kiruvchi diniy ekstremizmga qarshi kurashning asosini tashkil etadi.

Diniy qadriyatlar asrlar mobaynida insonlarning e'tiqodini shakllantirib, ularning tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Jahon dinlariga aylangan islom, buddaviylik, xristianlik va boshqa dinlarda ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar ulug'langan. Din avval ham, hozir ham inson ma'naviy kamolotining asosiy yo'llari va mezonlarini belgilab bergan. "Ma'naviyat muayyan ma'noda dinning botiniy jihatidir"⁴⁵. Din shaxsiy va ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida qadimgi va hozirgi zamon sivilizatsiyalari tarixida mislsiz o'rin tutgan va tutib kelmoqda. U insoniyat taraqqiyotiga qudratli ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy-axloqiy kuch bo'lib,

Insoniyatning eng teran va eng go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Din jamiyatda muhim ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy vazifalarni bajarib, axloqiy munosabatlarga, ijtimoiy hayotga, adabiyot va san'atga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Dinning falsafiy, nazariy vazifasi – insonga yashashdan maqsad,

⁴⁵ Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008, 11bet.

hayot mazmuni, dunyo hodisalariga o'z munosabatini bildirishdir. Hamisha ham din ijtimoiy guruhlarda birlashtirish vazifasini o'tab kelgan. Misol uchun, insoniyat tarixida eng qadimiy dinlardan biri zardo'shtiylilik O'rta Osiyo hududlarida shakllangan va jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichiga o'tishiga, o'lkaning turli qabilalarini birlashtirishga va bu orqali ularni ilk buyuk davlatchilik g'oyasi atrofida uyushtirishga olib keladi. Jamiyatning ichki ijtimoiy barqarorligini ta'minlash, ichki nizolarni bartaraf etish kabi tarixiy missiyani bajarishga xizmat qilish uchun muqaddas "Avesto" ta'limoti vujudga keldi. "Avesto" katta ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy, tarixiy, axloqiy-ta'limiy, ma'rifiy qiymatga ega bo'lib, unda hayot dialektikasi yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat, rivojlanish bilan tanazzul o'rtasidagi doimiy kurash qonuniyati yorqin aks etgan. Bundan tashqari, "Avesto" da yosh avlod tarbiyasi, kamoloti, ota-ona, jamoa, qo'ni-qo'shni oldida, muallimlarning burchi hamda vazifalari, o'quvchining maktabda, ko'chada, ustoz, ota-ona, keksalar, kattalar huzurida o'zini tutish mezonlari ko'rsatilgan. "Kichiklikda bilim olsang, yigit bo'lgach, boshing egilmaydi"⁴⁶, deb o'rgatgan, yoshlar ma'naviy tafakkurini shakllantrigan. "Avesto" da bayon etilgan ma'naviy boylik bugun chetdan kirib kelayotgan, yoshlarimiz ko'nglini zabt etishga qaratilgan ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda qo'l kelishi shabhasiz. Yoshlar ruhiy dunyosini izdan chiqarishni maqsad qilib olgan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion hurujlarning asl mohiyatini ochib berishda, yoshlarimizning odob- axloqini shakllantirishda, ularni ezgulikka, hayot mohiyatini to'g'ri tushunishga, ota-onaga hurmat, yurtiga mehr-muhabbat kabi mehrga undaydigan, ma'naviy olamini yuksaltirishga yordam beradigan ma'naviy mezonlarning o'rni beqiyos.

Insonning barcha yuksak ideallari, haq, haqiqat, adolat haqidagi tushunchalari diniy dunyoqarashga tayangan. Bu islom diniga ham oiddir. Islom dinining hayotiy tamoyillari ilm egallashga intilish, ezgulik q'ilish, el-yurtga foyda keltirish, savob va ehsonga undash, yomonlarni yo'ldan qaytarish, halollik,

⁴⁶ Ahmedshina F. "Diniy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviyatiga tarbiyaviy ta'siri". // Barkamol avlod va ijtimoiy taraqqiyot.-Toshkent,2010, 85 bet.

birovning haqqiga xiyonat qilmaslik kabi ko'pgina ma'naviy qadriyatlardan iboratdir. O'sib kelayotgan yosh avlodga islom dinining mazmun-mohiyatini, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida dunyoda islom diniga qiziqish va intilishning "...asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bilan bog'liq"dir deb ta'kidlaydi va uni pok saqlash, turli xil g'arazli huruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohitini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb ekanligiga e'tibor qaratadi. Shuning bilan bir qatorda, asarda islom dini va diniy aqidaparastlik o'rtasidagi farqni hali ongi yetarli darajada shakllanmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlar anglay olmasliklari natijasida ularning ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Yoshlar ta'lim-tarbiyasida din va xurofot o'rtasida farq'lar va ularning qalbida xalq'ning buyuk farzandlari islom dinining rivojlanishiga va uning pok saqlanishiga ulkan hissa qo'shganlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish zarur. Butun dunyo tan olgan Imomi A'zam, Imom Buxoriy, Iso Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abduholiq G'ijduvoniy va Bag'ouddin Naq'shband singari buyuk mutafakkirlar va allomalar islom ma'naviyati va ma'rifatining, islomiy qadriyatlarning rivojlanishiga va boyishiga ulkan hissa qo'shdilar. Ularning o'rta asr arab-musulmon jamiyati, davlati, oilasi, umuman ra'iyatlarining siyosiy madaniy, ijtimoiy, axloqiy, huquqiy munosabatlari, dunyoviy qadriyatlari, talab va majburiyatlariga siyosiy hamda huquqiy-diniy asoslar yaratib berishda xizmatlari kattadir. Shulardan biri, islom madaniyati va ma'naviyati tarixi bilan chambarchas bog'lanib ketgan,"Amir ul-mo'minin" (Hadis ilmida mo'minlarning amiri), "Imom ud-dunyo" (Dunyodagi barcha

mo'minlarning va musulmonlarning imomi), "Shayx ul-islom" (Musulmonlarning ustoz) nomlari bilan mashhur va ma'lum bo'lgan Imom al-Buxoriydir. U bir necha asrlar davomida musulmon olamida eng aziz va mo'tabar inson sifatida behad hurmat bilan tilga olingan buyuk siymolardan bo'lib, "Al-jomi' as-sahih" ("Ishonarli to'plam") asarini yozgan. Unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng ishonarli tanlab olingan, islom olamida muq'addas Qur'ondan keyin turadigan noyob manba hisoblanadi. Bu asar mustaqillikdan so'ng o'zbek tiliga tarjima qilinib, uch marta ko'p nusxada chop etildi. Alloma tavalludining 1200 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Samarqand yaqinidagi Imom Buxoriy maqbarasi va masjid majmuasi qayta tiklanib, u yerdagi hadisshunoslik markazi ochildi.

Buyuk olim ikkinchi "Al-adab ul-mufrad" deb nomlangan asariga "Ishonarli to'plam"dan Muhammad (s.a.v.) payg'ambarimizning axloq-odobga oid qarashlarini o'zida aks ettirgan hadislar saralab olingan. Unga ona va ota hurmati, qarindoshlarga munosabat, qo'shnilarga munosabat, qizlarga g'amxo'rlik, bola tarbiyasi, qo'shnilarga munosabat, yetimlarga g'amxo'rlik kabi ijtimoiy masalalarga oid hadislar kiritilgan. Ana shu asarning arab tilidagi matni 2009 yilda Rossiyaning yirik madaniy markazi bo'lmish Sankt-Peterburg shahrida taniqli arabshunos Elnur Zaripov tarjimasida rus tilida nashr etildi⁴⁷.

Islom madaniyatiga e'tibor mustaqillik yillarida keng tus oldi. Diniy marosimlar tiklandi. Ramazon hayiti va Qurbon hayiti xalq'ning haqiqiy ommaviy bayramlariga aylandi. Qur'oni Karim o'zbek tiliga tarjima qilindi. Buyuk allomalar Bahouddin Naqshband, Hoja Ahror Valiy, Mahmud Zamahshariy, Imom Moturudiy, Abduholiq G'ijduvoniyning yubiley tantanalari keng nishonlandi, hamda ularning nomi bilan bog'liq qadimiy yodgorlik majmualari obod va yangilari barpo qilindi.

Ming yillar davomida bo'lganidek, hozirda ham O'zbekiston xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan markaz bo'lib kelmoqda.

⁴⁷ Shodiyev E. "Islom dini durdonalari", // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent.: 2009 yil, 25 dekabr, №36, 4-bet.

Respublikada 16 konfessiyaga mansub 2186 ta diniy tashkilot, jumladan, 1987 masjid ro'yxatdan o'tgan (1989 yilda 89 ta edi), Toshkent Islom universiteti, 10 ta o'rta-maxsus bilim yurtlari, hamda Protestant va Provaslav seminariyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Mustaq'illik yillarida yuzlab cherkovlar, sinagoglar va ibodat uylari barpo etildi, ta'mirlandi. Ularga Samarq'and, Toshkent, Navoiydagi pravoslav ibodatxonalari, Toshkent shahridagi katolik kosteli, Samarq'anddagi arman-apostol cherkovi, Toshkentdagi Budda ibodatxonasi va boshq'alar kiradi⁴⁸. Nufuzli xalq'aro tashkilot – Islom konferensiyasi tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat muassasalari bo'yicha tuzilmasi AYSESKO tomonidan 2007 yilda Toshkent shahrining Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani ham mamlakatda islom qadriyatlari va ma'naviyatini rivojlantirib kelinishiga berilgan yuksak bahodir.

Islom dini milliy istiqlol maqsad va vazifalari bilan uyg'unlikda milliy taraqqiyotning muhim omillariga aylanishi uchun mustaq'illikning birinchi yillaridanoq "... musulmonchilikning ulug' madaniy qadriyatlari huquqini qayta" tiklash,"... bu bebaho xazinani chuqurroq idrok qila borgan sayin xalqning hayoti ma'naviy jihatdan boyroq va axloqiy jihatdan pokizaroq bo'la" borishiga (I.Karimov) ishonibfaoliyat yuritishga ahamiyat ortdi. "Islom dini, deydi Prezident, - biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik"⁴⁹.

Mustaqillik yillarida olimlar va jamoatchilik tomonidan islom ma'rifati xazinasidan yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda foydalanish zaruriyati haqida ochiq-oydin fikrlar aytila boshlandi. Islom dini, umuman, dinlarning inson va jamiyat hayotiga ta'siri, ma'naviyat rivojiga qo'shgan hissasi masalalariga e'tibor ortdi. Islom qadriyatlari, qoidaloari va talablari, millatchilik kayfiyatlaridan yuqori turishini, barcha millatlarni birlashtirib, teng, do'st, yoru birodar qilib, tinch-omon yashashlari uchun sharoit yaratib berishni zarurat deb biladi. Lekin hozirda islomni siyosiylashtirishga, siyosat quroliga aylantirishga intilgan

⁴⁸ Ochilova B.M., Qadriyatlar falsafasi, o'quv-uslubiy majmua./ o'quv qo'llanma/ -T.: "Yurist mediya markazi" nashriyoti, 2010 y., 209-bet.

⁴⁹ Ahmedshina F. "Diniy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviyatiga tarbiyaviy ta'siri". // Barkamol avlod va ijtimoiy taraqqiyot.-Toshkent, 2010, 89 bet.

kuchlar mavjud. Islomni dastlabki ko'rinishda saqlab qolish, uni fundamental asosiga qaytarish jarayoni, bu yo'lda radikal, ekstremistik harakatlar qilish, kuch ishlatish, qon to'kish, hatto qurolli harakatlar olib borish, terrorchilik shakllarini qo'llashi keng jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Bunday harakatlar chin islom tamoyillariga ziddir. Yoshlarga diniy eustremizm va diniy fundamentalizmning diniy e'tiqod, islom ma'naviy qadriyatlari bilan hech qanday aloqasi yo'qligini nazariy va amaliy tahlillar asosida o'rgatish kerakligi anglanildi. Chunki necha ming yillik diniy ma'naviyat an'analari umuminsoniy qadriyat ekanligi va uning shaxs kamolotidagi o'rni va rolini bilmasdan turib yoshlar diniy ma'naviyat haqida to'g'ri va to'liq ma'lumotga ega bo'lmasliklari aniq. Ularning ham diniy, ham dunyoviy bilimlarga qiziqishi hayot zaruratiga aylansa, shaxs ma'naviy kamoloti uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi, unga o'z hayotini to'g'ri asoslarga qo'yishiga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarni din niqobi ostida g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun siyosiy hokimiyatni egallashga intilayotgan ba'zi kuchlarning ta'siridan saqlashga ko'kaklashadi. Shu kuchlarning sohta g'oyalar mazmun-mohiyatini, islom dinini nega qurol olishga urinayotganliklarini, odamlarni chalg'itish yo'li bilan hokimiyat tepasiga kelishdan qanday maqsad ko'zlayotganliklarini anglab olishlariga olib keladi.

Islom fundamentalizmi, ekstremizmi, umuman diniy ekstremizm va g'ayriislomiy diniy tashkilotlar o'z maqsadlariga erishishning asosiy usuli sifatida terrordan pok diniy qadriyatlarni saqlab qolish uchun emas, balki dinni nikob qilib siyosiy hokimiyatni egallash uchun foydalanmokda.

Islomiy ekstremistik partiyalarning asl maqsadi amaldagi konstitutsiyaviy demokratik tuzumni o'zgartirib, islomiy davlatni qurish va uni davlatning shariat qonunlariga ko'ra boshqarishni tadbiq etishga qaratilgan⁵⁰.

Bugungi davr terrorizmi eng zamonaviy vositalar yordamida ilg'or va rivojlangan mamlakatlarga qarshi ko'poruvchilik qilishda o'zini namoyon etmokda. Uning pirovard maqsadi uzluksiz va mutassil ko'poruvchilik harakatlari bilan jahon siyosatini belgilab berayotgan davlatlar va kuchlar-ning

⁵⁰ Zakrullayev A., Ro'yalar kurashi. Movaraunnaxr, T., 2000, 23-bet.

dunyodagi boshqa xalqlar bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishga majbur etishdir. Ular "O'z norozilik va g'azabimizni ifoda etishda bizning yagona qurolimiz terroridir", deya da'vo qiladilar⁵¹.

Bu jarayonga hushyorlik bilan qarash lozim. Chunki, hamma vaqt sof islomiy nazariya, insoniyatni komillikka da'vat etuvchi buyuk ta'limot bo'lishi bilan birga, uni sohtalashtiruvchilar, undan o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanuvchilar ham mavjudligini, ayni ana shu salbiy hodisalar jamiyat taraqqiyotida kutilmagan fojialarni keltirib chiqarishini hayot ko'rsatmokda. Dinni qalban chukur his etgan, chin insoniy fazilatlarini qadrlash qobiliyatiga ega bo'lgan odam hyech qachon ekstremistlar singari dinni qurol qilib olmaydi, uning insoniy va axlokiy tuyg'ulari, tarbiyasi bunga yo'l qo'ymaydi⁵².

Yoshlarni ham shu ruhda tarbiyalasak ular hyech qachon diniy ma'naviy qadriyatlarni dinsizlik bilan almashtirmaydilar. Bu esa yoshlar dunyoqarashini shakllantirishni dunyo sivilizatsiyasining din va diniy tamoyillarini teran tahlil qilish va shu yo'l bilan uni anglash asoslarida olib borishni taqozo etadi.

Bugungi kunda bu masalalarga ilmiy yondashish zarurati kuchaymoqda. Diniy- ma'rifiy ishlar ko'lamini kengaytirish, yoshlarni imonlilik, chinakkam insonparvarlik ruhida tarbiyalash zarur. Ammo bu masalalari faqat dinshunos olimlarnigina emas, balki barcha olimlar, murab-biylarning qarshisida turgan muhim vazifalarga aylanmokda. Yoshlarning ma'naviy irodasini mustahkamlashda, hayot ma'nosini to'g'ri anglab olishlarida diniy va ilmiy dunyoqarashning uyg'unlashuvi talab qilinmokda. Xozirgi davrda shaxsning tafakkur tarzi va ma'naviy dunyosini to'g'ri shakllantirishda uning hayotda to'g'ri yo'l topishida, yuksak ma'naviy kamolot darajasini oshirishi muhimdir. Odamlar, ayniqsa, yoshlar diniy va ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar hakida ilmiy izlanishlar natijalaridan bexabar bo'lib qolish hollarini ozaytirish darkor. Ko'pincha ular o'z bilim, tajribalari asosida, chuqur tahlil qilinmagan, tekshirilmagan, isbotlanmagan xilma-xil diniy qarashlarga e'tiqod kilishlari mumkin.

⁵¹ Xonazarov K.,, Terrorchilar tenglik tarafdorimi? "Tafakkur", 2009, 4-son, 14-bet.

⁵² Ochilova B., Shaxs ma'naviy kamolatida ixlosmandlik va ibrat birligi. Uzbekistan, T, 2004, 121-122-bet.

Qur'oni Karim, hadislar, shariat qoidalari, islom huquqi asoslarida odlinga surilgan ma'naviy-axlokiy g'oyalar zamirida ruhiy poklanish, imon, vijdon, e'tiqod, go'zallik bilan bog'liq bo'lgan dunyoviy muammolar o'rta qo'yilgan. Jamiyat hayoti va shaxsiy hayotdagi barcha muammolarni hal etish uchun avvalo, inson o'zi ruhan va vijdonan pok, halol, iymonli, e'tiqodli, ilmi bo'lishi kerak degan g'oya islom dinining o'zagini tashkil etadi. Yoshlar chin ma'noda diniy va dunyoviy qadriyatlardan qanchalik ko'p saboq, olsa, ularga ishonsa va ularga amal qilsa, ularning tafakkurlari shunchalik boyib boradi, o'zlari ma'naviy kamol topa boradilar.

Islomiy qadriyatlar — iymon, e'tiqod, ibodat, ixlos, taqvo, do'st, ota-ona, qarindosh-urug'chilik, farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, mehr-oqibat, insofdiyonat va shunga o'xshash juda ko'p qadriyatlardan iboratdir. Milliy qadriyatlar shu islomiy qadriyatlarga hamohangdir. Ma'naviy yetuk inson halollik, poklik, mehr-oqibatlik, adolat, Vatanni va elni e'zozlash, mexnatsevarlik, botirlik, kamtarlik, to'g'rilik, mardlik, qarindosh-urug'chilik, hushyorlik, g'ypyp, farosat kabi fazilatlariga ega bo'lishi shart deb hisoblanadi. Shunday qilib, islomiy va milliy qadriyatlar yoshlar kamolotida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lganligi uchun ham asrlar sinovidan o'tib bizgacha yetib kelgan va yangi avlod tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmokda.

Yoshlar diqqatini islom ma'naviy madaniyatining ravnaq topishiga, insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalar bilan ko'plab axloq'iy-ma'naviy masalalarni hal etishga ko'maklashgan, islom dinining asosini to'g'rilik, ezgulik va insoniylik tashkil etishini isbotlagan, butun dunyoga mashhur bo'lgan buyuk allomalar ilmiy izlanishlariga qaratish lozim. Ularning ilmiy maktablari islom dunyosida keng ma'lum bo'lgan va islom ma'naviy qadriyatlarining tarqalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelgan va kelmokda. Shuning uchun ham "Zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va

faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari butun ham jahon ahliini hayratga solayotganligini g'urur bilan ta'kidlash lozim"⁵³.

Bundan maqsad ularning timsolida "...ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab borish"dir (I.Karimov). Chunki inson faqat diniy dunyoqarash yordamidagina imonli, insofli bo'ladi, haqiqat va adolatni tan oladi deb bo'lmaydi. Buni diniy mafkura hukmron bo'lgan davrlarda ham sodir etilgan, dinga, imon-e'tiqod talablariga zid ishlar qilingan tarixiy davrlar isbotlaydi. Shunday og'ir sharoitlarda ham ma'naviy jasorat ko'rsatib ezgulik, insonparvarlik g'oyalariga sodiq qolgan shaxslar hayoti yoshlarimizga, umuman, barchaga yuksak namunadir. O'rta asrlardagi g'oyat hatarli va tahlikali vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasi ko'rsatgan Imom Moturidiy islom olamida "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak sharafiga sazovor bo'lgani bunga yaqqol misoldir.

Xo'sh, Imom Moturidiy nomini ulug'lashimizning sababi nimada? Imom Moturidiyning faoliyati va ta'limoti haq'ida gapirar ekanmiz, avvalo, bir masalani aniqlab olish lozim: uning merosini nima uchun ulug'laymiz, nima uchun qadrlaymiz, nima uchun bugun ham bu merosning hayotiy ta'sirini sezamiz?

Aytish mumkinki, Imom Moturidiy hazratlari ana shunday tarixiy zarurat natijasida maydonga chiqqan mumtoz siymo, ulug' allomadir. Buyuk bobomiz yashagan davarda ham har turli diniy fiq'h va oqimlar o'rtasida g'oyaviy qarama-qarshiliklar, ziddiyat va nizolar kuchayib, qonli mojarolar avj olgan edi.

Musulmonlar uchun bag'oyat hatarli va tahlikali ana shunday bir vaziyatda hazrati Moturidiy zo'r matonat, avlodlarga ibrat bo'ladigan fidoyilik namunasini ko'rsatadi. Ul zot Alloh taolo o'ziga ato etgan beq'iyos aq'l-zakovot va ilm bilan to'g'ri yo'ldan adashgan oq'implarga qarshi kurash olib bordi. Ammo, shuni alohida qayd etish kerak-ki, ul zot g'animplarga qarshi qilich yalong'ochlab jang qilib emas, balki ilm-murosalar bilan, yaxshilik ila ibrat bo'lish orqali kurashish kerakligini uqtiradilar. Ularning qarashlari asosida hurmatli yurtboshimiz Islom

⁵³ Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008, 41bet.

Abdug'aniyevich Karimovning "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya" tamoyillari yotadi. Aniqroq qilib aytganda: "Alloma bugungi kunda ham o'z ahamiyati va ta'sirini yo'qotmagan hayotbaxsh kuch, ya'ni g'oga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat yo'lini tanladi va umrining oxiriga qadar shu yo'lda sobit qoldi"⁵⁴.

Alloma johil kuchlarning tahdid va tajovuzlaridan qo'rq'may, hidoyat yo'lini yo'qotgan firqalarga qarshi keskin raddiyalar bitdi. Hazrat Moturidiyning asarlaridagi ilmiy asos va mantiq qudrati shu qadar kuchli ediki, uni hatto allomaning muxoliflari ham oxir-oqibatda tan olishga majbur bo'ldilar. Aslida alloma nafaq'at o'z davrida, balki kelajak avlodlar uchun ham dinning sofliğini saqlashga, din ichida firqalarga ajralib ketishlarga qarshi kurashgan, bilib-bilmay turli oqimlarga bo'linib ketishlarning oldini olishga harakat qilgan. Shu bilan ul zot butun islom olami, o'z xalqi, o'z Vatani oldidagi yana bir ulkan xizmat, ya'ni bebaho dinimizni qanday tushunish va qanday tushuntirish ilmini rivojlantirdi va boyitib berdi. Hazarti Moturidiy X asrdayoq diniy g'oyalarni g'arazli maqsadlar yo'lida qurolga aylantirish, mutaassiblik va johillik botqog'iga botib qolish qanchalik hatarli ekanini asoslab bergani biz uchun ayniqsa muhimdir. Bu so'zlar naqadar haqqoniy, shuning uchun ham ular o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Alloma Islom dinining bag'rikengligini va insonparvarligini olamga ko'rsatib bera oldi.

Islom dini huquqshunosligini betakror bilimlar bilan boyitgan alloma Burhoniddin Marg'inoniydir: "Islom huq'uq'shunosligining ulkan namoyandasi, shayxulislom Burhoniddin Marg'inoniyning nomi Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Motrudiy, Mahmud Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahrori Valiy singari ulug' siymolar qatorida turadi"⁵⁵.

Burhoniddin Marg'inoniy yashagan zamon- Sharq Uyg'onish davrining birinchi bosqichi bo'lmish X-XI asrlarda Movarounnahr zaminida ilmu fan gurkirab rivojlangan, jamiyat taraqqiyoti uchun islom huquqini to'g'ri anglash

⁵⁴ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. -T.: O'zbekiston, 2001 y. 125 bet.

⁵⁵ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. -T.: O'zbekiston, 2001 y. 113-114 bet.

va amal qilish muhim ijtimoiy zaruratga aylangan edi. Ul zot o'z asarlarida (Musulmon olamining buyuk asari "al-Hidoya") o'sha zamonlardagi musulmon olamidagi turli sohalarga oid muammolarning huquqiy tahlilini bergan. Shu sababli turli murakkab vaziyatlarning qonuniy hal etilishiga, adolatning qaror topishiga yordam bergan. Barcha xizmatlari asosida ul zot "Hidoyat yo'lining sarboni" deya katta hurmat-e'tibor topgan. Agar bir allomaning zamondoshlaridan biri aytgan "Ey aql egasi, "Hidoya"ni o'qib, mag'zini chaqqin, chunki u seni hidoyat yo'lga boshlab, eng oliy maqsadlarga yetkazgay", degan so'zlarini eslasak, o'ylaymanki, u zoti sharifning avlodlar oldidagi tarixiy xizmatlarini yana bir bor yaqqol tasavvur qilgan bo'lamiz. Ko'p asrlik tariximiz shundan dalolat beradiki, eng murakkab davrlarda ham xalqimizning mushkul sinovlardan o'tishi, hayotning turli to'fon va bo'ronlariga mardona bardosh berib, qaddi-qomatini tik tutib yashashiga katta madad baxsh etadigan kuch-yuksak ma'naviyat va adolatga intilish tuyg'usi bo'lgan. Barcha yuksak cho'qqilarga intiluvchi insonlar uchun komil ma'naviyat va adolat asosiy tamoyil bo'lgan. Jamiyat taraqqiyoti uchun barcha sohalar kabi diniy ta'limotlarda ham musulmonlar o'rtasida ziddiyat keltirib chiqarish emas, balki ular o'rtasiga murosai modaroni hosil qilish asosiy vazifa bo'lgan. Millatlar va turli din vakillari o'rtasiga nifoq solish dinda ham harom deb sanalgan va diniy ekstremizm va terrorizmni huqukiy nuqtai nazardan o'z davrining islom faqihlari ham oqlamaganlar, noqonuniy deb topganlar.

Hozirgi davrda yoshlarga ma'naviy ta'lim va tarbiya, zaruriy bilim va ma'lumotlar berish, vaziyat bilan amaliy tanishtirish, ogohlik orqali ularning ma'naviy kamolotiga ko'maklashish, shuur va ruhiga ijobiy ta'sir etish dolzarbdir. Ma'naviy ogohlik shaxsning ichki intilishi va qalb istagi bilan amalga oshadi, yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish, o'zini anglash imkonini beradi. O'z-o'zini anglab yetgan, aqli raso, g'oyaviy-siyosiy jihatdan yetuk shaxsni ma'naviy chalg'itish, tili, millati, madaniyati, milliy qadriyatlarini oyoq osti qilishga undab bo'lmaydi. Miloddan avvalgi V asrda yashab o'tgan mashhur yunon faylasufi Suqrot o'zini anglagan inson o'zi uchun nima foydaliligi va nimalarga qodir

ekanligini yaxshi tushunadi. U qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullanish asosidao'z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan holi bo'ladi. Buning natijasi o'laroq u o'zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana boshlaydi. Oqibatda o'zini kulfatlardan saq'laydi⁵⁶, - deb bejiz aytmagan.

Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda islomiy qadriyatlarni hurmat qilishning ahamiyati katta. Islomiy qadriyatlarning demakki barchasi: halollik va fidoiylik bilan yashash, e'tiqodda sobit bo'lish, vijdon va iymon bilan hayot kechirish, or-nomusli, mehr-okibatli, muruvvatli bo'lish, yaxshilik, ezgulik, savob ishlarni qilish va shu kabi juda ko'p va xayrli talablari yoshlarni iymon-e'tiqod bilan yashashga, o'kib o'rganishga, mehnat qilishga undaydi. Bunday iymon-e'tiqodni islomiy va xalqaro qadriyatlar uyg'unligida shakllantirish yoshlarning ma'naviy-madaniy, badiiy-estetik, axlokiy-ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Agar insonda xudoga, oliy qadriyatlarga, ezgulikka ishonch yo'qolsa, uning yashashidan hyech qanday ma'ni qolmaydi, u tirik murdaga, tafakkuri mute qulga yoki qattol, xirsi jilovlanmagan yovuz shaxsga, zo'ravon va yulg'ichga aylanadi⁵⁷.

Mustaqillik yillarid a din, shu jumladan, islom dini, islomiy qadriyatlarning mohiyati va ahamiyatiga yangicha yondashishning asl maqsadi, ularga oid ko'plab tushunmovchiliklar, anglanmaganliklardan kelib chiqqan muammolarni holisona, mafkuraviy qaramlikdan, aqidaparastlik va avtoritar ateistik g'oyalardan holi ravishda ko'rib chiqish, tadqiq etish edi. Bu murakkab, muayyan vaqt va tajriba talab etadigan jarayon bo'lgani uchun unga siyosiy vaziyatga moslashib, vaqtinchalik kayfiyat va ehtirolarga berilib emas, balki yuksak mas'uliyat bilan ilmiy metodologiya asosida yondashish talab etiladi. Islomiy qadriyatlar mohiyati, ahamiyati va har bir musulmonga ta'siri haqida qilinayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari va ular-ning natijalari hozirgi zamon talablariga to'la javob bermayapti. "Islom dini, rasm-rusmlari, qoida qadriyatlari, islomiy

⁵⁶ Haqiqat manzaralari, - Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2009 y.-63 bet.

⁵⁷ Erkayev A., Fan bilan dinni birlashtirishga exltgyoj bormi? Tafakkur, 4-son, 23-bet.

tarbiya bo'yicha katta-kichik kitoblar — ko'llanmalar, dasturilamallar, yo'l-yo'riqlar, imon-e'tiqodga oid tegishli to'plamlar ko'plab bosilib chikdi. Bu yaxshi. Yana ham ko'plab yaratilishi kerak... Bunday islomiy kitoblar juda zarur va kerak" (I.Karimov).

Diniy qadriyatlar va uning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni haqida gapirganda, dinning inson hayoti, odamlar o'rtasidagi munosabatlar tizimidagi o'rni beqiyosligini alohida ta'kidlash lozim. Din, diniy qadriyatlar, amaliy tajriba, axloqiy qadriyatlarga tayanib insonning to'g'ri diniy dunyoq'arashini shakllantiradi, inson ma'naviyatiga chuqur singib, uning yashash maq'sadini muayyanlashtiradi. Aslida dinning vazifasi muayyan dunyoqarashni shakllantirish orqali kishilarning ongiga va shu yo'l bilan ularning amaliy faoliyatiga hamda hayotiga ta'sir etish, diniy bag'rikenglik tamoyillarini rivojlantirishdir.

Yoshlar ma'naviyatini to'g'ri shakllantirishda dinning diniy xazinasidan keng foydalanishning ahamiyati ortmoq'da. "Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham q'arz, xam farz bo'lishi shart, deb hisoblayman. Nega deganda, o'zimiz — bugun shu yurtda yashayotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o'z zimmamizga olmasak, chetdan kelib hyech kim hyech qachon bu ishni qilib bermaydi" (I.Karimov).

Kishilarning osoyishtaligi va xavfsizligiga rahna soladigan diniy ekstremizm va diniy terrorizmning barcha ko'rinishlari buzg'unchilik- fasod ishlardan sanaladi. Qur'onning "Baqara" surasi 205-oyatidagi "Alloh esa buzg'unchilik- fasodni sevmaydi"⁵⁸, -degan oyat tushunchasi islomning diniy ekstremizm va terrorizmga bo'lgan salbiy munosabatini bildiradi.

Mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilik odatda begunoh odamlarning qoni to'kilishiga olib keladi. Qur'onda esa bunday holatlar "Biror jonni o'ldirmagan yoki Yerda (buzg'unchilik va qaroq'chilik kabi) fasod ishlarni qilmagan insonni

⁵⁸ Yusupov O. tahriri ostida, Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuzta savolga- yuzta javob)-T.: "Toshkent Islom Universiteti", 2007, 53-bet

o'ldirgan odam xuddi hamma odamlarni o'ldirgan kabidir”⁵⁹ (Moida, 32) deya qoralanadi.

Imom Buxoriy rivoyat qilishlaricha, Payg'ambarimiz “Musulmon kishi shuki, uning tilidan va qo'lidan musulmonlar ozor chekmaydilar”,⁶⁰ - deya marhamat qilganlar. Bu hadisda tildan yetadigan ozor qo'ldan yetadigan zarardan avval zikr etilmoqda. Chunki qo'l bilan boshqalarning faqat bu dunyosi- salomatligi, oilasi, mulkiga zarar yetkazilsa, til bilan- insonlarni turli buzg'unchi g'oyalarga targ'ib qilish orqali to'g'ri yo'ldan chalg'itib, ikki dunyosini barbod etish mumkin. Bundan anglashiladiki, Payg'ambarimiz kishilarga qanday shaklda bo'lmasin, ozor yetkazish katta gunoh ekanini ta'kidlaganlar.

Islom dini manbalari “Qur'on” Karim, Hadisi shariflar, Shariat arkonlari, Fiqh kabilardir. Ularni to'liq va mukammal, asosiysi holislik nuqtai nazari bilan o'rganish kerak. Biz ularni teran o'rgansak, yot va yovuz qarashlar, nazariyalar va g'oyalarga qarshi aniq, o'z vaqtida va to'g'ri rad javobini bera olamiz. Aynan yoshlarga buning mazmun-mohiyatini singdirish zaruriyatdir.

Alloh taoloning o'zi firq'alarga bo'linmaslik haq'ida shunday deydi:”Hammangiz bir bo'lib Allohning arkoni (Qur'oni)ga yopishinglar, turli firqalarga bo'linib ketmanglar”⁶¹. Oyatga mazmuniga ko'ra, islomda hizblar tuzish Alloh ko'rsatmasiga ziddir. Ba'zi hizbchilar Payg'ambarimizning6 “Kimki imomsiz, ya'ni xalifasiz hayotdan o'tsa, u johiliyat zamonida o'tganlardek o'libdi”,- degan hadislarini o'z faoliyatlarini asoslash uchun dalil sifatida keltiradilar. Ana shu hadisni ro'kach etib, juda ko'plab insonlarni umriga zavol bo'lmoq'dalar. Avvalo xalifalik davri tugaganiga ancha davrlar bo'ldi. Payg'ambarimiz Rasulliloh (s.a.v.) ham o'zlaridan keyin 4 xalif bo'lishligini aytganlar, ulardan keyingi qancha vaqt o'tgan bo'lsa barchasini johillikka tenglash o'zi xurofotdir. Bundan tashqari juda ko'p din ulamolari, dunyoviy ilm sohiblari, umuman qanchadan –qancha insonlar yashab o'tgan shuncha davrni johillik deb xulosa chiq'arish gunohdir⁶².

⁵⁹ O'sha joyda, 53 bet.

⁶⁰ O'sha joyda, 53 bet.

⁶¹ Begmatov A. Aqidaparastlik manbalari. // Islom:bag'rikenglik va mutaassiblik.-T.:Univer, 1998 y.-52 bet.

⁶² Begmatov A. Aqidaparastlik manbalari. // Islom:bag'rikenglik va mutaassiblik.-T.:Universitet, 1998.- 62-bet.

Islomda shunday tahlil etilgan: “Mening ummatim yoppasiga adashib zalolatga tushib qolmaydi, sizlar ko’pchilik tomonda bo’lingiz!” (“Sunani ibn Moja”, 8-bob)⁶³, degan sahii hadis fikrimizning isboti bo’ladi. Turli diniy ekstremistik tashkilotlar, partiyalar paydo bo’lganlariga yarim asr bo’lgan bo’lsalar ham, ular birorta davlatda tan olinib, rasmiy ro’yxatdan o’tkazilmaganlar.

Ajdodlar va avlodlarni birlashtirib, ulardan qolgan ma’naviy-ma’rifiy meroslarni hamda zamonaviy bilimlarni puxta egallagan yosh avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, endilikda islom faqat diniy e’tiqodgina emas, balki, umuman, musulmon jamiyati fuqaro-larining turmush tarzi, ruhiyati, qadriyatlari bilan bog’lik, bo’lgan huquqiy, axloqiy, ilmiy, tarbiyaviy, madaniy, kommunikativ funksiyalarni bajara boshladi⁶⁴.

Davlat dinni nazorat qilish emas, balki, uni mamlakatdagi o’zgarishlarga moslashtirish, dinga ishonuvchilarni jamiyatni integratsiyalash va siyosiy konsensus yo’lida milliy mustaqillikni, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni mustahkamlashga jalb qilishga intiladi. Islom qadriyatlarining yoshlar ongi va qalbidan o’rin olishi, dindagi yuksak insoniy fazilatlarga ixlosmand qilib tarbiyalashdan davlatning o’zi ham manfaatdor⁶⁵.

Dinlarning, shu jumladan islom dinining shaxs va jamiyat taraqqiyotidagi o’rni va roli muhim bo’lganini, insoniyatning ma’naviy-madaniy xazinasini ekanligini, ijtimoiy-ma’naviy hayotimizdagi ijobiy ahamiyatini qadrlab, ularning insoniy va ma’rifiy tomonlaridan yoshlar tarbiyasida keng foydalanishimiz zarur. Chunki din va diniy-ma’naviy qadriyatlar yoshlar dunyoqarashi va ma’naviy kamolatida muhim o’rin tutadi, uning axloq’iy me’yorlarini tartibga soladi.

Dunyoviy qadriyatlar ham diniy qadriyatlar singari ezgulik sari insonlarni boshlaydi. Jamiyat rivojida xayotning yaxshilanib, uyg’unlashib borishi natijasida kishilik jamiyatining moddiy va ma’naviy turmush tarziga ijobiy ta’sir etadigan, turli xalklar g’oyaviy mushtarakligi asosida vujudga kelgan, ma’naviy fikrlar mahsullari umumlashib, bir-birini boyitib, yagona umuminsoniy qadriyatlarga

⁶³ Begmatov A. Aqidaparastlik manbalari. // Islom:bag’rikenglik va mutaassiblik.-T.:Universitet, 1998 y. 65-bet.

⁶⁴ Ochilova B., Shaxs ma’naviy kamolatida ixlosmandlik va ibrat birligi. Uzbekistan, T, 2004, 121-122-bet.

⁶⁵ O’sha joyda, 127 bet.

aylanadi. Umuminsoniy va milliy qadriyatlar yagona tarbiyaviy asosga ega. Xalkimizning urf-odatlar, marosimlar, dinimiz va turli allomalar yaratgan boy ma'naviy meros Sharq xalqlarining qadriyati hisoblanadi. Milliy qadriyatlar mazmunan o'sha millatning g'oyalari, qarashlari, e'tiqodi, ma'naviy turmush tarzi, orzu-istaklari, kelajak maqsadini ifoda etadi.

Islom dini butun borligi bilan insonlarni ilmga, hidoyatga yetaklaydi. Qur'oni Karimning birinchi nozil bo'lgan surasi ham «Iqra», ya'ni "O'qi", deb boshlanadi. Qur'onning 96- "Al-Atik" surasida esa: "O'qi, Parvardigorning behad karamli, uning o'zi qalamga o'rgatgan, insonga uning bilmaganlarini o'rgatgan"⁶⁶ so'zlari bitilgan.

Muborak hadislar ham ilm, ma'rifatlilik ulug'lanadi. Masalan, "Ilm o'rganish har bir mo'min uchun farzdir», so'zlari muborak hadisi sharifda bitilgan. Ilm tufayli odamlar nodonlik, jaholat botqog'idan chiqib, o'z iymonlarini kamolotga yetkazadilar"⁶⁷.

Faylasuflarning qarashlariga tayanadigan bo'lsak, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda asosiy manbalar: fan, adabiyot, san'at, maorif, din ma'naviy-ruxiy qadriyatlar hisoblanadi.

Jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy tarbiyalash hakida Abu Ali ibn Sino: - «Fozil jamoaning har bir a'zosining ma'naviy madaniyati uning jismoniy va ruxiy madaniyati orqali shakllantiriladi», - degan edi. Abu Rayhon Beruniy, ta'lim-tarbiyada umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bo'lgan e'tiqod, muhabbat asosida shaxsni ma'naviy kamolotga yetkazish mumkinligi g'oyasini ilgari suradi.

Mustaqillik va Vatanimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar milliy ongimizda juda katta burilish yasadi. Bu ulkan o'zgarishlar insonlar ongi tomonidan har xil darajada qabul qilinadi. Millatimizning tili, dini, urf-odatlar, an'analari ma'naviy qadriyatning tarkibiga kiradi.

Shaklan milliy, mazmunan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan xalq an'analari ma'naviy meros jahon madaniyatining ajralmas

⁶⁶ O'sha joyda, 31 bet.

⁶⁷ O'sha joyda, 31 bet.

qismidir. Bu qadriyatlarning vorisiyligi doimo ta'minlanishi lozim. Zero, xalqimizning ma'naviy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zligini anglash va milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish, yoshlarimiz ongida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi tura oladigan ma'naviy immunitetni shakllantirish mumkin emas. Bu juda uzoq vaqt va kuchli mehnatni talab etadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar o'ta murakkab jarayondir. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy va diniy qadriyatlarning o'rni juda salmoqli hisoblanadi. Ma'naviyatimiz, milliy mafkura, milliy g'oya, milliy urf-odatlar barchasi milliy qadriyatlarimiz tarkibiga kiradi.

Milliy qadriyatlar - millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'lik, qadriyat shakllari hisoblanadi. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazining to'rt asosiy bo'limidan ikkitasi aynan:

"Umuminsoniy qadriyatlar va milliy qadriyatlar" va "Milliy urf-odatlar, an'analarni o'rganish va ma'naviy-ma'rifiy istiqbol tadqiqari", - deb nomlanishi ham bejiz emas. Bu markaz tomonidan o'tgan yillar davomida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksaltirish uchun ulkan vazifalar bajarildi. Milliy qadriyatlarimizga alohida z'tibor kuchaytirildi. Modomiki, mamlakatimizda odamlarda ma'naviyatni tarbiyalash ishi davlat miqyosidagi vazifa darajasiga ko'tarilgan ekan, buning zahirida jiddiy gaplar yotadi. Bizning maqsadimiz madaniy-ma'naviy meros, sharqona umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida umummilliy ma'naviyatni barqarorlashtirish va boyitishdir. Milliy qadriyatlar mustahkam bo'lsa, ma'naviyat ham barqaror bo'ladi.

Ma'naviyat deganda, avvalo tug'ilib o'sgan muqaddas yerga, oila, qarindoshlar, yoru-birodarlar va qo'ni-qo'shni, maxalla-kuyga, xalqqa, shuningdek, Vatanga hurmat, ajdodlar xotirasi, iymon e'tiqod, hamkorlik va birodarlik kabi muborak an'analarni» qadriyatlarni anglash tushuniladi. Milliy ma'naviyatimizni buyuk ajdodlarimiz qoldirib ketgan kimmatbaho ma'naviy va madaniy meroslar zahirida ko'rishimiz mumkin.. Turkistonning buyuk mutafakkirlari xalqni bilimli qilish, ongini o'stirish, o'zligini kamol toptirish borasida ma'rifatning turli vositalaridan unumli foydalanganlar. Zero, qalbiga ma'naviyat urug'i qadalgan

inson iymonli bo'ladi. Iymon esa, bu halollik, poklik, to'g'rilik va xaqlikdir. Agar iymon butun bo'lsa, milliy o'zlik anglangan bo'ladi. Milliy o'zlik, ma'naviyat va milliy qadriyatlar bir, so'z bilan aytganda, insonning asosiy maqsadi bo'lgan baxt va saodatdir. Abu Nasr Forobiy insoniy baxt-saodatni quyidagicha izohlaydi: "Insoniy vujuddan maqsad - eng oliy baxt-saodatga erishuvdir, avvalo u baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvini o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak. Keyin u baxt-saodatga olib boradigan ish - amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. So'ngra esa baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog'i lozim bo'ladi"⁶⁸.

Milliy qadriyatlar va ma'naviyatni yoshlar ongiga chuqurroq singdirish borasida millatimizdagi mutafakkirlarning faoliyatlaridan o'rinli va maq'bul foydalanish katta samara beradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar milliy qadriyatlar bilan qo'shib olib borilmasa, natija salmoqli bo'lmasligi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 12-moddasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasiga sifatida o'rnatilishi mumkin emas, deyilgan. Shunga binoan, har bir diniy konfessiya o'z mafkurasiga ega bo'lishi mumkin.

Lekin bu mafkura xalqqa tazyiq bilan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Jamiyatimizda diniy tashkilotlar faoliyati xalqimizda milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik va fidokorlik, komil insonni shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekistonda e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashda qonunchilik ham takomillashib bordi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun 1991 yilda qabul qilingan bo'lib, 1993 yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo'lib keldi. So'nggi yillar davomida mazkur qonunni davr talablari asosida tubdan o'zgartirish zarur bo'lib qoldi va 1998 yilning 1 may oyida Respublika Oliy Majlisi tomonidan qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

⁶⁸Forobiy Abu Nasr Fozil odamlar shahri.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2012 y.-33bet.

2000 yil 13-15 sentyabrda Toshkentda o'tgan dinlararo muloqot YUNESKO Kongressi Markaziy Osiyodagi madaniy, diniy va etnik xilma-xilligini muhokama qildi. Unda 40ga yaqin davlatdan 80dan ortiq turli din va konfessiyalarga mansub vakillar, yirik mutaxassislar ishtirok etdilar. Kongressdan so'ng 18 sentyabr kuni Buxoro shahrida «Tasavvuf va dinlararo muloqot» mavzusida xalqaro simpozium bo'lib o'tdi.

Unda «tasavvuf»ga bag'rikenglikni targ'ib etuvchi, tinchlikka chaqiruvchi Islom dinining noyob, o'ziga xos ko'rinishi degan ta'rif berildi. Aynan 2000 yil sentyabrda Toshkent islom universitetida dinlarni qiyosiy o'rganish bo'yicha YUNESKO kafedrasi ochildi. YUNESKO rahbariyati bu tashabbusni qo'llab-quvvatladi. Fan, ta'lim va madaniyat sohasidagi eng nufuzli xalqaro tashkilot rahbari shaxsan o'zi kelib kafedrani ochishi fikrimiz isbotidir. Kafedraning asosiy vazifasi dinlararo muloqot va diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlashga ko'maklashishdir. Shuningdek, 2001 yil sentyabrda Toshkentda o'tgan Osiyo – Tinch okeani mintaqasi YUNESKO «bag'rikenglik tarmog'i»ning ikkinchi yig'ilishida bag'rikenglik tamoyillari o'zbek xalqining urf – odatlari bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlandi.

O'zbekistonning an'anaviy diniy bag'rikenglik o'lkasi ekani, islom fani va madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasini e'tirof etib, nufuzli xalqaro tashkilot – Islom konferensiyasi tashkiloti (O'zbekiston unga 1996 yildan a'zo)ning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha Boshqarmasi (ISESCO) Toshkent shahrini 2007 yilda islom madaniyati poytaxti deb e'lon qildi.

Xalqaro hamjihatlik yo'lida har bir inson, jamoa va millatlar bashariyatning turli-tuman madaniyatlardan iborat ekanini anglashi va hurmat qilishi juda muhimdir. Bag'rikengliksiz demokratiya asoslari va inson huquqlarini mustahkamlab bo'lmaydi. Tinchliksiz taraqqiyot va demokratiya bo'lmagani kabi, bag'rikengliksiz tinchlik bo'lmaydi.

Globalashuv jarayoni g'oyaviy, mafkuraviy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatib, xozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nixoyatda kuchli vositasiga aylanib, jahondagi xar xil siyosiy kuchlar va markazlarning

manfaatlariga xizmat qilmoqda. Xozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, ahborot kommunikasiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, – deb ta'kidlaydi Prezident I.A.Karimov, – fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muxim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoviy va milliy qadriyatlarimiz sirasiga Mustaq'il O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasi ham kiradi. Konstitutsiyasida insonlarning dinga bo'lgan munosabati alohida moddalarda ifodalangan:

18-modda. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqyeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy alodat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

31-modda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hyech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi⁶⁹.

Dunyoviy, milliy qadriyatlar sirasiga marosimlar, qarashlar, nazariyalar kiradi. Bularda moddiylik ham, ma'naviyliklari ham mavjud. Ularning negizida insonlar hayotini ezgulik sari yo'naltirish, jamiyatni taraqqiyot sari boshlash yotadi. Agar aksi bo'lsa, bunday g'oyalardan insoniyat, jamiyat, tabiatga zarar yetkaziladigan bo'lsa, ular tanqid qilinadi va ulardan bosh tortiladi.

Jumladan, fanda tahlil etilgan ilmlar yaxshilik yo'lida foydalaniladi, ulardan egoistik manfaat yo'lida zararli maq'sadlarda foydalanilsa jinoyat sanaladi va jazo qat'iy belgilanadi.

Milliy qadriyatlarimizda: masalan alla- onalar orqali butun insoniyatga muhabbat tuyg'usini bolada shakllantirishdir. Har bir farzand tug'ilganda

⁶⁹ Karimov S., Ahmedov I. "Dinshunoslik" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.,-Jizzax. 2013-2014 o'quv yili uchun.127-bet.

daraxt ekish, insonlarda tabiatga mehr-muhabbat, tabiatni asrash, e'zozlash tuyg'usini rivojlantirish g'oyasi yotadi.

Axloqiy qadriyatlarda inson haqqoniy ishlarini birovdan yashirmaydi, taomi halol bo'lsa, boshqalar olida uyalmay iste'mol qiladi kabi fikrlari mavjud. Agar harakatingiz to'g'ri bo'lsa, ishlaringiz adolatli bo'lsa, demak ularni birovlardan sir tutmaysiz, aksincha ularni hammaga ko'rsatishga, boshq'alar oldida g'urur tuyishga intilasiz. Aksi bo'lsachi? Masalan diniy ekstremistlar, diniy aqidaparastlar va diniy terroristlar, ularning faoliyatlari halol bo'lmaganligi, harakatlari noto'g'ri, g'oyalari adolatsizliklardan iborat bo'lganligi uchun, jamiyatga rahna soluvchi va tinchlikka xavfli bo'lganligi uchun sir saqlaydilar, yashirin faoliyat ko'rsatadilar. Demak, yolg'onlardan iborat ekan. Insoniyatni ijodkorlikka emas, mutelikka eltuvchi g'oyalar. Kimlardir diniy axloqni e'tirof etadilar, hatto halollik haqida va'z o'qiydilar, ammo o'zlari axloq'siz faoliyat ko'rsatadilar. Faqat Alloh bandalarni yaratdi, ulardan jon olishga ham Xudo qodir,- deb aytiladi. Ammo diniy ekstremistlar, aqidaparastlar va terroristlar o'z g'arazli niyatlari yo'lida ko'plab insonlarni qirg'inbarot qilmoqdalar. Bu qanday g'oyalarga mos keladi. Bu bilan xuddi fashistlar g'oyasiga o'xshaydilar.

Demak, barcha keltirilgan ma'lumotlardan xulosa shuki, diniy ekstremizm o'z mohiyatiga binoan insoniyat va jamiyat uchun butkul zarar. Tinchlik va tarraqiyotni izdan chiqarar ekan. Ham diniy, ham dunyoviy ta'limotlarda diniy ekstremistik harakatlar va diniy aqidaparastlar to'liq qoralanadi. Bunday kishilik jamiyati va butun olam uchun tahdid soluvchi kuchlarga qarshi kurashish zarurat ekan. Ana shu kurashda ma'lum tayanadigan asoslar, usul va vositalar kerak bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanib diniy ekstremizmga qarshi kurashish uchun quyidagilarni asoslar deb qayd etish mumkin:

Islom dinida asosiy muq'addas kitob "Qur'on"da diniy oq'implar rad etiladi. Jumladan:

Kishilarning osoyishtaligi va xavfsizligiga rahna soladigan diniy ekstremizm va diniy terrorizmning barcha ko'rinishlari buzg'unchilik- fasod ishlardan sanaladi. Qur'onning "Baqara" surasi 205-oyatidagi "Alloh esa

buzg'unchilik- fasodni sevmaydi"⁷⁰, -degan oyat tushunchasi islomning diniy ekstremizm va terrorizmga bo'lgan salbiy munosabatini bildiradi.

Mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilik odatda begunoh odamlarning qoni to'kilishiga olib keladi. Qur'onda esa bunday holatlar "Biror jonni o'ldirmagan yoki Yerda (buzg'unchilik va qaroqchilik kabi) fasod ishlarni qilmagan insonni o'ldirgan odam xuddi hamma odamlarni o'ldirgan kabidir"⁷¹ (Moida, 32) deya qoralanadi. Demak, islom dinining muqaddas kitobi "Qur'on" diniy ekstremizmga qarshi kurashishda asosiy manba diniy manba bo'lar ekan.

Demak, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahrori Valiy singari ulug' siymolar asarlarida diniy ekstremizm va diniy aqidaparastlik to'liq qoralangan ekan, ularning asarlari va ta'limotlari g'oyaviy kurashlarda asosiy manbalar bo'ladilar.

Endi dunyoviy manbalar tarkibini umumiy xulosa sifatida tahlil etaylik:

Umumjahon miqyosida e'tirof etilgan hujjatlar: 1789 yilgi Fransiyada qabul etilgan " Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi"da barcha odamlarning erkinliga va huquqiy tengligi, ulargao'zgalarning dahl etmasligi e'tirof etilganligi bilan tarixiy ahamiyatga egadir. Deklaratsiyada ijtimoiy shartnoma ruhida har bir davlat ittifoqining maqsadi insonning tabiiy va ajralmas huquqlarini ta'minlashdan iborat ekanligiga ta'kidlangan.

XX asrning yangi tarixiy sharoitida inson huquqlari va erkinliklari, ularga birovning sababsiz dahl etmasligi masalasida insonparvarlik muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlik rivojlandi va mustahkamlandi, Inson xuquklari umumjahn deklaratsiyasi (1948), Inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida Yevropa konvensiyasi (1950), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga fakultativ protokol (1966), Xelsinki Kengashiing Yakunlovchi hujjati (1975), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Kengashi

⁷⁰ Yusupov O. tahriri ostida, Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuzta savolga- yuzta javob)-T.:Toshkent Islom Universiteti", 2007, 53-bet.

⁷¹ O'sha joyda, 53 bet.

qatnashchilari bo'lgan davlatlar Vena uchrashuvining yakunlovchi hujjati (1989) va boshq'alar hujjatlar jamiyat va insonlar tinchligiga xavf soluvchi kuchlarga qarshi kurashish uchun nazariy – qonuniy asoslar sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, hamda boshqa davlatimiz miqyosida diniy ekstremizm va boshqa davlatimiz tinchligiga rahna soluvchi kuchlar, nazariyalarga qarshi qabul qilingan rasmiy hujjatlar, qarorlar, farmoyishlar asosiy manbalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning bir qator asarlari masalan, “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li”, “ O'zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi”, “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”, “Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston” va h.k. nazariy- metodologik asos bo'ladi.

II.BOB. Ma'furaviy immunitet - diniy ekstremizmga qarshi kurashning muhim omili

2.1.Oila va oilaviy munosabatlarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish diniy ekstremizmga qarshi kurashning ma'naviy asosi sifatida

“Hech kimga sir emaski, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa yoshlarning ma'naviy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan turli xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotgan bugungi o'ta notinch zamonda o'zining kimligini, qanday buyuk zotlarning avlodi, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi”⁷². Barcha tahdidlarga qarshi kurashishning vosita, omil va usullari ishlab chiqilgan. Bularga huquqiy, siyosiy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy sohalaridagi faoliyatlarni kiritish mumkin. “O'zbek modeli” ga asosan aholining barcha qatlamlarini turli ijtimoiy himoyalash choralari, jumladan yosh oilalarga so'nggi vaqtlarda tashkil etilgan iqtisodiy yordamlarni alohida aytish joiz. Buning asosini “Islohot- islohot uchun emas, avvalo inson uchun” tamoyili dasturulamal bo'ldi.

Bundan tashqari 2012 yil dekabr oyida “Obod turmush yili” davlat dasturi, 2014 yil “Sog'lom bola yili” davlat dasturi ishlab chiqildi. Bu dasturlarda oila-mahalla-maktab tizimida turli ishlar belgilandi. Bulargamamlakatda fuqarolar o'rtasida tinch-totuvlikni saqlash, barqaror va xavfsizlikni ta'minlash choralari, aholining iqtisodiy farovonligini oshirish choralari, aholini salomatligini muhofaza qilish choralari, jismoniy va ma'naviy sog'lom avlodni voyaga yetkazish va bunda oilalarning o'rniga alohida e'tibor berish, xalqni turmush darajasini oshirish, turli suv, elektr, gaz, uy-joy bilan ta'minlanishini yaxshilash choralari, o'z-o'zini boshqarish institutlari i shlarini

⁷²Amalga oshirayotgan islohatlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish- yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma / U.G'ofurov va boshqalar.-T.: “O'qituvchi” NMIU, 2014,-10 bet.

yaxshilashga ko'maklashish, oilalarni mustahkamlash, ayollar va bolalar muhofazasiga e'tibor qaratish, mahalliy ishlab chiqarishni keng targ'ib qilish, sog'lom oilada sog'lom bolalar tarbiyalanadilar. Zero : “ Biz sog'lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham sog'lom bolani o'zimizga tasavvur etamiz”⁷³

Prezidentimiz o'z asarlarida, jumladan, “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va tarraqiyot kafolatlari” kitobidan BMT ning 48 va 50 sessiyasida so'zlagan nutqlarida tinchlik borasidagi siyosatni batafsil bayon qilib bergan. Odamlar bir-birlari bilan uchrashganlarida avvalambor “Assalomu alaykum” deyishadi. Ushbu so'z arabchadan olingan “Tinchlik” so'zi Qur'oni Karimda 40 marta uchraydi. Tinchlik inson uchun havo va suvdek zarur. Tinchlik insoniyat uchun eng qadriyat va buyuk ne'matdir.

Tinchlik hukmdorlik qilgan jamiyat barqaror rivojlanadi, oilalar tinch, odamlar baxtiyor yashaydilar.

Shunday ekan, tinchligimiz rahna solayotgan, jamiyatimiz beqaror qilishga urinayotgan har qanday oqimlarga qarshi kurash masalasi ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hayotimizda yechimini kutayotgan hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Mamlakatimizga XX asrning 80-yillarida diniy ekstremistlar o'zlarini dinning himoyachisi, dindosh, va xalq'imizga do'st deb kirib kela boshladilar, ular mahallarda, masjidlarda islom dinining sofliqi uchun kurashga da'vat qildilar. Maqsadi dushmanlik bo'lgan bunday kishilar o'zlarining chiroyli da'vatlari bilan ba'zi bir hayotiy tajribasi, ko'nikma va malakasi yetarli bo'lmagan, ochiq ko'ngilli yoshlarimizning ishonchiga kirib oldilar, ularni o'zlariga ergashtirishga urindilar, qaysidir ma'noda bunga qisman bo'lsada erishdilar. Afsuski ularnitng bunday qabih niyatlarini ota-onalar va yoshlar o'z vaqtida sezmadilar.

⁷³ Amalga oshirayotgan islohatlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish- yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma / U.G'ofurov va boshqalar.-T.: “O'qituvchi” NMIU, 2014,-74 bet.

Bunday razil kimsalar ma'lum yoshlarimizni dinning asl mohiyatini bilmasliklaridan, g'o'r bo'lganliklaridan, o'tish davridagi turli muammolarni ro'kach qilib, hali mukammal shakllanmagan dunyoqarashlarini jaholat bilan zaharlashga va jinoyat botqog'iga botirishga ulgurдилar ham.

Diniy ekstremistik harakatlar O'zbekistonga aslida qachondan boshlab kirib kela boshladilar degan haqli savol tug'iladi:

Aslida maqsadlari yovuzlikdan iborat bo'lgan diniy ekstremistlar va diniy aqidaparastlar xorijiy davlatlarda o'zlarining faoliyatlarini keng tarmoqda olib borgan bo'lsalarda, hozirgi MDH davlatlari hududlariga kirib kelishlari XX asrning oxirlariga borib taqaladi. Bunda sobiq Sho'ro davlatining parchalinishi, boshqa mustaqillikka erishgan yosh davlatlar qatori O'zbekistonda o'tish davrining vujudga kelganligi ularga juda katta qulaylik yaratib bergan. Bunda biz eski kommunizm dogmasiga asoslangan mafkurani rad etib, butunlay yangi erkin fikrlarni va har tomonlama demokratik munosabatlarni yoqlab chiq'uvchi mafkurani qabul qilishimiz, demak eskini o'rniga yangini qabul qilishga harakat etganimizdir. Inson ongi eskicha dunyoqarashni birdan rad eta olmaydi va yangi dunyoqarashni birdan qabul eta olmaydi. Bu juda murakkab jarayon. Chunki barcha bo'layotgan jarayonlarni to'laligicha asl mohiyatini anglash uchun insonda bilim va malakani yetarli bo'lishi, dunyoqarashi keng shakllangan bo'lishi zarur. Afsus hammaning dunyoqarashi darajasi bir xil bo'lmaydi. Buning obyektiv va subyektiv sabablari ko'pdir. Eskining inkor etilishi va yangining qabul qilinishi uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Ana shu vaqt davomida inson ongida, aniqroq qilib aytganda ko'proq yoshlar ongida g'oyaviy bo'shliq bo'ladi. Turli zararli oqimlar mana shu bo'shliqni yot g'oyalar bilan to'ldirishga harakat qiladilar. O'zbekistonga kirib kelgan yot va manfur mafkuralar ham ana shunday maqsadni oldilargiga qo'yganlar.

Inson yer yuzidagi tartib va osoyishtalikka mas'ul shaxsdir. Shunday ekan, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash odamzodning birinchi galdagi vazifasidir. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda ma'naviy va mafkuraviy tarbiyaning roli juda kattadir. Ular quyidagilardan iborat;

- Ma'naviy tarbiya sistemasi: - ma'naviy sog'lom muhit yaratish;
- odamlar, xususan, yoshlarning diniy va dunyoviy bilimlarini oshirish;
 - milliy qadriyatlarni tiklash, tariximizni xolis va chuqur o'rganish, ajdodlarimiz xotirasini yod etish;

Milliy qadriyatlarning asosini komil insnni tarbiyalash muammosi asosiy o'rinda turadi. Jumladan: Islom dinida falsafiy tafakkur va hurfikrlilikka keng yo'l ochib bergan tasavvufning irfon falsafasi o'rta asrlarda diniy-mazhabiy mutaassiblik va jaholatga qarshi kurashda shakllangan dunyoqarash sifatida bugungi kunda ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Insonparvarlik, hurfikrlilik va diniy bag'rikenglik g'oyalarga asoslangan bu qudratli ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarash, ayniqsa, xozirgi islom olamida katta siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar yuz berayotgan bir davrda vujudga kelayotgan aqidaviy muammolarni ijobiy hal etish, diniy fundamentalizm va ekstremizmning zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy kurash olib borish va nihoyat, islom dinining asl mohiyati ma'rifat ekanligini ilmiy nuqtai nazardan ko'rsatib berish masalasida ham ilmiy-nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchi tomondan, tasavvuf ko'p hollarda shariat arkoniga suyanagan bulsa-da, u diniy akidaparastlik va mutaassiblik (fanatizm)ga ziddir. Shuning uchun ham bu ta'limot hozirgacha dunyodagi turli xalkdar ijtimoiy, falsafiy, badiiy tafakkurida keng o'rin egallagan va chuqur ildiz otgay. Shu bois hozirgi murakkab sharoitda turli g'oyaviy oqimlar, siyosiy yo'nalishlar urtasidagi kurashda Prezident I.A.Karimovning: "g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin..."⁷⁴,—degan ko'rsatmasidan kelib chiqqan holda, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining irfoniy va axloqiy qarashlarida insonparvarlik, diniy bag'rikenglik, ado-latparvarlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan g'oyalarning diniy

⁷⁴ Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqacha izohli tajribaviy lug'at) – Toshkent.:“Yangi asr avlodi”, 2002 y-37 bet.

adovat va mazxablararo nizolarga qarshi kurashdagi ahamiyatini falsafiy tahlil qilish ma'lum ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Mutasavviflar — Xoja Abdulholiq G'ijduvoni (1103-1179), Xoja Ahmad Yassaviy, Aziziddin Nasafiy (XIII—XIV asrlar, tug'ilgan va vafot etgan yili aniq, ma'lum emas), Najmiddin Kubro (1145-1221), Xoja Baxouddin Naqshband (1318-1389), Abduraxmon Jomiy (1414— 1492)larning diniy mutaassiblik, mazxablararo adovat va nizolarni ma'naviy jixatdan inkor qiluvchi g'oyalarining tahlili asosida dalillashga harakat qilamiz.

Hozirgi davrda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda Markaziy Osiyo mutasavviflari ma'naviy merosining goyaviy va mafkuraviy ahamiyati xakida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- tasavvuf namoyondalari o'zlarining diniy bag'rikenglik, mazhablararo murosasozlik, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi halqlar o'zaro hurmat-ehtirom g'oyalari bilan bir necha asrlar davomida xalqimizni insonparvarlik, tinchliksevarlik, hamkorlik, hamjihatlik ruxda tarbiyalashga xizmat qildilar;

- oila, maktab, mahalla hamkorligini ta'minlash va ularning tarbiyaviy rolini oshirish;

- ijtimoiy va siyosiy institutlar faoliyatini kengaytirish.

Mafkuraviy tarbiya sistemasi:

- jamiyatda mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik;

- Vatanparvarlik, xalqparvarlik va millatparvarlik g'oyalarini omma ongiga singdirish; Vatanparvarlik tamoyili Islom dinida alohida tahlil etiladi. Sababi, bu tamoyil axloqiy nuqtai nazardan olinganda, ijobiy bo'lib har bir kamolot sari intiluvchi shaxs uchun alohida ahamiyatga egadir. Ammo islom dini ekstremistik oqimlari buni boshqacha tasniflaydilar. Masalan, ular Islomiy geografik bo'linishni tan olmaydilar. Shuning uchun ham o'z harakatlarida asl maqsad etib Islomiy davlatni (Xalifalikni) barpo etishni belgilaydilar. Ular nazarida Vatan uchun kurashish makon, demak, moddiylik uchun kurashish bilan tenglashtiriladi. Ammo qizig'i Islomiy xalifalikni tuzishni, uning dahlsizligiga erishishni talab etadilar. Aniqroq aytganda ular o'z g'oyalarini o'zlari inkor etadilar. Keling

Vatanparvarlik tamoyilini mufassal tahlil etaylik. Islomiy ta'limotlarda Vatan – ona yurt deb e'tirof etiladi. Bunda keng va tor ma'noda ishlatish kerakligi uqtiriladi. Keng ma'noda Vatan inson yashab turgan makon, tor ma'noda, bir insonning oilasi, yashash makoni, mahallasi, diyori tushuniladi. Muqaddas manba "Qur'on" da bir insonni o'z vatanidan badarg'a qilish, quvib yuborish og'ir gunoh ekanligi aytiladi (Baqara 84-oyat).

Bundan tashqari hazrati Imom Buxoriyning "al-Jomi', as-Sahih" to'plamida Vatanni qo'msash, uni sevish haq'ida keltirilgan bir hadisda shunday deyiladi: "Oisha onamiz raziyallohu anho rivoyat qiladilar: "Rasulliloh sallallohu alayhi vasallam Madinaga kelganlarida Abu Bakr bilan Bilol isitmalab qolishdi. Men ularning huzuriga kirib:"Ey, padari buzrukvor(ya'ni Abu Bakr), ey, Bilol, o'zingizni nechuk his etmoqdasizlar?"",-deb so'radim. Abu Bakr isitma zo'riqqanda:

"Uyimda bo'lsaydim jon chiqar mahal,

Poyabzal ipidan yaqindir ajal",- der edi. Demak, Vatanparvarlik tamoyilini yoshlar ongida shakllantirish, kengroq mohiyatini anglatish zarurat ekan.

- odamlar ongiga istiqloq mafkurasini singdirish, milliy g'oya tamoyillarini tushuntirish;

- demokratik munosabatlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish:

- istiq'lol qadriga yetish, mute'likdan jirkanish va unga qarshi qobiliyatni har bir inson qalbida shakllantirish va rivojlantirish.

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda g'oyaviy tarbiya fuqarolik mas'uliyati, iymon, e'tiqod, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy muhit, sog'lom g'oya, siyosiy ong va huquqiy madaniyat, an'anaviy, yangicha ilg'or fikrlar, oilaviy tarbiya, muassasalarining yetakchilik, tarbiyachilik rolini oshirib borish talab etiladi, shundagina odamlarimiz terrorizm tuzog'iga tushib qolmaydi, yo'lidan adashmaydi.

Jamiyatni rivojlantirishdan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik kabi muhim g'oyalarini qaror toptirishdan

iboratdir. Buning uchun diniy ekstremizm va diniy aqidaparastlikka qarshi kurashish kerak. Bunda turli usullardan oqilona va o'rinli foydalanish zarur. Ana shu usullarni ikki guruhga ajratib olamiz: 1.Ma'naviy. 2.Ma'rifiy.

Aslida ikki usullar ham bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini taqozo etadi va to'ldiradi.

1.Ma'naviy usullarga:

Ma'naviy sog'lom muhit yaratishda tashviqot va targ'ibot usulidan foydalanish. Tashviqot va targ'iot usuli ham o'z holicha ma'lum shakllarga ajratiladi:

Ma'lum o'quv seminar-treninglar, davra suhbatlari tashkil etish.

Ommaviy axborot vositalari yordamida (Ilmiy-ommabop, hujjatli kinofilmlar, badiiy kinofilmlar, multfilmlar,teatr, musiqa, qo'shiq' va boshqa san'at tur va janrlari yordamida ko'rgazmali) tashviqotlar olib borish.

Milliy qadriyatlarni tiklash, tariximizni xolis va chuqur o'rganish, ajdodlarimiz xotirasini yod etish;

Milliy qadriyatlardan- marosimlar, an'analar, urf-odatlar, axloqiy-madaniy munosabat me'yorlari. Bunga, milliy bayramimiz Navro'zni nishonlashda- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik kabi muhim g'oyalarni targ'ib etadigan marosimlar, an'analar, urf-odatlarning o'rganilishi, qo'llanilishi va vorisiyligini ta'minlash yot g'oyalarga qarshi kurashda qo'l keladi.

Milliy merosimizni holis va to'g'ri o'rganish. Bunda axloqiy tamoyillar uchun zahmat chekkan ajdodlarimiz nomlarini doimo yodda tutishimiz, ularning ta'limotlarini to'g'ri va mukammal o'rganishimiz kerak.

Barcha ma'naviy usullar bevosita ma'rifiy usullar yordamida olib boriladi, shunda ma'lum natijalarga erishish mumkin.

2. Ma'rifiy usullarga:

Ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyat kiradi. Shundan ta'lim sohasi quyidagi bosqichlarga bo'linadi va o'ziga xos ma'rifiy usullar qo'llaniladi:

Oilada, mahallada, davlat va jamiyatda pand va nasihat, ibrat usullaridan foydalaniladi. Bunda tushuntirishda qisman ilmiy asoslar bo'ladi, ko'proq hayotiy misollar keltiriladi.

Maktab, o'rta-maxsus va oliy ta'lim sohasidagi qo'llaniladigan usullar. Bular ilmiy bilimlar, turli ta'limotlardan iborat bo'lib, ularni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshirish mumkin. Bunda o'quvchi va talabalar erkin mushohada yuritishlari, har bir masalaga ijodkorona yondashuvlar zarur.

Barcha ma'rifiy usullarni qo'llayotganda yoshlarga rag'bat berish, ilhomlantirish asosiy o'rin tutadi. Yoshlar biror xato fikrlarni aytganlarida, shoshilmasdan ularning mulohazalarini to'g'rilash, ularga har qanday holatda jaholatga qarshi ma'rifat bilan, g'oyaga qarshi g'oya bilan javob berishga harakat qilmoq lozim.

Pedagogikaning an'anaviy va zamonaviy innovatsion usullaridan ham ratsional foydalanish juda zarur, noto'g'ri qo'llash aks natijani berishi mumkin.

Oila – maktab - mahalla hamkorligini ta'minlash va ularning tizimli aloqalaridan foydalanish, yaxshi samara beradigan usuldir.

Ijtimoiy va siyosiy institutlar faoliyatini kengaytirish, ularning harakatlarida davlat tinchligiga xavf tug'diruvchi yot kuchlarga qarshi doimo kurashib borish rejasini dasturlariga albatta kiritish kerak. Zero, barcha diniy ekstremizm va aqidaparastlik kuchlarining asosiy maqsadlari siyosiy institutlar faoliyatlari bilan bog'liq. Ular asosan davlatni egallash maqsadini qo'yadilar.

O'zbekiston davlatining kelajagi va tinch-osuda hayoti haqida mulohaza yuritar ekanmiz, prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbek modeli" ga asoslanishimiz, unda ta'kidlangan bosh g'oyalar biz uchun nazariy asos bo'lmog'i zarur. "O'zbek modeli" dan kelib chiqib, O'zbekiston taraqqiyoti nimalardan oziqlanadi?

1. Avvalo dunyoda rivojlangan davlatlarning erishgan yutuqlaridan.
2. Milliy qadriyatlardan.

Modeldan ko'zlangan asosiy maqsad kelajakda vatan ravnaqi uchun:

1. Erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash.
2. Vatanparvarlik tamoyilini shakllantirish.

Zero, faqat Vatanparvar shaxslargina yot kimsalarning manfur g'oyalariga qarshi qaqshatqich zarba bera oladilar. Erkin shaxslargina har qanday yovuz g'oyalarga qarshi ezgu g'oyalarni, jaholatga qarshi ma'rifatni qo'rq'may, xalq'ining g'ururi, millatining nomusi, yurt tinchligi uchun hur fikrlarini dadil ayta oladilar va sadoqatli bo'ladilar. Diniy ekstremizmga qarshi kurashishda milliy g'oyani, milliy mafkurani, axloqiy tamoyillarni, diniy bag'rikenglik, Vatanparvarlik, xalq farovonligi, yurt tinchligini asrash, boyitish, ajdodlarga vorisiylik bilan xolisona yetkazish har birimizning burchimizdir. Bundan san'at va sport, ulardagi turli nazariy va amaliy usullar ham yordam beradi. San'at va sport hammani birlashtira oladi. Xalqni, millatni bir ezgu g'oya oldida birlashtiradi.

2.2. Dunyo dinlar tarixi fanida ” Diniy aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurash ” mavzusini o’qitish ta’lim texnologiyasi

Mavzu	Diniy aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurash
--------------	---

1.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

<i>O’quvchilar soni: 20-25</i>	<i>O’quv soati: 45 daqiqa</i>
<i>Mashg’ulot shakli</i>	Slaydlardan foydalangan holda mavzu bo’yicha vizuallashtirilgan ma’ruza
<i>Ma’ruza rejasi</i>	1.Diniy aqidaparastlik va ekstremizmning mohiyati va namoyon bo’lishi. 2.Diniy ekstremizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. 3.”Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili diniy ekstremizmga qarshi kurashning usuli sifatida .
<i>O’quv mashg’ulotining maqsadi:</i> Diniy aqidaparastlik va ekstremizm haqida umumiy, ob’yektiv tasavvurni shakllantirish, jamiyat taraqqiyotiga xavfini va ularga qarshi kurash zaruriyatini tushuntirish, diniy qadriyatlar mohiyatini ochib berish .Mafkuraviy immunitetni qaror topdirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O’quv faoliyati natijalari:</i>
Diniy aqidaparastlik va ekstremizmning vujudga kelishi va jamiyat taraqqiyotidagi xavfini yoritib beradi.	Diniy aqidaparastlik va ekstremizmning vujudga kelishi sabablari, jamiyatda namoyon bo’lishi va ularning jamiyat taraqqiyotidagi xavfini aytib beradi.
Diniy ekstremizmga qarshi kurashda dinning roli haqida ma’lumotlar beradi.	Diniy ekstremizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari va diniy qadriyatlarning o’rni roli haqida tushuntiradi.
Diniy ekstremizmga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslari haqida ma’lumotlar yetkaziladi.	Diniy ekstremizmga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslari haqida bilimga ega bo’ladi.
O’zbekistonda diniy ekstremizmga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarning mazmunini yoritib beradi.Mafkuraviy immunitetni	”Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili va diniy bag’rikenglik g’oyalari bilan mafkuraviy immunitetni shakllantirish zaruratlarini anglaydi.

barqarorlashtirish masalasi yoritiladi.	
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza, «aqliy hujum», «Kuchlar taxlili», “Nima uchun?” organayzerlari, tezkor savollar, BBB jadvali, bahs-munozara.
<i>O'qitish vositalari</i>	Kompyuter, videoprojektor, slaydlar, sxemalar, tarqatma materiallar.
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish nazorati</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullari qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik haritasi

	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10daqqa)	1.1.O'quv mashg'ulotining mavzusini, rejasini, maqsadini, o'tkazish tartibini tanishtiradi	Yozib oladi
	1.2.Mavzu yuzasidan blits-so'rov usulidan ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi. So'rov natijasiga ko'ra, o'quvchilar nimalarni bilishi, nimalarda xatolarga yo'l qo'yishi mumkinligini aniqlaydi (4-ilova)	Tarqatma materiallardan foydalanib, jadvalni to'ldiradilar O'UM ga qaraydilar
	1.3.Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va ma'ruza rejasiga izoh beradi. Adabiyotlar bilan tanishtiriladi.(1,2,3 ilova)	O'UM ga qaraydilar, yozadilar.
II-bosqich. Asosiy bo'lim (35daqqa)	2.1.O'quvchilarning fikrini umumlashtirib, o'quv mashg'ulotning rejalari bo'yicha ma'ruza qiladi. Rejalarni yoritish jarayonida slaydlardan foydalanadi.(5-6-7-12-13-14-15-16-ilova).	Yozadilar, tinglaydilar
	2.2. O'quvchilarni mulohazaga tortish maqsadida ularga savollar beradi: 1. Islomda qanday radikal oqim va guruhlar mavjud? 2. Diniy ekstremizm ilk bor qaysi din doirasida paydo bo'ldi? O'quvchilar fikrini umumlashtirib,	Yozadilar, tinglaydilar, erkin o'z fikrlarini bildiradilar.

	ehtiyoj sezilsa aniqlik kiritadi.	
	2.3. Diniy aqidaparastlik va diniy ekstremizmni keltirib chiqaruvchi sabablarni manbalardan foydalangan holda tushuntirib beradi.	Tinglaydilar.
	2.4. Diniy aqidaparastlik va diniy ekstremizmga qarshi kurashda dinning rolini hadislar, “Qur’on”dan keltirilgan suralar orqali tushuntirib, umumlashtiradi.	Tinglaydilar. Yozib oladilar.
	2.5.Diniy ekstremizmga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarga alohida to’xtalib o’tadi. Slaydlardan foydalaniladi.	Yozadilar
	2.6. O’quvchilarni ma’ruza mashg’ulotda faollashtirish maqsadida ularga «Diniy ekstremizm deganda nimani tushunasiz? » deb, «Aqliy hujum» usulidan foydalangan holda savol bilan murojat qiladi (8-ilova).	O’quvchilar sxemani to’ldiradilar
	2.7.Ma’ruzadan olgan ma’lumotlarini mustahkamlash maqsadida “Kuchlar taxlili”, “BBB” jadvallarini va “Nima uchun”organayzerini to’ldirish so’raladi.(9-Ilova)	O’quvchilar bahs-munozaraga kirishadilar.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Mavzu maqsadiga erishishdagi o’quvchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydilar
	3.2. Mustaqil tayyorgarlik ko’rish uchun topshiriqlar beradi.	O’zini qiziqtirgan savollarni beradi.
	3.3.Faol o’quvchilar rag’batlantiriladi	Tinglaydilar

1-Ilova

Mavzu: Diniy ekstremizmga qarshi kurashishning ma’naviy-ma’rifiy asoslari va usullari

Reja:

- 1.Diniy ekstremizmning mohiyati va namoyon bo’lishi.
- 2.Diniy ekstremizmga qarshi kurashda diniy qadriyatlarning roli.
- 4.Diniy ekstremizmga qarshi kurashning huquqiy asoslari.
- 5.”Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili diniy ekstremizmga qarshi kurashning usuli sifatida.

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar

Diniy ekstremizm, vayronkor g'oyalar, Hizbut tahrir, Vahhobiylar, "Al-qoida", Akromiylar, Diniy ekstremizmga qarshi kurashning huquqiy asoslari, diniy qadriyatlar, diniy bag'rikenglik, mafkuraviy immunitet, "jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili, yot g'oyalarga qarshi kurash

Mavzu yuzasidan foydalaniladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent.: O'zbekiston.2008- 40b
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barq'arorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.:O'zbekiston,1997y.-326b
3. Karimov I.A.,Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008y.-176 bet.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.- Toshkent.: O'zbekiston.2012 y.-440 bet.
5. Karimov I.A. Qadr-qimmatim, tayanchim va iftihorimsan, mustaqil O'zbekiston! –Toshkent.: Ma'naviyat. 2013 y.124 bet.
6. Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi.- T.:Akademiya, 2000, 204-bet.
7. Zakrullayev A., G'oyalar kurashi. Movaraunnaxr, T., 2000, 123-bet.
8. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi kurash muammolari.-T.: "O'zbekiston",2003 y.160 bet
9. Husniddinov Z. Diniy ekstremizm va tarrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari, Toshkent.:Toshkent Islom Universiteti nashriyoti, 2005,-3 bet

Blits-so'rov

№	Savollar	Javoblar
1.	Diniy aqidaparastlik va diniy ekstremizm deganda nimani tushunasiz?	
2.	Islomda qanday diniy ekstremistik harakatlar mavjud?	
3.	Diniy ekstremistik guruhlarining maqsadlari nimalardan iborat?	
4.	O'zbekistonda qanday diniy ekstremistik guruhlar faoliyat olib borganlar?	
5.	Islom dini qadriyatlari manbalarini sanab bering	
6.	Hizbut-tahrir va Vahobiylarning qanday jinoiy harakatlarini bilasiz?	

Diniy ekstremizm

Dindan siyosiy niqob sifatida foydalanib hokimiyatga intilish kuchayganligini ko'ramiz. Shu sababli ilmiy tilda diniy ekstremizm so'zi tez-tez ko'zga tashlanmoqda.

Diniy ekstremizm – ekstremizmning din niqobida namoyon bo'lish shakli bo'lib, u mavjud muammolarni hal qilishda o'ta keskin chora-tadbirlarni, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotni anglatadi. Diniy ekstremizm namoyon bo'lishiga ko'ra hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Bunday qarashlar juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, millat va hududni tan olmagan. Diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan.

“Hizbut-tahrir” chilar

"Demokratiya kufr nizomi, buni hayotga tatbiq qilib bo'lmaydi, xalifalikni tiklash bilan haqiqiy islomiy hayotni qaytarish mumkin",- deb da'vo qiladi.

Vahhobiylar

Dinni Payg'ambarimiz (s.a.v.) davridagi "asl holati"ga keltirish lozim, degan niqob ostida harakat qilib, shu yo'lda kurash olib boradilar. Vahhobiylikka Muhammad ibn Abdulvahhob (1703-1792) tomonidan asos solingan. U ulug' sahobalar qabriga qo'yilgan sag'ana toshlarni buzishni, qabrlarni ziyorat qilmaslikni, avliyolarga nazr qilmaslikni, tamaki chekmaslik, qahva ichmaslik, rasm chizmaslikni targ'ib qildi. U o'z da'vatlarini yoyishda ko'proq qilichga tayanar edi va Ibn Saud boshchiligida Saudiya Arabistonini birlashtirishga katta hissa qo'shdi.

1-o'quv topshiriq **Sxemani to'ldiring**

8-Ilova



2-o'quv topshiriq **Kuchlar taxlili (jadvalni to'ldiring)**

9-ilova

Tizimli mushohada yuritish, taqqoslash, solishtirish, taxlil va sintezni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xavf solayotgan omillar	Qarshi kurash asoslari va usullari
1. 2. 3.	1. 2. 3.

3-o'quv topshiriq **BBB jadvalini to'ldirish uchun tavsiyalar**

10-ilova


- 1.Tayanch ibora va tushunchalar bilan tanishib chiqing.
- 2.BBB jadvalini to'ldirish uchun tayanch ibora va tushunchalarning tartib raqamidan foydalaning.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1	2	3

4-o'quv topshiriq

«Nima uchun?» organayzeri

11-ilova



Mavzu bo'yicha slaydlar:

12-ilova



Diniy ekstremizm – ekstremizmning din niqobida namoyon bo'lish shakli. Ekstremizm muammolarni hal etishda o'ta keskin chora- tadbirlarni, fikr- qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotni anglatadi. Diniy ekstremizm ana shu tamoyillarga asoslanadi. Bu tushuncha XX asr ilmiy atamalarida qo'llanila boshlangan. Ekstremizm tushunchasi lotincha extremus –“O'ta” so'zidan olingan bo'lib, ijtimoiy-siyosiy harakterdagi muammolarni hal etishda o'ta keskin chora-tadbirlar, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyot.

Diniy ekstremizmning yuzaga
kelish tarixi

1-bosq'ich. XIII asrda Suriyada Taqiyuddin ibn Taymiya islom diniy ekstremizmining birinchi nazariyotchisiga aylanadi. U o'zga din vakillariga qarshi keskin kurashga chorlaydi. Shunga asosan uni "Islom ekstremizmi" bobokoloni deb ataydilar

2-bosq'ich. Hasan al-Bannoni (1906 – 1949) birinchi marta "Islom davlati" g'oyasini ishlab chiqadi. Misrda 1928 yilda "Al-Ixvon al-muslimin" (Musulmon birodarlari) harakati tashkil topdi. Shundan so'ng u islom diniy ekstremizmning ramziy otasi deb

3-bosq'ich. "Musulmon birodarlar" harakatining yetakchisi Sayyid Qutb (1906-1965) hozirgi zamon islom diniy ekstremizmning rahnomalaridan. Sayyid Qutb o'zga din vakillariga qarshi kurashib, o'ta vahshiylarcha davlatni zo'rovonlik bilan egallashga da'vat etgan. (g'oyasining asosini aqidaparastlik tashkil etadi. 1965 yil Misrda osib o'ldirilgan.

4-bosq'ich. Afg'onistonda Abdul Alo Mavdudiy (1981 yil o'lgan) so'l islom diniy ekstremizmini davaom ettirgan. Keyinchalik: Mian Tofail Muhammad, G'afur Ahmad Mavlono Faruq'iy (Mavdudiyning o'g'li) davom ettirganlar. Xristianlarda: "Yahvechilar", "Pyatidesyatniklar", "Tashabbuskor baptistlar" diniy ekstremistlardir

Hozirda islom diniy ekstremistlari terrorchilik va boshqa turli vahshiyona usullardan foydalangan holda Misr, Eron, Turkiya, Rossiya, Afg'oniston, Jazoir va hokazo ko'plab dunyoviy va diniy davlatlarda keng, ammo yashirin ravishda faoliyat olib boradilar. Butun dunyo tinchlikparvar davlatlari ularga qarshi qaratilgan ma'naviy-huquqiy-ma'rifiy tadbirlar olib bormoqdalar.

Diniy ekstremistlarning jamiyat tinch-osoyishta xayotiga solgan tahdidlari. Hozirda 500 dan ortiq' diniy ekstremistik guruhlar faoliyat olib bormoqda.

1968-1980 yillar oralig'ida
6700 ta ekstremistik harakat sodir etilgan
3368 kishi vafot etdi, 7474 kishi
jarohatlanadi

1980-85 yillar oraligida 500-800 tagacha
1990-yil arafasida esa 900 va undan oshikrok
ekstremistik akt yuz bergan

1995 yil Yaponiyada tarq'algan "AUM
Senrika" degan radikal diniy oqim vakillari
o'z qo'poruvchiliklari b-n tinchlikka rahna
solgan.

1995 yil 13-14 iyun kunlari Stavropol
o'lkasining Budyonovsk shahrida chechen
jangarilari tomonidan amalga oshirilgan diniy
ekstremistik harakati.

1996 yil 25 iyunda Saudiya Arabistonidagi
Doxranda amerikaliklar yashaydigan uy-joy
markazi portlatildi va 300 kishi halok bo'lgan.

1991 yil 9 dekabr kunida Namangan shahrida
sodir etgan qo'poruvchilik.

1997, 1999, 2005, 2010 yil O'zbekistonda
sodir etilgan qo'poruvchiliklar.
2001 yil 11-sentyabrda AQSH da sodir
etilgan qo'poruvchiliklar 3000 odam
havotiga zomin bo'ldi.

1998 yil 5 oktyabrda Aden bandargohidagi
Amerika harbiy kemasi portlatilgan 17
dengizchi halok bo'lgan va 30 tasi yaralangan.

1998 yil 7 avgustda Tanzaniya poytaxti Dor us-
Salomda Amerika elchixonasida turgan
mashina portlatilgan, oqibatda 90 kishi halok
bo'lgan va 100 dan ortiq kishi yaralangan.

1998 yil 7 avgustda Keniyaning Nayrobi
shahridagi Amerika elchixonasida turgan yuk
mashinasi portlatildi, 230 kishi halok bo'ldi va
500 kishi yaralandi

Diniy ekstremizmga qarshi kurash harakatlari
aks etgan BMT va xalqaro hujjatlar

15-ilova.

BMT Bosh
Assambleyasida 1972 yilda
boshlab xalqaro terrorchilikning
oldini olish bo'yicha qator
muhim rezolyutsiyalar ishlab
chiqilgan. Masalan 1972 yil 18
dekabr kundagi 3034-
rezolyutsiya

1977 yil 2 iyuldan e'tiboran
Misr Arab Respublikasida
barcha diniy-siyosiy partiyalar
faoliyati taqiqlangan

1997 yil "6+2" muloqot
guruhining Toshkent
Dekloratsiyasi.
Keyinchalik "6+3" muloqot
guruhining hujjatlari

1980 yil 7 iyulda Suriya Arab
Respublikasida "Musulmon
birodarlar" partiyasi a'zolarini
qatl etish to'g'risida" qonun
qabul qilingan

2001 yil BMT ning 1373-
sonli rezolyutsiyadir har bir a'zo
davlat diniy ekstremizmga qarshi
kurashishga va rezolyutsiyaga
amal qilish majburiyatini olgan.

1981 yil Tunisda "Mamlakatda
islom aqidaparastligi g'oyalarini
targ'ib etmaslik hamda maktab va
jamoat joylarida diniy liboslarni
kiyib yurmaslik to'g'risida"gi
qonun qabul qilingan

Prezidentimiz Islom Karimovning “G’oyaga qarshi g’oya, fikrga qarshi fikr va jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili.

Yovuz g’oyalarga qarshi ezgu g’oyalarni oila-mahalla-maktab tizimida ma’naviy-ma’rifiy yo’llar bilan singdirib borish

Vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, sadoqat, iymon, fidoiylik va hakoza ezgu g’oyalar bilan yoshlarni tarbiyalab borish.

“Madaniyat va ma’rifat” markazi, Milliy madaniyat markazlari, Mahalla qo’mitalari, har bir oila, ta’lim tizimi, sport, san’at milliy qadriyatlar asosida rivojlangan davlatlarning ma’rifiy yutuq’laridan samarali foydalanib zamonaviy innovatsion texnologiyalar yordamida ma’rifiy ishlarni olib borishlari zarur

“O’zbek modeli”ga asoslanib yoshlarimizning mafkuraviy immunitetini tizimli oila-mahalla-maktab tizimida mustahkamlab borish kerak. Milliy o’zlikni anglatish va barqaror bo’lishligiga erishish.

Diniy bilimlarni asl mohiyatini obyektiv tarzda o’rgatish. Buzg’unchi va vayronkor g’oyalarning har qanday shakllariga qarshi tizimli kurashish. Ularning asl mazmunini to’g’ri tushuntirish.

1. Diniy aqidaparastlik yuzaga kelishini bayon eting.
2. Diniy ekstremizm mohiyatini ayting
3. Diniy ekstremistik harakatlar qachon yuzaga kelgan?
4. Diniy ekstremistik harakatlar olib boradigan guruhlariga misol keltiring
5. Diniy ekstremistik guruhlar moddiy yordam oladigan manbalarni sanang
6. Diniy ekstremistik harakatlarning jamiyatga keltirgan zararlariga misollar keltiring
7. Diniy ekstremistik kuchlarga qarshi kurashish manbalarini sanang
8. Diniy ekstremistik harakatlarga qarshi kurashish usullarini ayting
9. Diniy va milliy qadriyatlar o'rganilishining obektivligi deganda nimani tushunasiz?
10. Ma'furaviy immunitet barqarorligiga erishishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan zamonaviy pedagogik usullarni izohlang.

X U L O S A

Diniy ekstremizmning xalqlar va davlatlar tinchligiga rahna solishini ushbu ilmiy tahlillardan ham yaqqol ko'rish mumkin ekan. Barcha diniy ekstremistik harakatlar faqat zo'rovonlik va tahdidlarga aosolangan bo'lib, ular hech qachon jamiyat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydilar. Demak, ularga qarshi ayovsiz, tizimli va birgalikda faoliyatlar olib borish lozim ekan. Mavzudagi diniy ekstremizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asosolari va usullarini o'rganish natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi va ularni bayon etamiz:

Diniy ekstremizm jamiyat, insoniyat, millat va davlatlar uchun juda xavfli, ularga qarshi kurashish dolzarb hisoblanadi.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashishda quyidagilar asosiy manba hisoblanadi. Bularga diniy manbalardan "Qur'on" va undagi oyatlar, Hadislar, fiqhshunoslardan Imom al-Moturudiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Shariat arkonlari alohida manbalar sanaladi. Asosiy vazifa ularning mohiyatini yoshlarga va barcha kitobxonlarga mukammal va xolis tushuntirish. Turli reaksiya guruhlar ham nashriyot manbalaridan foydalanishlarini esdan chiqarmasligimiz kerak. Axir targ'ibot va tashviqot ishlarida shular asosiy manbalar sirasiga kiradi. Agar yoshlarga adabiyotlardan qanday foydalanish, ularni o'rganishda nimalarga e'tibor berish, qaysi manbalardan umuman foydalanmaslik kerakligini to'g'ri tushuntirsak, mafkuraviy immunitetni oshirishga erisha olamiz.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashishda BMT va boshqa xalqaro, hamda ma'lum davlatlar hududida ishlab chiqilgan siyosiy-huquqiy hujjatlar bilan yaqindan va to'liq tanishish. Bu diniy ekstremistik harakatlarning jahon miqyosda ishlab chiqilgan qonuniy faoliyatlarga nechog'li zid ekanligini aniq bilamiz va ularga qarshi kurashda asoslangan hujjatga ega bo'lamiz. Xalqaro hujjatlarda inson va fuqarolar dahlsizligi, ularning yashash huquqlaridan hech kim mahrum eta olmasligi e'tirof etiladi. Bu gumanistik huquq sanaladi. Ularga qarshi barcha faoliyatlar jinoiy hisoblanib, zaruriy choralar ko'rish shart.

Mustaqil O'zbekistonda ham Konstitutsiyada inson va fuqarolarning xayoti dahlsizligi, shuningdek vijdon erkinligi alohida qayd etilgan. Bu bilan asosiy qomusimiz mohiyatan xalqaro hujjatlar va paktlarga mos ekanligini ko'rish mumkin. Demak, asosiy qonunlar majmuasida diniy ekstremizm rad etiladi va ularni to'liq o'rganish lozim.

Shuningdek, davlatimiz tinchligiga rahna soluvchi radikal guruhlar faoliyatlarini man etuvchi turli qator hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, barcha O'zbekiston fuqarolari ularning mazmunini to'liq bilishlari va ularga amal qilishlari lozim. Bu ayni paytda diniy dunyoqarashni kengaytirish va huquqiy madaniyatini rivojlantirishni talab etadi. Bular alohida holda BMI da bayon etildi.

Dinshunoslik va Dinlar tarixi, diniy ekstremistik tahdidlar, mafkuraviy xurujlar va tahdidlar, ma'naviy tahdidlar kabi sohalarni tadqiq etuvchi tadqiqotchi olimlar tomonidan atroflicha tahlil etilgan ilmiy izlanishlar materiallari ham yoshlar uchun diniy ekstremizmga qarshi kurash manbalari sirasiga kiradi. Bular haqida BMI da batafsil ifodalandi.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashda faoliyat samarali bo'lishi uchun turli usullardan foydalanish lozim. Bu usullarni dastlab ma'naviy va ma'rifiy kabi ikki qismga ajratish mumkin. Ammo ma'naviy usullar o'z qamroviga siyosiy, axloqiy, huquqiy sohalardagi tashviqot va targ'ibot, turli bahs va munozaralar uyushtirish, o'quv seminarlar, treninglar tashkil etish, sport musobaqalarini va san'at turlaridan oqilona foydalanish. Turli sport musobaqalarida yoshlar birlashadilar. San'at sohalari orqali ezgulikni targ'ib qilish mumkin. Bahs-munozaralarda barchaning erkin mushohada qilishiga sharoitlar yaratiladi. Milliy madaniy va diniy qadriyatlardan tizimli foydalanish.

Ta'lim tizimida kelajak avlodlarning yosh tafovvutlarini hisobga olgan holda tizimli targ'ibot va tashviqot usullarini qo'llash kerak. Ta'lim jarayonlarini ijodiylik va erkin fikrlashga sharoitlar yaratilgan holda olib borish lozim. Bundan tashqari diniy ekstremizmning mohiyatini ilmiy tahlil etish va ularni tushuntirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli

foydalanish kerak. Bunda diniy va milliy qadriyatlarni xolislik nuqtai nazaridan o'rganish va foydalanish lozim.

Mafkuraviy immunitetni hamisha barqarorlashtirib borish, bunda globalllashuv, ommaviy madaniyat va boshqa mafkuraviy tajovvuzlarni hisobga olish. Ularni oldini olish uchun doimo samarali o'qitishga erishish.

Manfur kimsalar bor ekan, ularning egoizmga asoslangan manfaatlari ham mavjud, demak ularga hamisha va ratsional kurash olib borish zarur. Bu borada ushbu ilmiy tahlil nazariy asos vazifasini o'taydi deb hisoblaymiz. Diniy ekstremizmning mohiyatidan ham uning millat, davlat va jamiyat taraqqiyotiga faq'at salbiy ta'sir etishini, tazovuzkorona faoliyatga asoslanganligini anglash kiyin emas. Tinchlik va bararorlikka rahna soluvchi kuchlar g'oyalar va kuchlarga q'arshi kurashish zarur. Talabalar mukammal bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganlaridagina ma'lum yot g'oyalarga q'arshi ezgu g'oyalar bilan q'arshi javobni bera oladilar. Axir “jaholatga qarshi faqat ma'rifat” bilangina kurashish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent.: O'zbekiston.2008- 40b
2. Karimov.I.A.Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag.-Toshkent.:”O'zbekiston”, 1993.- 112 bet.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.:O'zbekiston,1997y.-326b
4. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari.-Toshkent.:”O'zbekiston”.1998 yil.-160b
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni O'z qo'limiz bilan quramiz. T.7.-Toshkent.: “O'zbekiston”,1999.-247 bet.
6. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.-T.: O'zbekiston, 2001 y.-432 bet.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq' kerak.-Toshkent.: O'zbekiston. 2002y.-432 bet.
8. Karimov.I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-q'udratimizga, xalq'imizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. T.: «O'zbekiston» - 2004.325bet
9. Karimov I.A.,Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008y.- 176 bet.
10. Karimov I.A. O'zbekiston mustaq'illikka erishish ostonasida.-Toshkent.: O'zbekiston.2012 y.-440 bet.
11. Karimov I.A. Qadr-qimmatim, tayanchim va iftihorimsan, mustaqil O'zbekiston! –Toshkent.: Ma'naviyat. 2013 y.124 bet.
12. Yo'ldoshxo'jayev,H. Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik.-T.: Universitet, 2000. -123bet.
13. Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi.- T.:Akademiya, 2000, 204-bet.
14. Zakrullayev A., G'oyalar kurashi. Movaraunnaxr, T., 2000, 123-bet.
15. Qirg'izboyev M. Terrorizm va ekstremizm: asosiy tushunchalari va yo'nalishlari.-Toshkent.: A. A.Sino nomli nashriyot,2001y.-180 b.

16. Ubaydullayev U. Xalqaro terrorizm: tarixi va zamonaviy muammolari.-T.: Universitet,2002.-156 bet.
17. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqacha izohli lug'at) –Toshkent.:“Yangi asr avlodi”, 2002 y-192 bet.
18. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi kurash muammolari.-T.: ”O'zbekiston”,2003 y.160 bet.
19. Dobayev I. Islom radikalizmi: mohiyati, mafkura, siyosiy amaliyot.-T.:2003.-182 bet.
20. Falsafa: qomusiy lug'at(Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov).-T.:”Sharq”,2004.-496 bet.
21. Ochilova B., Shaxs ma'naviy kamolatida ixlosmandlik va ibrat birligi. Uzbekistan, T, 2004, 172-bet.
22. Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari.-T.:”O'zbekiston”, 2005.-264 bet.
23. Husniddinov Z. Diniy ekstremizm va tarrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari, Toshkent.:Toshkent Islom Universiteti nashriyoti, 2005,-160 bet.
24. Yusupov O. tahriri ostida, Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuzta savolga-yuzta javob)-T.:”Toshkent Islom Universiteti”, 2007, 132-bet.
25. N.Safarova Terrorizm.-T.:” NOSHIR”,2009.-216 bet.
26. Haqiqat manzaralari, - Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2009 y.-63 bet.
27. Ochilova B.M.,Qadriyatlar falsafasi, O'quv-uslubiy majmua./ o'quv qo'llanma/ -T.:”Yurist mediya markazi” nashriyoti, 2010 y.,209-bet.
28. O'zbekison Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “O'zbekiston mustaq'illikka erishish ostonasida” kitobini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. A.Sh.Bekmurodov va boshqalar.-Toshkent.:”O'qituvchi”,2011.-176bet.
29. Azizxo'jayev A. Chin o'zbek ishi.-Toshkent.:”O'zbekiston”,NMIU, 2011, 191 bet.

30. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotira va inson omili- buyuk kelajagimizning garovidir" risolasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma.-Toshkent.: "O'qituvchi" NMIU, 2012 y.-144bet.
31. Forobiy Abu Nasr Fozil odamlar shahri.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2012 y.-160bet.
32. Karimov S., Ahmedov I. "Dinshunoslik" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.,-Jizzax. 2013-2014 o'quv yili uchun.188bet.
33. Jumayev R. Bu chayonlarning maq'sadi nima? Kimlarga suyanadi ular? //Markaziy Osiyo madaniyati.2000. № 32, avgust.
34. Klyuchnikov B. Islamizm: SSHA i Yevropa.-M.:Algoritm. 2003 g.[http://www. Yandex.ru](http://www.Yandex.ru).
35. Moldaliyev O. Islamizm i mejdunarodniy terrorizm: ugrozaislama ili ugroza islamu?- Bishkek, 2004.-s 121. [http:// www. Yandex.ru](http://www.Yandex.ru).
36. Qodirov A."Ekstremizm- mutaassibchilik mahsuli".//Tafakkur №4, 2004 y. Toshkent. 97 bet.
37. Ibrohimova S." BMT va umumbashariy xavfsizlik",// "Tafakkur", -Toshkent, 2004y.2-son, 80 bet.
38. Erkayev A.Fan bilan dinni birlashtirishga ehtiyoj bormi? Tafakkur, 2005 y. 4-son, 23-bet.
39. Begmatov A. Aqidaparastlik manbalari. // Falsafa va huquq. 2005, №1.12bet.
40. S.Kistaubayev "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda ma'naviy va mafkuraviy tarbiyaning o'rni". // Ma'naviyat va mafkura: muammo, yechim, targ'ibot (Metodik seminar maq'olalari to'plami) –Toshkent.: NOSHIR, 2008y.-84 b.
41. Mirkomilova Z."Milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirishda ma'naviy qadriyatlarning o'rni".//Ma'naviyat va mafkura: muammo, yechim, targ'ibot.-Toshkent.: NOSHIR , 2008 yil, 84b
42. Xonazarov K. Terrorchilar tenglik tarafdorimi? "Tafakkur", 2009, 4-son,84b
43. Shodiyev E."Islom dini durdonalari",//O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent.:2009 yil, 25 dekabr, №36, 4-b.

44. Ahmedshina F. “Diniy qadriyatlar va ularning shaxs ma’naviyatiga tarbiyaviy ta’siri”. // Barkamol avlod va ijtimoiy taraqqiyot.-Toshkent,2010, 128 b.
45. A.Azizxo’jayev. Chin o’zbek ishi.-Toshkent:”O’zbekiston”,NMIU, 2011, 190-191 b.
- 46.Amalga oshirayotgan islohatlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish - yorug’ kelajagimizning asosiy omilidir. Prezident Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv-uslubiy qo’llanma / U.G’ofurov va boshqalar.-T.: “O’qituvchi” NMIU, 2014,- 104 bet.

Internet saytlari

1. www.bilim.uz.
2. www.philosophy.nsc.ru.
3. www.history.ru.
4. www.islom.uz
5. www.hidoyatsari.uz

**Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Tarix fakulteti Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi IV – bosqich ta-
labasi Xojiboyev Egamberdi tomonidan bajarilgan “ Diniy eks-
tremizmga qarshi kurashning ma'naviy- ma'rifiy asoslari va
usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Talaba Xojiboyev Egamberdi tomonidan bajarilgan“ Diniy ekstremizmga qarshi kurashning ma'naviy- ma'rifiy asoslari va usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tahlil qilindi va ish yuzasidan quyidagilar alohida qayd etiladi:

Bitiruv Malakaviy ishning tarkibiy tuzulishi kirish qismi, ikki bob, besh bo'limdan, xulosa qismi va adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Kishilik jamiyati o'z taraqqiyotida turli tahdidlarni boshdan kechirgan va kechirmoqda. Diniy ekstremizm ham ana shunday tahdidlardan biri hisoblanadi. Har bir davlat va millat tinch-totuv yashashni ta'minlashni xohlar ekan, yovuz kuchlarga qarshi kurashish maqsadga muvofiqdir. Ushbu bitiruv malakaviy ish mavzuida ham diniy ekstremizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy asoslari va usullari nazariy tahlil etilgan. Talaba ishda diniy ekstremizmning jamiyatga tahdidini, ularga qarshi kurashish zarurligini, kurashda tayanish kerak bo'lgan manbalarini va usullarini atroflicha tahlil eta olgan.

Jumladan, kirish qismida mavzuning tarkibiy tuzulishi, ishining predmeti va ob'yekti, mavzuning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari ifodalangan.

Birinchi bobda diniy ekstremizm tushunchasining mohiyati va mazmuni, vujudga kelishi, insoniyat taraqqiyotida diniy ekstremistik harakatlarning jamiyatga salbiy ta'siri masalalari bayon etiladi. Diniy ekstremistik harakatlarga qarshi kurashishning zaruratga aylanishi, bu jarayonda tayanish kerak bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy asoslar va usullar keng tavsiflangan. Bunda prezidentimiz Islom Karimov tomonidan e'tirof etilgan:”G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat” tamoyilining alohida e'tirof etilganligi ishning samarasini oshirgan. Bu tamoyilni amaliyotga joriy etishda milliy va diniy qadriyatlarni to'laqonli, xolis o'rganish, shuningdek boyitib borish, ajdodlarimiz xotirasini yod etish, yovuz g'oyalarga qarshi ezgu g'oyalar bilan, manfur fikrlarga qarshi oq'ilona fikrlar bilan javob qaytarish va har qanday jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob bermoq'lik zaruriyati bayon etilgan.

Ikkinchi bobda diniy ekstremizmga qarshi kurashishda foydalaniladigan usullar ijtimoiy jarayondagi xayotiy misollar bilan yoritilgan. Jamiyatda mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, vatanparvarlik, xalqparvarlik va millatparvarlik g'oyalarini yoshlar ongiga aynan oila- mahalla- maktab hamkorligiga amal qilib, tizimli va chuqur singdirib borish ilmiy-nazariy asoslangan. Shuningdek, istiqlol mafkurasi va milliy g'oya tamoyillarini teran tushuntirish tahlil etilgan. Diniy manbaalarini obektiv o'rgatish, ulardagi turli zo'rovonlik va tinchlikka rahna soluvchi g'oyalarga qarshi bayon etilgan diniy

bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillarini ham mufassal o'rgatish va ommaga tashviq'ot qilishning nazariy asoslari ifodalangan.

Bitiruv malakaviy ishida juz'iy kamchiliklar mavjud, ammo ular ishning sifat darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun, yuqoridagilarga asoslanib, Bitiruv Malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Jizzax tuman XTMFMT va TEB ga
Qarashli 59-sonli umumta'lim maktabi
o'qituvchisi:

O.Mamatov

**Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Tarix fakulteti Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi IV – bosqich ta-
labasi Xojiboyev Egamberdi tomonidan bajarilgan “ Diniy eks-
tremizmga qarshi kurashning ma'naviy- ma'rifiy asoslari va
usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Har bir yosh qalbi va ongi vayronkor kuchlarning asl mohiyati, ularning xususiyatlari jamiyatimiz taraqqiyotiga yetkazadigan tahdidi bilan bog'liq bilimlar bilan xabardor qilinishi kerak. Vayronkor kuchlarga qarshi kurashlarning ma'naviy-ma'rifiy asoslari nimalarda aks etganligi, ularning mazmuni, kurash usullarini o'rganish kerak.

Talaba Xojiboyev Egamberdi tomonidan bajarilgan“ Diniy ekstryemizmgga qarshi kurashning ma'naviy- ma'rifiy asoslari va usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tahlil qilindi va ish yuzasidan quyidagilar alohida qayd etiladi:

Jumladan, kirish qismida mavzuning tarkibiy tuzulishi, ishining predmeti va ob'yekti, mavzuning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari ifodalangan.

Birinchi bobda diniy ekstremizmga qarshi kurashish usullarining vujudga kelishi zarurlari bayon etiladi. Birinchi bobning birinchi bo'limida diniy ekstremizm tushunchasining mohiyati va mazmuni, insoniyat taraqqiyoti tarixida diniy ekstremistik harakatlarning jamiyatga salbiy ta'siri masalalari bayon etiladi.

Ikkinchi bo'limida diniy ekstryemizmgga qarshi kurashning ma'naviy asoslari bayon etilgan. Vijdon erkinligi qayd etilgan qonuniy hujjatlar, diniy va ilmiy- ma'naviy-huquqiy manbalarda insoniyat tinchligiga rahna soluvchi kuchlarga qarshi qanday munosabatlar i fodalangani qayd etilgan.

Birinchi bobning uchinchi bo'limida hurmatli prezidentimiz Islom Karimov tomonidan e'tirof etilgan:”G'oyaga qarshi g'oya, fikrga q'rshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat” tamoyili diniy ekstremizmga qarshi kurashning ma'naviy- ma'rifiy asosi sifatida talqin etiladi. Bu tamoyilni amaliyotga joriy etishda milliy va diniy qadriyatlarni to'laqonli, xolis o'rganish, shuningdek boyitib borish, ajdodlarimiz xotirasini yod etish, yovuz g'oyalarga q'arshi ezgu g'oyalar bilan va har qanday jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob bermoq'lik zaruriyati bayon etilgan.

Ikkinchi bobning birinchi bo'limida diniy ekstremizmga qarshi kurashishda sog'lom oilaviy munosabatlarni vujudga keltirish va mafkuraviy immunitetni rivojlantirish zarurati bayon etilgan. Bunda oila - maktab - mahalla hamkorligini ta'minlash lozimligi aytiladi.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashishda: ta'lim va tarbiya usullari, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik usullar, turli tabdirlarda tashviqotlar, seminar treninglar, davra suhbatlari, milliy va diniy qadriyatlarning

nishonlanishi, ularga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirlar, demak ilmiy-nazariy va ko'rgazmalilik usullari ifodalangan.

Jamiyatda mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik lozim. Vatanparvarlik, xalqparvarlik va millatparvarlik g'oyalari yoshlar ongiga aynan oila- mahalla- maktab hamkorligiga amal qilib, tizimli va chuqur singdirib borish. Shuningdek, istiqlool mafkurasini va milliy g'oya tamoyillarini teran tushuntirmoq , ularga oid bilimlarni kengaytirib borish. Islom dini manbaalarini obektiv o'rgatish, ulardagi turli zo'rovonlik va tinchlikka rahna soluvchi g'oyalarga qarshi bayon etilgan diniy bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillarini ham mufassal o'rganish va ommaga tashviq'ot qilishning nazariy asoslari ifodalangan.

Mavzu yuzasidan ta'lim texnologiyasi juda yaxshi ishlab chiqilgan. bunda mavzuga muvofiq keluvchi maktabda o'rganiladigan Dunyo dinlar tarixi faniga alohida e'tibor berilgan. Shunga moslab ta'lim texnologiyasi ishlab chiqilgan. Mavzuni yoritishda ma'ruza mashg'ulotini olib borish nazarda tutilgan. Barcha ilovalar, vaqt taqsimoti va slaydlar alohida ketma-ketlikda ifodalangan.

Xulosa qismida mavzuda tahlil etilgan masalalar yuzasidan umumiy yakuniy mulohazalar, shular asosida kelajak faoliyat uchun qarashlarning nazariy tasnifi ifodalangan.

Bitiruv malakaviy ishida juz'iy kamchiliklar mavjud, ammo ular ishning sifat darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun, yuqoridagilarga asoslanib, Bitiruv Malakaviy Ishini himoyaga tavsiya etaman.

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası
o'qituvchisi, f.f.n.dots:

M.Saidov

**Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Tarix fakulteti Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi IV – bosqich ta-
labasi Xojiboyev Egamberdi tomonidan bajarilgan “ Diniy eks-
tremizmga qarshi kurashning ma'naviy- ma'rifiy asoslari va
usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

X U L O S A

Insoniyat hamisha tinch-osuda yashashni eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etadi. Tinchlik va osoyishtalikni barqarorligini ta'minlash, demak, unga rahna soluvchi turli radikal kuchlarga, yot g'oyalarga va tajovvuzkor mafkuralarga qarshi kurashmoq' har bir davlatning bosh vazifasidir. Tinch hayotimizga tahdid soluvchi yovuz harakatlarga diniy ekstremizm ham kiradi

Diniy ekstremizmning mohiyatidan ham uning millat, davlat va jamiyat taraqqiyotiga faqat salbiy ta'sir etishini, tazovvuzkorona faoliyatga asoslanganligini anglash kiyin emas. Tinchlik va barororlikka rahna soluvchi kuchlar g'oyalar va kuchlarga qarshi kurashish zarur. Buning uchun avvalo insonlarni, shuningdek yoshlarni xolis va atroflicha tahlil etilgan ilmiy va diniy bilimlarga ega bo'lishligiga erishish zarur. Talabalar mukammal bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganlaridagina ma'lum yot g'oyalarga qarshi ezgu g'oyalar bilan qarshi javobni bera oladilar.

Talaba Xojiboyev Egamberdi tomonidan bajarilgan“ Diniy ekstryemizmgga qarshi kurashning ma'naviy- ma'rifiy asoslari va usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ham ana shu yo'ldagi faoliyatlardan biridir. BMI tahlil qilindi va ish yuzasidan quyidagilar alohida qayd etiladi:

Bitiruv Malakaviy ishning tarkibiy tuzulishi kirish qismi, ikki bob, besh bo'limdan, xulosa qismi va adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Kirish qismida mavzuning tarkibiy tuzulishi, ishining predmeti va ob'yekti, mavzuning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari ifodalangan.

Birinchi bobda diniy ekstremizm tushunchasining mohiyati va mazmuni, vujudga kelishi, insoniyat taraqqiyotida diniy ekstremistik harakatlarning jamiyatga salbiy ta'siri masalalari bayon etiladi. Diniy ekstremistik harakatlarga qarshi kurashishning zaruratga aylanishi, bu jarayonda tayanish kerak bo'lgan ma'naviy- ma'rifiy asoslar va usullar keng tavsiflangan.

Dunyodagi boshqa davlatlarning diniy ekstremizmga qarshi kurash usullaridan O'zbekiston davlatining bu boradagi faoliyatlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Biz ham boshqa davlatlar singari tajovvuzkor kuchlarga qarshi huquqiy keskin choralarni ko'ramiz, shu bilan birga milliy qadriyatlarni to'laqonli o'rganish, ularni saqlash, ezgu g'oyalarni shakllantirish kabi ma'naviy- ma'rifiy usullardan ham kengroq foydalanish bilan samaraliroq natijalarga erishiladi.

Bunda prezidentimiz Islom Karimov tomonidan e'tirof etilgan:”Jaholatga qarshi - ma'rifat” tamoyilining alohida e'tirof etilganligi ishning samarasini oshirgan. Bu tamoyilni amaliyotga joriy etishda milliy va diniy qadriyatlarni to'laqonli, xolis o'rganish, shuningdek boyitib borish, ajdodlarimiz xotirasini yod etish, yovuz g'oyalarga qarshi ezgu g'oyalar bilan, manfur fikrlarga qarshi oq'ilona fikrlar bilan javob qaytarish va har qanday jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob bermoqlik zaruriyati bayon etilgan.

Mavzu yuzasidan ta'lim texnologiyasi ishlab chiqilgan. Bunda mavzuga muvofiq keluvchi maktabda o'rganiladigan Dunyo dinlar tarixi fanig mavzusiga moslab ta'lim texnologiyasi ishlab chiqilgan. Mavzuni yoritishda ma'ruza mashg'ulotini olib borish nazarda tutilgan. Barcha ilovalar, vaqt taqsimoti va slaydlar alohida ketma-ketlikda ifodalangan. Mavzuni tushuntirishdan oldin o'quvchilarning mavzuga oid oldin bilgan ma'lumotlari tezkor savollar bilan tahlil etilgan, dars oxirida esa ularni mustahkamlash maqsadida yana vazifalar bajarishlari ta'minlangan. O'quvchilarning erkin mushohada yuritishi uchun, hamkorlikda faoliyat olib borishlari uchun alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari ma'ruza darsi bo'lishi bilan birga o'quvchilarning faolligini oshirish va bahsga jalb etish maqsadida kichik guruhlariga bo'lib ishlashlari uchun jadvallar tayyorlangan. Bular barchasi o'quvchilarning nafaqat tinglash, balki doimo diqqat bilan ma'lumotlarni qabul qilishlari va o'zlari ham bahsda ishtirok etishlariga olib kelgan.

Bitiruv malakaviy ishida juz'iy kamchiliklar mavjud, ammo ular ishning sifat darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun, yuqoridagilarga asoslanib, Bitiruv Malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası
o'qituvchisi:

Z.Mirkomilova